ISSN: 2181-3035
№ 4 30.05.2022






Mirzo Ulug'bek (1394-1449)

# TALQIN VA TADQIQOTLAR

## respublika ilmiy-uslubiy jurnali

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Iqtisod fanlari
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar
- Psixologiya fanlari
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport

talqin@bk.ru
+99891-152-93-14
www.talqinva tadqiqotlar.uz

@TALQINVATADQIQOTLAR

**Talqin va tadqiqotlar**

**ilmiy-uslubiy jurnal**

**scientific-methodical journal**

**научно-методический журнал**

**Bosh muharrir:**
**I.I.Abdumannonov**

**Mas'ul muharrir:**
**O.S.Isroilov**

**Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

**ISSN 2181 - 3035**

**Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.**

**Tel: +99891-152-93-14**
**E pochta: talqin@bk.ru**
**Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz**

## Tahrir kengashi:

**Qo'ldashev Sherali Temiraliyevich**
*O'z FA Sharqshunoslik instituti*
*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
**Bazarov Odiljon**
*Filologiya fanlari doktori*
*Qo'qon davlat pedagogika instituti*
**Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich**
*Xo'jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)*
**Masharipova Gularam Kamilovna**
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti
**Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich**
*Namangan davlat universiteti*
*tarix fanlari nomzodi, dotsent*
**Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li**
*O'z FA Tarix instituti*
**Tojiyeva Gulnora Akramxonovna**
*Xalq ta'limi a'lochisi*
**Abdullayeva Maftunaxon Umidjon qizi**
*Qo'qon davlat pedagogika instituti*
**Raximova Zuxraxon Maxmudovna**
*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti*
**Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna**
*O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*
**Akbarov Qobuljon Yakubovich**
*Qo'qon davlat pedagogika instituti, tarix fanlari nomzodi*
**G'ofurovTo'lqinjon Zafarjon o'g'li**
*Qo'qon davlat pedagogika instituti, matematika fani o'qituvchisi*
**Baymenova Kamshat Saparbayevna**
*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*
**Bazarov Otabek Odilovich**
*Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD*
**G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna**
*Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi*
**Rahimova Maftuna Odilovna**
*Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD*
**Mirzaahmedova Kamola Toxirovna**
*Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti*

**MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ**


| | | |
|---|---|---|
| 1. | TRADE RELATIONS BETWEEN KOKAND KHANATE AND EASTERN TURKEY<br>Q.Akbarov | 4 |
| 2. | MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI NORMATIV HUQUQIY HUJJATLARINI EKSPERTIZADAN O‘TKAZISH MASALALARI<br>Aliqulov Komiljon Urol o‘gli | 9 |
| 3. | G‘afforova Shahribonu<br>BOLANING TA’LIM-TARBIYASIDA OTA-ONALARNING ROLI VA AHAMIYATI | 16 |
| 4. | Ismoilova R.R, Omonov M<br>LINUM USITATISSIMUMUM L. NING BIEKOLOGIK XUSUSIYATLARI | 19 |
| 5. | Mamasahatova Sharafat Urol qizi<br>BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI ANVAR OBIDJON SHE’RLARINI TAHLIL QILISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH | 22 |
| 6. | NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI TAYYORLASHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI<br>Abduraxmonov G‘anisher Shavkat o‘g‘li | 26 |
| 7. | TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI<br>Madiyorova Shohista Sabirjonovna, Otamuratova Intizor Komilovna | 37 |
| 8. | THE USAGE OF STORYTELLING IN PRIMARY CLASSES TO IMPROVE COMMUNICATIVE COMPETENCE<br>Naimova Dildora Kahramonovna, Nurullayeva Feruza Alisher qizi | 40 |
| 9. | СЕМАНТИК АННОТАЦИЯ ВА СЕМАНТИК КЕНГАЙТМА ТУШУНЧАЛАРИ<br>Ахмедова Дилдора Баҳодировна | 43 |
| 10. | XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДА ҚОЗИХОНА ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТУРЛАРИ<br>Зафар Маҳмудов | 47 |
| 11. | XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДА ХИВА ХОНЛИГИДА ДИПЛОМАТИК ЭТИКЕТ ВА МУЗОКАРАЛАР ОЛИБ БОРИШНИНГ АСОСИЙ ТАРТИБ-ҚОИДАЛАРИ<br>Зафар Маҳмудов | 51 |
| 12. | ИЗУЧЕНИЕ ОБУЧЕНИЯ ЧТЕНИЮ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ<br>Хасанова Хилола Муталибжановна | 55 |
| 13. | ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШГА ҚЎЙИЛГАН ТАЛАБ ВА ЯНГИЧА ЁНДОШУВЛАР<br>Саъдуллаева Фазилат Ражаббоевна | 58 |
| 14. | MENEJMENT TA'LIMI TARIXI<br>Hakimov T. | 63 |
| 15. | ТАРМОҚ ТРАФИГИДАГИ ИНТСИДЕНТЛАРНИ ХОЛТ ВИНТЕРС УСУЛИДА АНИҚЛАШ<br>Носиров Аъзам Тохир ўғли | 67 |
| 16. | ИЗУЧЕНИЕ ПРОЦЕССА КРИСТАЛЛИЗАЦИИ МОНОКАЛЬЦИЙФОСФАТА И КРАТНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАТОЧНОГО РАСТВОРА<br>Меликулова Г.Э, Мирзакулов Х.Ч. Шаймарданова М.А, Тожиев Р.Р, Сейтназаров А.Р. | 71 |
| 17. | KIMYO-TEXNOLOGIK SISTEMALARNING TEXNOLOGIK JARAYONLARINI BOSHQARISHDA SITUATSION MODEL VA ALGORITMLARNING AHAMIYATI<br>Kayipbergenov B. Ilxanov Nurbek Mamayevich | 75 |
| 18. | “QUTADG‘U BILIG” ASARIDAGI TUSH ILMIGA DOIR MULOHAZALAR<br>Xolmanova Sayyora Yuldashovna | 79 |
| 19. | KURASH - O‘ZBEK MILLATINING OR-NOMUSI<br>Қодиров Елмурод Жўракулович | 81 |
| 20. | ЗНАЧЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ БУХГАЛТЕРА В СОВРЕМЕННОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СРЕДЕ<br>Сайидов Камол Беркин угли, Джамбакиева Гульнора Сайфутдиновна | 83 |
| 21. | ОЦЕНКА НЕОБХОДИМОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ПО МСФО ОС<br>Фозилов Ойбек Авазбек угли<br>Джамбакиева Гульнора Сайфутдиновна | 87 |
| 22. | БУХГАЛТЕР-АНАЛИТИК - ПРОФЕССИЯ БУДУЩЕГО В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ<br>Зоиржонова Мафтуна Улугбек кизи, Джамбакиева Гульнора Сайфутдиновна | 90 |
| 23. | ТРЕБОВАНИЯ, ПРЕДЪЯВЛЯЕМЫЕ К ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ В БУХГАЛТЕРСКОМ УЧЕТЕ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ<br>Абдуваитова Фирангиз Фахриддиновна, Джамбакиева Гульнора Сайфутдиновна | 93 |
| 24. | ADABIYOT FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARI<br>Mavlyanova Shahodat Djambulovna | 97 |
| 25. | GEOGRAFIYA FANIDA QO‘LLANILADIGAN SINFDAN TASHQARI TADBIRLAR<br>Muslimova Dildor Mamatmo‘minovna | 103 |
| 26. | O‘ZBEKISTONDA QORA VA RANGLI METALL SANOATINI RIVOJLANTIRISH<br>Allanov Orifxon To‘xtaevich | 106 |
| 27. | G‘aniyeva M., Jumanov J.<br>MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA DASTURLAR TUZISHNI O‘RGATISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI | 110 |

# TRADE RELATIONS BETWEEN KOKAND KHANATE AND EASTERN TURKEY

**Q.Akbarov**
Qo‘qon DPI “Tarix” kafedrasi mudiri, t.f.n. dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256180

**Аннотация:** В статье представлены сведения о торгово-экономических связях Кокандского ханства с Восточным Туркестаном. В частности, были высказаны научные взгляды на усиление экономического влияния Кокандского ханства в Восточно- Туркестанской области, оккупированной китайско-маньчжурским правительством.

**Ключевые слова**: Кокандское ханство, Восточный Туркестан, китайско-маньчжурское правление, «андижанцы», уйгуры, Синьцзян, Ганьсу.

**Annotation:** The article provides information on the connections of Kokand's Khanate conducting trade economic trends with East Turkestan.In particular, the Chinese Turkestan province has made researchers to strengthen the economic impact of the Kokand Khanate.

**Keywords:** Kokand khanate, East Turkistan, China-Manjur Government, Uyghurs, Xinjong, Gansu.

The rulers of Kokand tried to spend all their domestic and foreign policies on the development of the country. During the years of strong centralization of the state, there was a revival in the economy and cultural life of the country. The foreign economic relations of the Kokand Khanate played an important role in the growth of the country's economy. In particular, trade with East Turkestan (which the Chinese called Xinjong, meaning "New Country"), which was occupied by China during 1755-1759, was important for the khanate's economy. The activities of Central Asian traders and artisans, including citizens of the Kokand Khanate, were considered important in this trade. In Central Asian sources of the 18th and 19th centuries and in Chinese documents, they were known as "Andijan people." The study of their activities opens new pages in the history of Uzbekistan.

The main trade route between Andijan and Kashgar-Khotan, which connects China with Central Asia and Russia and the Middle East, passes through the Osh-SufikorovulTerak Pass-Twin, which is considered the safest and closest route for traders. In turn, Central Asian traders also entered Chinese territory through the cities of East Turkestan. In the 17th century, Chinese documents confirm that Fergana traders traded in Gansu Province, China [2.S.225]. Russian orientalist V. V. Describing Andijan and the "Andijan people", Barthold wrote: "Trade relations

between Central Asia and East Turkestan were carried out through" Andijan "traders. On the other hand, Andijan became so popular that even other traders and artisans from all over Central Asia were called "Andijan people" in the Uyghur land "[1. S.326]. Therefore, it was not in vain that several addresses in East Turkestan were called by the same name. In particular, one of the streets of the Yangikurgan district, built in 1838 by the governor of Kashgar Zuhiriddinbek, is Andijan Street, Andijan Palace, the largest caravanserai in the center of Kashgar, and the address of Little Andijan near Kashgar.

The peoples of Central Asia (primarily the Fergana Valley) and East Turkestan have long coexisted as part of a single ethnocultural and historical state. The Uyghurs of East Turkestan and the Uzbeks of Fergana spoke a close dialect and had no difficulty in trade or commerce. As a result of the arrival of many people in East Turkestan in the Fergana Valley and the migration of Uzbeks to East Turkestan, economic and trade relations between Uzbeks and Uighurs were established. Therefore, they also had a social life and a mutual marital relationship. The settlers of the khanate were mainly merchants and artisans, and some of them were engaged in agriculture and animal husbandry. The majority of the population in these two areas is Muslim, and trade was largely based on Sharia law. From the above, it is clear that there are interdependencies and similarities in the socio-economic and cultural life of the people of these two regions. The migration of the population to one region or another due to political processes has also accelerated trade relations.

The Kokand rulers tried to keep the Kokand traders in Shingjong under their control. To do this, he appointed an elder from among them. Opinions also differ as to which Kokand ruler was first appointed by this elder. The Uyghur historian Qurban Ali Ayaguzi believed that this system of elders was established after the 1832 Kokand-China agreement. But in our opinion, the position of God existed even before the Norbutabi period, and was a career elected by the people, controlling the markets. This position is similar to that of a market elder who controlled the markets in the Central Asian khanates. In particular, he was the elder of the Margilan market, who opened the market with a "blessing" and controlled the market. He prevented unscrupulous acts such as deception of buyers by market vendors, sale of low quality goods and theft. But the powers of the market elder in Xingjong were broad, strengthening relations between the Sino-Manchu government and the Kokand Khanate. He controlled the Kokand people in Xingjong according to Sharia law, collected taxes from them and sent them to the Kokand ruler, controlled the Kokand coins circulating in the Shingjong markets, and protected the Kokand people from Chinese-Manchurian and local officials.

So, after the Chinese-Manchurian government allowed Kokand traders to trade in Xinjong markets, they entered Xinjiang and expanded their trading activities in the country.

Kashgar is one of the largest trade centers of East Turkestan, where Kokand traders operated, and it has long been a major intermediary of Central Asian goods and a center for the supply of Chinese goods to the East. The traders who came here took their goods to other cities of East Turkestan: Yorkend, Yangihisar, Khotan, Aksu, Uchturfon. The center has full facilities for traders. In particular, in the middle of the XIX century in Kashgar there were more than 30 caravanserais. Merchants from Kokand and Andijan mostly settled in the Andijansaroy caravanserai of the city, while traders from Margilan stayed more in the caravanserai named after Konaksaray [5.S.90].

One of the centers where Kokand traders are active -

It was Uchturfon. A Chinese document states that "traders from Andijan were allowed to graze their cattle on pastures near Osh (Uchturfon)." Kokand traders also began to enter Aksu through Kyrgyz lands. The city of Aksu, a major trade center, has always been open to local and foreign traders on the basis of equal privileges. With the opening of the market, people quarreled and bought goods from shops, where Kokand traders traded not only products made in the khanate, but also precious stones dug in the mountains around Hotan and Yorkend, according to a Chinese document. This shows that the Kokand traders were the leaders in trade relations in East Turkestan, where they also controlled trade with local products, which played an important role in the range of goods sold here. According to Chinese documents, "Kokand traders gradually seized the domestic markets of East Turkestan, amassed property and funds, and rented Uyghur houses."

Representatives of the Kokand Khanate played a significant role not only in trade, but also in the production of handicrafts in East Turkestan. In particular, the Andijan people played an important role in the Turfan handicrafts of the Dungon, Chinese, Andijan, Kashgar and York peoples. The Turfans themselves were less engaged in handicrafts.

Kokand traders brought to Central Turkestan mainly silk, cotton and wool fabrics from the products of the Central Asian khanates. Silk and semi-silk fabrics produced at the Kokand and Margilan factories are among the main commodities in the Kashgar and Yorkend markets. It should be noted that 81% of the fabric woven mainly in Kashgar was sent to Central Asia [4.S.158]. Although silk and semi-silk fabrics were also produced in East Turkestan, their quality was not very high.

Writing about fabric sales in East Turkestan markets, Ch. Valikhanov brought a lot of silk and semi-silk fabrics from Kokand khanate to Kashgar, and a small amount of cotton fabrics. Because cotton fabrics were cheap in East Turkestan, khanate

traders did not benefit from it. The Kokand merchant, who brought cloth from the khanate, earned an average of 2 gold coins, [3.B.78]. Popular among the people of East Turkestan and the Kyrgyz, the woolen felt woven in Namangan, called "Timpai" or "black helmet", is highly valued for its toughness, durability and. In Namangan, two pieces of it were valued at 12-16 tenge, while the Kyrgyz exchanged it for 5 sheep. In Yorkend, a simple coat made of timpai cost 0.5 gold [6.S.76].

The goods brought from Kashgar to the Kokand khanate were varied. In Kashgar, woven felt, bed linen, and polos were exported to Central Asia. Kashgar sandstones processed by blacksmiths and carvers are considered to be the most popular in Fergana. Kashgar and Aksu blacksmiths made their products from copper, iron and cast iron. These products are mostly exported to Russia and China.

Kokand traders have also benefited greatly from products made in China. Tea has a special place among them. In particular, the annual turnover of tea products was 30,000 pounds and was loaded on 30,000 horses [4.S.124].

Kokand traders traded in East Turkestan through barter or Kokand's gold, silver, and copper coins, as well as coins minted in East Turkestan itself.

From the above information it can be concluded that:

After the Manchu government invaded East Turkestan, the country banned local Uighur traders from trading in Central Asia, including the Kokand Khanate, in order to stop external influences.

As a result, after Kokand traders were allowed to trade in East Turkestan markets, they entered East Turkestan and expanded their trading activities in the country.

Chinese products, such as tea, silk, ravoch, silver yombs, and local fabrics, were purchased from Chinese and Uyghur traders and exported to Central Asian khanates, Kyrgyz and Kazakhs, Russia, Afghanistan, and the Middle East. They monopolized trade in East Turkestan.

The Kokand traders gathered in the most important cities of East Turkestan and began to form their own associations to be legally protected before the local and Chinese governments. Farmers and artisans from the khanate also came here and engaged in their activities. They enriched these spheres of economic life of East Turkestan with the agricultural culture and handicraft traditions of their country, and they themselves assimilated the achievements of East Turkestan people in economic life.

A system of elders-gods appointed by the Kokand khan was established to control traders, farmers and artisans who were citizens of the Kokand khanate in East Turkestan.

By the middle of the 19th century, the main goods in trade between the two countries were Chinese and Russian goods. However, local goods were also common in trade between the Kokand Khanate and East Turkestan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bartold V. V. Andijan//soch. M., 1965, t. III.

2. Bell'yu G.V. Dungane 1845 po 1865 g. Iz istorii Kashgara. –Sbornik geograficheskix, topograficheskix i statisticheskix materialov po Azii. Vып. XII. 1884.

3.Voxidov Sh.X. XIX-XX asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixnavislikning rivojlanishi.t. f. d. ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiyasidan. –T.: 1999.

4.Kuznetsov V.S. Sinskaya imperiya na rubejax Sentralnoy Azii. (vtoraya polovina XVIII- pervaya polovina XIX vv.). Novosibirsk., 1983

5. Klyashtornыy S.G., Kolesnikov A.A. Vostochnыy Turkestan glazami russkix puteshestvennikov (vtoraya polovina XIX v.). A.-A.: Izdatelstvo «Nauka» Kazaxskoy SSR. 1988.

6.Xo'jayev A. Iz istorii mejdunarodnыx otnosheniy Sentralnoy Azii v XVIII veke. – Tashkent: Fan. 2003.

7.Qo'lashev Sh. Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston - Toshkent: "Akademnashr". 2021

# MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI NORMATIV HUQUQIY HUJJATLARINI EKSPERTIZADAN O‘TKAZISH MASALALARI

**Aliqulov Komiljon Urol o‘g‘li**
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat boshqaruvi yo‘nalishi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256186

**Annotatsiya:** Bugungi kunda qonunchilik hujjatlarini mukammal, bugungi kun talablari darajasida qabul qilish murakkab va ko’p bosqichli jarayondir. Shu bois ushbu vazifani samarali hal etish uchun albatta ekspertlik tekshiruvlari imkoniyatiga tayanishimiz zarur. Shu bilan birga huquqiy me’yorlarni ilmiy asoslantirilgan holda yaratish qonunshunoslar, olimlar, qonun ijrosini amalga oshiruvchi va huquqni qo’llovchi organlar, shuningdek, barcha fuqarolar uchun ham zarurdir. Loyihalar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish normativ huquqiy hujjatlar loyihalarini ularning maqsadga muvofiqligi, asosliligi va qonuniyligi mezonlariga muvofiqligi nuqtai nazaridan tahlil qilish va baholashning belgilangan tartibda vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladigan tashkiliy-huquqiy instituti sifatida tavsiflanadi.Ushbu maqolada mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan chiqariladigan normativ huquqiy hujjatlari loyihalarining huquqiy ekspertizadan o‘tkazish jarayoni va bosqichlari yoritib berilgan.Ushbu maqolada ilgari surilgan takliflarni mahalliy davlat hokimiyati organlari hujjatlarini takomillashtirish jarayonida foydalanish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Ekspertiza, huquqiy ekspertiza, mahalliy davlat hokimiyati, mahalliy davlat hokimiyati qarorlari, Normativ tusdagi qarorlar,normativ bo‘lmagan qarorlar.

**Annotation:** Today, the adoption of perfect legislation at the level of today's requirements is a complex and multi-stage process. Therefore, in order to effectively address this task, we must rely on the possibility of expert inspections. At the same time, the creation of legal norms based on science is necessary for lawyers, scholars, law enforcement and law enforcement agencies, as well as for all citizens. Examination of projects and existing normative legal acts is described as an organizational and legal institution carried out by the competent authorities in the prescribed manner for the analysis and evaluation of draft normative legal acts in terms of their expediency, validity and legality. The process and stages of legal examination of draft normative legal acts issued by the Government of the Republic of Uzbekistan are described.

**Keywords:** Expertise, legal expertise, local government, local government acts, normativ acts, no-normative acts.

**Аннотация:** На сегодняшний день принятие совершенного законодательства на уровне сегодняшних требований представляет собой сложный и многоэтапный процесс. Поэтому для эффективного решения этой задачи мы должны опираться на возможность экспертных проверок. В то же время создание правовых норм на основе науки необходимо для юристов, ученых, правоохранительных и правоохранительных органов, а также для всех граждан. Экспертиза проектов и действующих нормативных правовых актов характеризуется как организационно-правовой институт, осуществляемый уполномоченными органами в установленном порядке для проведения анализа и оценки проектов нормативных правовых актов на предмет их целесообразности, обоснованности и законности.Процесс и этапы правовой экспертизы проектов нормативных правовых актов, издаваемых Правительством Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** Экспертиза, судебная экспертиза, местное самоуправление, акт местного самоуправления, нормативные акты, ненормативные акты.

Ekspertiza tushunchasining nazariy va amaliy jihatlarini o’rganish uchun ekspertiza tushunchasini aniqlab olish maqsadga muvofiq. “Ekspertiza” lotincha so’z bo’lib, aynan, so’zma-so’z tarjimasida «tajribali» degan ma’noni anglatadi. Lekin jamiyat hayotida birmuncha kengroq ma’noda – hal etilishi maxsus bilim, ko’nikma va amaliy tajribaga ega mutaxassislarni talab etuvchi muayyan masala

Ijtimoiy hayot jabhalarini turli-tumanligi bois, uning u yoki bu sohasida amalga oshiriladigan ekspertizani ham muayyan turlarga ajratish mumkin. Ushbu dissertatsiya ishimizda biz ekspertizaning asosiy turlaridan biri bo‘lgan huquqiy ekspertizaga to‘xtalib o‘tamiz.

Xususan, professor H.Odilqorievning fikricha, normativ huquqiy hujjatlarni ekspertiza qilishning rasmiy va norasmiy o’tkazilishi mumkinligini qayd etadi”[1].

Mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari ekspertizasining turlarini mazkur hujjat loyihasining murakkabligiga ko’ra ham tasniflash mumkin. Ushbu asosga ko’ra ekspertizani yuridik adabiyotda kompleks hamda ixtisoslashgan ekspertizalarga ajratiladi[2]. Agar mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari qonun bilan tartibga solinuvchi bir nechta sohalarga taalluqli bo’lsa, bir qator turli sohalarning mutaxassislari ishtirokida kompleks ekspertizani o’tkazish maqsadga muvofiqdir. Jamiyatning biron bir

[1] Odilqoriev H. Qonun loyihalarini ilmiy-huquqiy ekspertiza qilishni takomillashtirish // Qonunchilik hujjatlarini ekspertiza qilish muammolari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Toshkent, 2005. – B. 27

[2] Qarang: Raldugin N.V. Pravovaya ekspertiza proektov federalьnыx zakonov. – M.: Izd-vo MGU, 2001. S. 16.

sohasiga taalluqli bo'lgan loyiha bo'yicha ixtisoslashgan ekspertizani o'tkazish bilan kifoyalanish mumkin.

MDHga a'zo davlatlar tajribasiga murojaat etadigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasida bu muammo u yoki bu darajada o'rganilgan. Jumladan, N.V.Raldugin tomonidan 1998, 2001 yillarda nashr etilgan "Qonun loyihalarining huquqiy ekspertizasi" nomli monografiyada qonun loyihalari va qonun hujjatlari huquqiy ekspertizasining tushunchasi, printsiplari, mazmun-mohiyati, qonun loyihasi ekspertizasi bo'yicha xulosa haqidagi masalalar yoritilgan[3]. Yu.Sidelnikov ekspertizaning hozirgi holati va rivojlanish tendentsiyalarini tadqiq etgan[4]. Shuningdek, V.Yu.Ragozin tomonidan amalga oshirilgan nomzodlik tadqiqotida huquqiy ekspertiza instituti kompleks ravishda norma ijodkorligi jarayonining muhim bir elementi sifatida ko'rib chiqilgan hamda xorijiy mamlakatlarning qonun loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish amaliyoti sistemalashtirilgan[5].

Huquqiy ekspertiza jarayonida loyihaning qonunchilik texnikasi talablariga nechog'lik muvofiqligi aniqlansa, qonunchilikni tizimlashtirish jarayonida esa huquqiy ekspertiza usulidan foydalanish orqali mavjud muvoziyliklar, ya'ni parallelliklar, ortiqcha so'zlar, ziddiyatlar qonun loyihalarigi kamchiliklar sifatida bartaraf etiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlari loyihalari ko'rib chiqish uchun tayyorlanganligi va sifat darajasiga qarab ham ekspertiza dastlabki, qo'shimcha, qayta kabi bir nechta turlarga bo'linadi. Sifat jihatdan unchalik yuqori darajada tayyorlanmagan loyihalar yuzasidan, odatda bir necha marotaba ekspertiza o'tkaziladi. Ular ham dastlabki, ham takroriy, ham qayta ekspertizadan o'tkaziladi. Agar tayyorlangan qonun loyihasi sifatli bo'lib, u bo'yicha kamchiliklar deyarli mavjud bo'lmasa, faqat dastlabki ekspertiza bilan kifoyalaniladi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarining ekspertizasi konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlashning muhim kafolati bo'lib hisoblanadi. Ekspertiza jarayonida qonun loyihasiga qo'yiladigan asosiy talab uning huquqiylik, adolatlilik printsiplariga, O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni normalariga muvofiqligini o'rganishdan iborat. Agar nomuvofiqlik aniqlangudek bo'lsa, ekspertiza xulosasida uni bartaraf etishga oid fikrlar bayon etiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonunida mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishga oid muhim qoidalar o'rnatilgan. Mazkur qonunning 26-moddasida huquqiy ekspertiza davomida normativ-huquqiy hujjat loyihasining

[3] Raldugin N.V. Pravovaya ekspertiza proektov federalьnых zakonov. – M.: Izd-vo MGU, 2001. – 80 s.;
[4] Sidelьnikov Yu. Ekspertiza: sostoyanie i tendentsii razvitiya // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnые otnosheniya. 1997. -№ 2
[5] Ragozin V.Yu. Pravovaya ekspertiza zakonoproektov v Rossiyskoy Federatsii. Avtoref. dis. … kand. yurid. nauk. – M.: 1998

O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, unga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo’lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi, shuningdek havola qiluvchi normalar qo’llanilishining asosliligi hamda maqsadga muvofiqligi tekshirilishi belgilangan.

Shuningdek, Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi ishlab chiquvchining yoki normativ-huquqiy hujjat qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organning yuridik xizmati, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, uning hududiy bo‘linmalari va boshqa tashkilotlar tomonidan qonunchilikka muvofiq o‘tkaziladi[6]. E’tiborga loyiqki, O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi davomida mazkur loyihalarning ularda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida korrupsiya, boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishi uchun sharoit yaratadigan, shuningdek tadbirkorlik sub’ektlari uchun asossiz xarajatlar qilishga olib keluvchi ortiqcha ma’muriy hamda boshqa cheklovlarni joriy etadigan qoidalar va normalar bor-yo’qligini aniqlash nuqtai nazaridan ham tahlilini amalga oshiradi.

Mazkur normani samarali tatbiq etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2021-yil 15-noyabrdagi 19-mh-son buyrug‘iga 1-Ilova sifatida tasdiqlangan “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish, huquqiy ekspertizadan o‘tkazish Qoidalari”tasdiqlandi[7]. Mazkur Qoida mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini (bundan buyon matnda loyiha deb yuritiladi) tayyorlash, yuridik-texnik rasmiylashtirish va huquqiy ekspertizadan o’tkazish tartibini belgilab berdi.

Ushbu qoidalarda belgilanishicha normativ tusdagi qaror loyihasini dastlab mahalliy davlat hokimiyati organining yuridik xizmati tomonidan, keyinchalik hududiy adliya organlaridan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilishi ta’kidlangan. Qaror loyihasining mahalliy davlat hokimiyati organining yuridik xizmati tomonidan ekspertizadan o‘tkazilishi tartibini ko‘rib chiqamiz. Qaror loyihasini ishlab chiquvchi kelishilgan loyihani mahalliy davlat hokimiyati organining yuridik xizmatiga kiritadi. Yuridik xizmat qaror loyihasini Normativ huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga jamoatchilik muhokamasi o‘tkazilishi uchun joylashtiradi. Muhokama tugagandang so‘ng yuridik xizmat qaror loyihasini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, unga nisbatan yuqoriroq kuchga ega bo‘lgan boshqa normative-huquqiy hujjatlarga, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning talablariga muvofiqligini, shu jumladan qaror loyihasida havola qiluvchi normalar qo‘llanilishining asosliligi hamda maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan huquqiy

[6] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son
[7] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.11.2021-y., 10/21/3333/1077-son

ekspertizani o‘tkazadi. Qaror loyihasi yuqorida keltirilgan talablarga mos bo‘lganda yuridik xizmat qaror loyihasi yuzasidan huquqiy xulosa tayyorlaydi[8]. Yuridik xizmat tomonidan tayyorlangan huquqiy xulosasida normativ-huquqiy hujjatni ishlab chiqish qaysi normativ-huquqiy hujjatlarga binoan topshirilgan bo‘lsa, o‘sha normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi, shuningdek yuqori organning topshiriqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar; qaror loyihasi asosiy qoidalarining mohiyati va ahamiyatining qisqacha bayoni; qaror loyihasining qonunchilikka, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi, shuningdek qaror loyihasidagi har bir havola qiluvchi norma qo‘llanilishining asosliligi va maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulosasi; qaror loyihasining jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilganligi va uning natijalari haqidagi ma’lumotlar qayd etiladi. Yuridik xizmat huquqiy ekspertizasidan keyin qaror loyihasi adliya organlari tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkaziladi. Bunda qaror loyihasi barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishib olinganidan keyin yuridik xizmat uni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun tegishli hududiy adliya organiga “E-qaror” elektron tizimi orqali yuridik xizmat xulosasini ilova qilgan holda yuboradi. Adliya organlari loyiha normativ-huquqiy xususiyatga ega bo‘lmaganda, loyiha barcha manfaatdor tashkilotlar bilan ularning birinchi rahbarlari (istisno hollarda ularning birinchi o‘rinbosari) darajasida kelishib olinmaganda, yuridik xizmatning huquqiy xulosasida qaror loyihasining jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilganligi va uning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilmagan bo‘lsa unga xulosa bermasdan qaytarib yuboradi. Hududiy adliya organlari tomonidan Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlarining qarorlarini ikki ish kunida, viloyat, tuman, shahar hokimining qaror loyihasini besh ish kunida ekspertizadan o‘tkazadi.

Qaror loyihasi hududiy adliya organlari tomonidan huquqiy ekspertizadan o‘tkazilayotganda quyidagi holatlar aniqlanadi:

uning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, unga nisbatan yuqoriroq yuridik kuchga ega bo‘lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirishning talablariga muvofiqligi, shu jumladan qaror loyihasida havola qiluvchi normalar qo‘llanilishining asosliligi hamda maqsadga muvofiqligi;

unda korrupsiya uchun, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida boshqa huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi, shuningdek tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha ma’muriy hamda o‘zga cheklovlarni joriy etuvchi, tadbirkorlik subyektlarining asossiz xarajatlari yuzaga kelishiga olib keluvchi qoidalar va normalar bor-yo‘qligini;

unda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonini murakkablashtirishni va tadbirkorlik subyektlariga yangi yuridik majburiyatlar yuklatishni nazarda tutadigan,

[8] Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.11.2021-y., 10/21/3333/1077-son

shuningdek tadbirkorlik subyektlariga yuridik javobgarlikning yangi choralarini belgilaydigan normalar mavjudligi

Qaror loyihasi normalaridagi muayyan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan bo‘shliqlar va nomuvofiqliklar hamda ichki ziddiyatlar mavjud emasligiga e’tibor beriladi va normativ-huquqiy hujjatning qabul qilinish zaruriyati, qaror loyihasining nomi uning mazmuniga muvofiqligi havola qiluvchi normalar qo‘llanilishining asosliligi hamda maqsadga muvofiqligi o‘rganish jarayonida qaror loyihasining ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan talablarga mos ravishda tayyorlanganligi va rasmiylashtirilganligiga, havola qilinayotgan hujjatlarning rasmiy manbalari to‘g‘ri ko‘rsatilganligiga, qaror loyihasi bilan boshqa qarorlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi nazarda tutilgan bo‘lsa, qaror loyihasi ushbu Qoidalarda ko‘rsatilgan talablarga mos ravishda ishlab chiqilganligiga e’tibor qaratiladi.

Agar taqdim etilgan qaror loyihasi huquqiy ekspertiza natijalariga ko‘ra qonunchilik hujjatlari va qonunchilik texnikasi qoidalari talablariga havola qiluvchi normalar qo‘llanilishining asosliligi va maqsadga muvofiqligi, shuningdek ularda korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillarning, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlash prinsiplariga muvofiq bo‘lmagan qoidalar mavjud emasligi qayd etilishi shaklidagi xulosa tuziladi. Agar taqdim etilgan qaror loyihasi huquqiy ekspertiza natijalariga ko‘ra qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo‘lsa, biroq qonunchilik texnikasi qoidalari talablariga javob bermasa va ushbu kamchiliklar hujjatni qabul qilish jarayonida bartaraf etilishi mumkin bo‘lganda, bartaraf etilishi lozim bo‘lgan kamchiliklar ko‘rsatilgan holda qonunchilik texnikasi qoidalari talablariga muvofiq qayta ko‘rib chiqilishi zarurligi qayd etilishi mazmunidagi xulosa tuziladi.

Qaror loyihasining huquqiy ekspertizasi yakunlari bo‘yicha hududiy adliya organining birinchi rahbari loyihaga “E-qaror” elektron tizimi orqali xulosa beradi.

Qonunchilikka ko’ra mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ- huquqiy tusdagi qarorlarni qabul qilishdan oldin loyihani tegishliligi bo’yicha Qoraqalpog’iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalariga huquqiy ekspertizadan o’tkazish uchun taqdim qilishi shart. Aks holda mahalliy davlat hokimiyati organlarining mas’ul mansabdor shaxslariga tegishli chora ko’rilishiga va normativ-huquqiy tusdagi qarorlarlarning bekor bo’lishiga olib keladi[9].

Xulosa qilib aytganda, qonun hujjatlari ekspertizasining ilmiy- nazariy muammolarini tadqiq etish, huquqiy asoslarini takomillashtirish mamlakatimiz milliy qounchiligini sifat jihatdan yuqori darajaga ko’tarishga xizmat qiladi.

[9]Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.11.2021-y., 10/21/3333/1077-son

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Odilqoriev H. Qonun loyihalarini ilmiy-huquqiy ekspertiza qilishni takomillashtirish // Qonunchilik hujjatlarini ekspertiza qilish muammolari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – Toshkent, 2005. – B. 27

2. Raldugin N.V. Pravovaya ekspertiza proektov federalьnыx zakonov. – M.: Izd-vo MGU, 2001. S. 16.

3. Sidelnikov Yu. Ekspertiza: sostoyanie i tendentsii razvitiya // Mirovaya ekonomika i mejdunarodnыe otnosheniya. 1997. -№ 2

4. Ragozin V.Yu. Pravovaya ekspertiza zakonoproektov v Rossiyskoy Federatsii. Avtoref. dis. … kand. yurid. nauk. – M.: 1998

5. Odilqoriev X. Qonun loyihalarini ilmiy-huquqiy ekspertiza qilishni takomillashtirish // Qonunchilik hujjatlarini ekspertiza qilish muammolari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari / Mas’ul muharrir: F.H.Otaxonov. – Toshkent, 2005. – B.31.

6. Muhamedov O’. Qonun hujjatlari loyihalari ekspertizasining nazariy va amaliy muammolari // Qonunchilik hujjatlarini ekspertiza qilish muammolari. Ilmiy-amaliy seminar materiallari / Mas’ul muharrir: F.H.Otaxonov. – Toshkent, TDYuI, 2005. – B. 6-7.

# BOLANING TA’LIM-TARBIYASIDA OTA-ONALARNING ROLI VA AHAMIYATI

**G‘afforova Shahribonu**
Qashqadaro viloyati Qarshi shahri
11-o‘rta maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256192

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada farzandga ta’lim-tarbiya berishda oilaning, ota-onani o'rni hamda ahamiyati haqida va bu borada allomalarning qarashlari haqida fikr yuritilgan. O‘qituvchilar mehnatining yuzaga chiqishida, o‘quvchilarga bergan bilimlarining yuqori samara berishida oilaviy tarbiyaning muhim jihtlari muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** farzand tarbiyasi, ota-ona burchi, ta’lim-tarbiya, go‘zal axloq, bilimli yoshlar, samara, mustafkam xotira, muomala odobi.

“Vatan ostonadan boshlanadi” degan naqlni ko‘p eshitamiz. Shu o‘rinda bu fikrga qo‘shimcha qilib aytmoqchi edimki, “Bilim olish – oiladan boshlanadi”. Bola 6-7 yoshga to‘lib maktab ostonasiga qadam qo‘yguniga qadar oilada --- ota-onasi bag‘rida ulg‘ayadi, atrof-muhitni, borliqni anglaydi, fikr yuritadi, odob-axloqni, umuman olganda insonlarga xos barcha fazilatlarni oiladan, atrofidagi yaqin insonlaridan o‘rganadi. Sharq allomalari o‘z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta’lim berish, uni ma’rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e’tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go‘zal axloqning inson kamolotiga sabab bo‘luvchi yuksak fazilat ekanini ta’kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Adab al-mufrad hadislar to‘plami, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul g‘ofiliyn” asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish tarannum etilgan. Yurtimiz ulamolari o‘z asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi bo‘lgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida ta’kidlaganlar:

– farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinso‘z, muloyim, bosiq va kamtar bo‘lishiga e’tibor qarating;

– odamlar xursandchiligini baham ko‘rish, g‘am-anduhidan qayg‘urish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida bo‘ling;

– farzandingizga o‘zgalar bilan muomala chog‘ida boshqalarni g‘iybat qilish, o‘zgalarni mensimaslik, obro‘si, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat ko‘rsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

– yoshi ulug‘ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning ko‘ziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga e’tibor bering.

Mirzo Ulug‘bekning oila muhitini yaxshilash, sog‘lom tarbiya berish haqida quyidagi fikrlarni bildirgan. Bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, yani oila muhim o'rinni egallaydi. Oilada ota-onalar o'qimishli bo'lishini, tarbiya berishda ota-onaning o'zi ornak va hayotiy misol bo'lishiga farzandi guvoh bo'lishi eng ko'p samara berishini ta'kidlaydi.

Berdaq oilaning bola tarbiyasida, muhim o'rin tutishni alohida ta'kidlaydi, oila muhitida ota-onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lgandagina bola tarbiyasida yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini aytadi. Berdaqning takidlashicha, inson tug‘ilgan kundanoq tarbiyaga muhtojdir, uning ilk tarbiyachilari, albatta, ota-onalardir.

Fitrat jamiyat rivoji va yurt farovonligida oilaning roli haqida fikr yuitib, o‘zining “Oila” asaida shunday deydi:“Har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi.”

Maktab yoki boshqa biror ta’lim muassasasida qaysidir o‘quvchi tartibsizlik yoki hurmatsizlik qilsa, ba’zan sinfdoshlari bilan janjallashib qolsa yoki uy vazifalarini o‘z vaqtida bajarmasa va sinf reytingi tushib ketsa birinchi o‘rinda o‘qituvchi ayblanadi, nazorat qilinmagan yoki yaxshi o‘qitilmagan deyiladi, lekin sinfdagi faol va a’lochi, odobli va go‘zal xulqli o‘quvchilar ham uchraydi. Aslidachi, o‘qituvchi ularga darsni birga o‘tadi, bilim va maslahat berishda ularni hech qachon ajratmagan, hammaga bidek munosabatda bo‘lgan.

Afsuski, hozirgi kunda oila davrasida bilim olish va kitob o‘qish borasida suhbat qilish, farzandi olayotgan bilim darajasini muhokama qilish odati yildan yilga kamayib bormoqda. Bularning o‘rnini zamonaviy texnologiyalar bilan masalan, uyali telefon va kompyutorda ishlash, soatlab vaqtini ularga sarflash egalladi.

Albatta ular hayotimizda bir qator qulaylik va imkoniyatlar yaratmoqda, lekin yosh avlodlarning diqqat-e’tiborini jamlashda, zimmasidagi vazifalarini bajarish o‘rniga, o‘z vaqtlaini behuda sarflashlariga sabab bo‘luvchi va chalg‘ituvchi omil bulib bormoqda. Bola xotirasidagi asosiy voqealar uyda sodir bo'lganlaridir. Balki shuning uchun ham uyda ota-ona bilan dars qilgan yoki ota-onasi bilan hamjixatlikda o'qigan kitobning ahamiyati ular uchun kuchli va ta'sirliroq. Bugungi kunda biz pedagoglarning bosh maqsadimiz -- pedagogik amaliyotda oquvchilarni mashg‘ulotlar hamda oilada ishlash orqali bolalar va ota-onalarning birgalikdagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali bilim berish va tarbiyalashdir.

Oilaviy o'qish - bu ma'lumot olish usuli emas, bu eng muhim va eng samarali aloqa usuli, kuchli ta'sir va hissiyotga, motivatsiyaga boy bo'lgan tarbiya usuli. Ota-onalar oilaviy o'qish orqali bolalarda o'qishga bo'lgan,bilim olishga bo'lgan qiziqishni uyg‘otishga yordam beradi.

Oilada bolalarning muntazam o'qishini targ‘ib qilish va rivojlantirish bo'yicha ota-onalar bilan hamorlikda ishlashni kuchaytirish, har bir ota-onani bolalarning o'qishi va rivojlanishi muammolarini hal qilishga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kitoblarga, asarlarga qiziqishni shakllantirishga ko'maklashish, turli xil asarlarni tinglash va tushunish qobiliyatini shakllanashi ota-onadan bolaga ko'chadi. Oilaning, ota-onaning ko'zgusi bu farzanddir.

Bugungi kunda biz pedagoglar o'quvchilar orqali qanday ota-ona bo'lish etiketini, oilada ota-ona va farzand burchlari nimadan iborat ekanligini anglata olishimiz kerak. O'quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, maqsad qo'ya olish va reja bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish o‘qituvchi bilan bir qatorda ota-onalarga ham bog‘liq ekanligini yana bir karra tushuntirishimiz lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Haydarova H.B., Yosh avlod tarbiyasida oila manaviyatining o'rni. https: //buxdu.uz/index.php/ru/90-maqolalar/
2. Fitrat. “Oila”
3. Mamatqulov A. “Ta'lim sifatini oshirishda oilaning o'rni”. Pedagogik ta’lim klasteri:muammo va yechimlar. Interntional conference. Chirchik, Uzbekistan. 2021

# LINUM USITATISSIMUMUM L. NING BIEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Omonov M**
b.f.n., dotsent
**Ismoilova R.R**
Termiz davlat universiteti1-kurs magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256201

**Annotatsiya:** Maqolada Zig‘ir Linum usitatissimumum L. ning tarqalishi va biologik xususiyatlari, uning dorivorligi va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati hamda qo‘llanilishi haqida ma’lumot keltirilgan. Bundan tashqari Zig‘ir Linum usitatissimumum L o‘simligini o‘stirish va yetishtirish bo‘yicha olingan tadqiqot natijalariga asoslanib xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Linum usitatissimumum L, iqlim sharoiti, harorat, yorug‘lik, issiqlik, oziq-ovqat, tibbiyot.

**Kirish.** Dunyoda urbanizatsiyaning jadal rivojlanishi aholi yashash manzillarini ko‘kalamzorlashtirish, atrof muhitni obodonlashtirish va mikroiqlimini yaxshilashning intensiv usullarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Aholi farovonligini oshirish uchun o‘simlik xomashyolaridan oziq ovqat, farmatsevtika, tibbiyotda unumli foydalanish masalalarini hal qilish muhimdir. Shunga ko‘ra, ushbu ko‘rsatkichlar asosida mahalliy sharoitga chidamli, yuqori manzarali, iqtisodiy qimmatli xususiyatga ega o‘simliklarning individual guruhlarini tanlash va ishlab chiqarishga joriy etish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Tabiiy bioxilma xillik jamiyatning iqtisodiy, ekologik, farmatsevtik va madaniy ehtiyojlarini qondirishning ulkan manbai bo‘lib usiz tabiat va jamiyat barqaror rivojlanmaydi. Hozirgi kunda butun yer yuzida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham dolzarb muammolaridan biri bioxilma xillikni asrash, uning kamayib borishi bilan bog‘liq muammolarni va mavjud holatni barqaror rivojlanish asosi sifatida saqlab qolish hisoblanadi.

**Asosiy qism.** Hozirgi vaqtdagi globallashuv jarayonida ma’lum hudud yoki mamlakatning o‘simliklari miqyosida tabiiy holda o‘suvchi o‘simliklar bilan bir qatorda boshqa geografik mintaqalardan keltirilib iqlimlashtirilgan o‘simliklarni ham ko‘rishimiz mumkin.

Qadim zamonlardan beri zig‘ir (Linum usitatissimum) O‘zbekistonda yetishtiriladi, undan foydalanish uy xo'jaligi juda xilma-xil edi.

Respublikamizda qadimdan Zig‘ir Linum usitatissimumum L o‘simligi o‘stirib kelinadi. Mo‘tadil va subtropik mintaqalarda tarqalgan. Yer yuzida 230 dan ortiq turi mavjud. Qadimdan Shim. Ispaniya, Xitoy, Misr, Rossiyada ma’lum bo‘lgan. Poyasi tik o‘suvchi, ingichka, silindrsimon, yuqori qismi shoxlagan. Bargi lansetsimon yoki

chiziqsimon, o‘tkir uchli, tekis qirrali bo‘lib, poyada ketma- ket, bandsiz o‘rnashgan. Gullar poya va shoxlari uchida bo‘ladi. Kosacha bargi, toj bargi hamda changchisi beshtadan, onalik tuguni esa besh xonali, yuqoriga joylashgan. Tojbargi zangori, tomiri esa changehi ipiga o‘xshab, binafsha rangga bo‘yalgan. Mevasi 10 urug‘li, yumaloq, quruq ko‘sakcha. Iyun-avgust oylarida gullaydi. Ekiladigan zig‘ir bir necha xil bo‘lib, uzun tolali hamda sershoxlisi alohida ahamiyatli hisoblanadi. Uzun tolali zig‘ir asosan tola, sershoxlisi esa moy olish uchun ekiladi. Sershox zig‘irning balandligi 30-50 sm bo‘lib, ko‘saklari pishganda ochiladi.

Zig‘irning shifobaxsh xususiyatlari. Zig‘ir urug‘i o‘rab oluvchi va ich yumshatuvchi dori sifatida qo‘llaniladi. Shilliq eritma tayyorlash uchun urug‘ butunligicha issiq suvda chayqatiladi. Shilliq moddalar urug‘ining epidermis qavatida bo‘lganidan tezda suvda erib, ajralib chiqadi. Urug‘ning 15-20% li qaynatmasi og‘iz chayqash uchun ishlatiladi. Kunjara kukuni (ba’zan butun urug‘ni yanchib tayyorlangan kukun-poroshok) tananing og‘riyotgan joyiga qizdirib qo‘yiladi. Zig‘ir moyi tibbiyotda, oziq-ovqat sanoatida va texnikada qo‘llaniladi. Zig‘ir moyidan olinadigan linetol preparati (olein, linol, linolen va boshqa yog‘ kislotalarining etil efirlarining aralashmasi) va uning kompleks preparati - livian ateroskleroz kasalligmi davolash va oldini olishda hamda kuyganni va nur terapiyasi natijasida zararlangan joy ya’ni davolashda qo‘llaniladi. Zig‘ir poyasini ivitib, tola olinadi. Bu tola to‘qimachilik sanoatida keng ishlatiladi. Dorivor preparatlari. Shilliq eritmasi, 15-20% li qaynatma, urug‘ kukuni - poroshogi (uni), livian preparati.

Zig‘ir o‘simligini yetishtirish texnologiyasi.

Zig‘ir O‘zbekistonning sug‘oriladigan va namlik yetarli bo‘lgan lalmikor yerlarida yetishtiriladi. U Afg‘oniston, Eron, Xitoy, Turkiya, Kanada, Amerika, MDH va O‘rta Osiyo davlatlarida ko‘proq ekiladi. O‘zbekistonda asosan zig‘irning «Baxmal-2» navi ekilib kelinmoqda. Zig‘ir uchun unumdor, mexanik tarkibi o‘rtacha, sho‘rlanmagan, yumshoq va begona o‘tlardan toza yerlar ajratilishi lozim. Uni dukkakli va haydab ekiladigan ekinlardan bo‘shagan yerlarga ekish tavsiya qilinadi. Zig‘ir ekiladigan yerlami kuzda 22-25 santimetr chuqurlikda shudgor qilib qo‘yiladi. Erta bahorda yerni tekislash uchun borona qilinib mola bosiladi. o‘simlikni ekishdan oldin urug‘lari elektromagnit mashinalarida chirmoviq urug‘idan tozalanadi. Ekish uchun bir tekis urug‘lar tanlab olinadi. Uning unuvchanligi 80- 85 va tozaligi 95 foizdan kam bo‘lmasligi kerak. Zig‘irning urug‘i ekishdan oldin fuzarium va boshqa kasalliklarga qarshi dorilanadi. Zig‘irni mart oyining oxiri yoki aprelning boshlarida sabzavot yoki dukkakli don ekiladigan seyalkalarda tez kun ichida yoppasiga qatorlab 4,5-5 santimetr chuqurlikda ekiladi va gektar hisobida 25-30 kg urug‘ sarflanadi. Bahorgi yoqqan yomg‘irlar natijasida hosil bo‘lgan qatqaloqqa qarshi zig-zag borona bilan yumshatiladi. Zig‘ir tez yetiladigan o‘simlik, vegetatsion davri 70- 95 kun hisoblanadi. Ekilgandan 8-10 kun o‘tgach maysalari unib chiqadi. Unib chiqqan

maysalar 4-5 gradus sovuqqa chidaydi. Zig‘ir birinchi davrlarda sekin rivojlanadi. Shonalash davrida namlikni ko'proq talab qiladi. o‘simlikni birinchi oziqlantirishni maysalar unib chiqqandan keyin gektariga 30 kg azot va 20 kg fosfor o‘g‘iti berish bilan boshlash tavsiya qilinadi. Ikkinchi oziqlantirishni o‘simlik g‘unchalagandan so‘ng 40 kg azot va 30 kg kaliy o‘g‘iti berish bilan tugallash maqsadga muvofiq bo‘ladi. o‘simlikni oziqlantirish natijasida uning o‘sishi va rivojlanishi tezlashadi. Vegetatsiya davomida zig‘irni 4-5 marta sug‘oriladi. Uni oziqlantirish sug‘orishdan oldin amalga oshiriladi. Har bir sug‘orishdan keyin o‘simlik oralari kultivatsiya qilinib, begona o‘tlardan tez-tez tozalanib turilishi lozim. Zig‘irni yaxshi o‘sishi va rivojlanishi uchun yerni haydashdan oldin kuzda 10-15 tonna go‘ng va 30 kg fosfor o‘g‘iti berilishi kerak. Vegetatsiya davomida gektariga 70 kg azot, 40 kg fosfor va 30 kg kaliy o‘g‘iti bilan oziqlantirilishi kerak. Agar zig‘ir shonalash davrida yetarli sug‘orilmasa, to‘satdan bo‘ladigan issiqlik o‘simlik poyasining yuqoriga o‘sishini susaytiradi, shoxlanib ketishiga sababchi bo'ladi, hosildorligi va uning sifati pasayib ketadi.

Mahsulot tayyorlash**.** Zig‘ir to‘liq yetilganda poyalari va ko‘sakchalari sarg‘ayadi, urug‘i qo‘ng‘ir yoki qora rangga kiradi. Shu davrda maxsus moslangan don kombaynlarida o‘rib-yig‘ib olinadi. Yanchilgan urug‘lar don tozalaydigan mashinalarda tozalanadi, keyin qoplarda yoki 50 santimetr balandlikda uyulgan holda saqlanadi. Poyasi tola olish uchun ishlatiladi. Yaxshi parvarish qilingan zig‘irpoya maydonlarining har gektaridan 1,3- 1,5 tonna urug‘ yig‘ib olish mumkin bo‘ladi.

Tahlil etilgan adabiyotlar va olib borilayotgan tajribalarga asoslanib shuni aytish mumkinki,o‘simlikda urug‘larning unuvchanlik ko‘rsatkichi yuqori bo‘lib, zig‘ir Linum usitatissimum L ni Surxondaryo sharoitida o‘stirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Пороховинова Е.А**.** Генетический контроль морфологических признаков проростков, плода исемян у льна (Linum usitatissimum L.) / Е.А**.** Пороховинова // Вавиловский журнал генетики иселекции. – 2012. – Т. 16.

2. Пороховинова Е.А. Генетический контроль восстановления фертильности пыльцы у линий льна **(**Linum usitatissimum L.) с цитоплазматической мужской стерильностью / Е.А. Пороховинова // Труды по прикладной ботанике, генетике и селекции. – 2017. – Т. 178. – Вып. 1. – С. 68-81

3. Diederichsen A., Raney J. P., 2006. Seed colour, seed weight and seed oil content in Linum usitatissimum accessions held by Plant Gene Resources of Canada //Plant Breed. Vol. 125. N 4. P. 372–377

4. Рожмина Т.А. Генетическое разнообразиельна (Linum usitatissimum L.) и его комплексное использование в селекции: дис. … д-ра биол. наук.– Торжок: ВНИИ льна, 2004. – С. 163.

# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI ANVAR OBIDJON SHE’RLARINI TAHLIL QILISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O‘RGATISH

**Mamasahatova Sharafat Urol qizi**
TerDUPI Ta’lim va tarbiya nazaryasi va metodikasi boshlang‘ich ta’lim
Mutaxasisiligi 1-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256203

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini Anvar Obidjon she’rlarini tahlil qilish orqali mustaqil fikrlashga o‘rgatish, o‘quvchilarning fikrlash qobilyatlarini o‘stirish, kelajakda barkamol shaxsni tarbiyalash haqida fikrlar bayon etilgan.
**Kalit so‘zlar:** Mustaqil fikrlash, barkamol shaxs, Anvar Obidjon, she’riyat, yumor, ong, bilim, tafakkur.

# TEACHING PRIMARY SCHOOL STUDENTS TO THINK INDEPENDENTLY THROUGH ANWAR ABIDJAN’S POETRY ANALYSIS

**Annotation:** This article teaches elementary students to think independently by analyzing Anwar Abidjan’s poems, thoughts are expressed on the development of students’ thinking skills, the development of a harmoniously developed personality in the future
**Keywords:** Independent thinking, competent person, Anwar Abidjan, poetry, humor, knowledge, thinking.

Chinakam ijod namunalarigina o‘quvchilarning onggi va tafakkuriga kuchli ta’sir eta olishi mumkin. Shunday ekan bu kabi asarlar o‘zining tarbiyaviy ahamiyatga egaligi, insonlarni ezgulik sari yetaklashi, bunyodkor g‘oyalar targ‘ib qilinishi bilan boshqa asarlardan ajralib turishi kerak. Bu xildagi she’rlar esa o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, atrofdagi bo‘layotgan xodisalarni anglagan holda ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga undaydi.

Xususan, bolalarga adabiyot namunalarini o‘rganish uchun tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarga mustaqil fikrlashlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berish bilim, ko‘nikma, malaka va kompitensiyalarini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar muvvaffaqiyat garovidir. O‘sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, barcha masalalarda qo‘rqmasdan o‘z fikrini bildira oladigan barkamol shaxslar qilib tarbiyalash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zero, tafakkurning mustaqilligi bilim olishdagi mustaqillikka tayanadi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bilim olishimiz uchun esa kitoblar asosiy rol o‘ynaydi. Kitob o‘qish inson tafakkurining ozuqasidir bu haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham ko‘p bora o‘z nutqlarida ta’kidlab kelmoqda. ‘’Kitob o‘qigan, o‘zini ustida ishlagan odamda qanoat bo‘ladi. U befarq bo‘lmaydi. Uning kuchi bilimida bo‘ladi…’’ shu nuqtai nazardan bugun kitob o‘qishni targ‘ib qilish davlat siyosati darajasiga olib chiqilmoqda.

O‘zbek bolalar adabiyotining iste’dodli vakili, serqirra ijodkor, bolalarning sevimli shoiri Anvar Obidjon asarlariga shu jihatdan nazar tashlasak bolalar ruhiy olamini ochib beradigan, ularni kitobga oshno etadigan, ajoyib, jozibador asarlar muallifi sifatida ko‘ramiz. Uning asarlari yosh avlodni ezgulik, yaxshilik sari yetaklab ulardagi insoniylik tuyg‘ularini oshirishga xizmat qiladi.

Biz bilamizki, Anvar Obidjon ijodi bolalar adabiyotiga yangicha yo‘nalish olib kirdi. She’rlarida nafaqat kitobxon onggiga ta’sir qilish, balki uning qalbiga kirib borish bosh maqsad qilib olingan. chunki ko‘ngilda qattiq o‘rnashgan narsagina ongda uzoq vaqt saqlanadi. Fikrimizning dalili sifatida bolalar shoiri Tursunboy Adashboyev ta’rifini keltirib o‘tamiz. ‘’80-yllarga kelib Anvar Obidjon bolalar she’riyatidagi ob havoni bir yo‘la yangiladi’’.

Uning ko‘pgina asarlarida o‘ta jozibador yumor ustunlik qilayotgani sezilsada aslida esa yurtning ozodligi va qadr qimmatini xalqning sha’nini kamsituvchilarga nafrat milliy hurlikka tashnalik, o‘zlikni anglashga da’vat yangrab turadi. Shoirning mahorati shundaki, u bolalar olamining o‘zgacha ekanligini tub tubidan ko‘ra oladi. Ichki dunyosini, o‘y –xayollarini, mitti qalbidan o‘tayotgan fikrlarni nozik did bilan tasvirlab beradi.

Inson bolasi borki, nurga talpinadi, quyoshga intilib yashaydi. Chunki quyoshning zarrin nurlari bor joyda, yorug‘lik bor joyda albatta ezgulik g‘alaba qiladi. Anvar Obidjonning “o‘zimning quyoshim “ she’ri ezgu maqsadni ilgari surishi bilan kitobxonga o‘zgacha shodlik va ma’naviy yuksaklik bag‘ishlaydi.

Ona quyosh, aksingni
Chizdim yo‘lakka.
Sen hammaga mehribon,
O‘zing bo‘lakcha.
Nur tushmagan joylarda
Kezarmish kulfat
Yo‘lagimda hech qachon
Bosmasin zulmat.

Ko‘rib turibmizki she’r sodda, samimiy hamda oddiy misralarda bitilgan. Bolalarning quyoshni go‘zal qilib tasvirlaganliklari va quyoshga murojaat qilayotganliklari ifoda etilib, quyosh nuriga o‘zgacha bir ilohiylik bag‘ishlagan.

Anvar Obidjon she’rlarini tahlil qilar ekanmiz, undagi soddalik bilan birgalikda kuchli yumor ostida yashiringan achchiq haqiqatni ham ko‘rishimiz mumkin. Bu orqali esa bolalarga ramziy ma’noda tasvirlangan obrazlarni insonga qiyoslab tushuntirib berish orqali ularning mustaqil fikrlashlariga imkon yaratib beriladi. Quyidagi ‘’Tekinxo‘r’’ she’rini o‘qir ekanmiz tengsizlikni, boshqalar hisobiga kun ko‘ruvchi insonlarni tanqid qilganligini sezamiz bu esa bolalarni kelgusi hayotga tayyorlovchi ular atrofida uchrab turuvchi vaziyatlardan biri ekanligini va bunday jirkanch ishlarni qilmaslikka da’vat qilish kerakligi nazarda tutilmoqda.

Qumursqavoy
Topib uvoq,
Terga botib
Tortdi uzoq
Chumchuq kelib
Sekingina,
Yutdi-qo‘ydi
Tekingina.

Anvar Obidjonning ‘’Navro‘z taronasi’’ she’rini o‘qir ekanmiz tabiatning go‘zal tasviri ifodasiga guvoh bo‘lamiz va olamning bu ajib ko‘rinishi ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Ma’lumki bolalar tasavvur olami kattalarga nisbatan kuchli bo‘ladi. She’rdagi tasviriy ifodalarni ular ko‘z oldilariga keltirishib navro‘z bayramini eslashadi.

Ko‘kda quyosh gulxan yoqdi
Soylar yana to‘lib oqdi
Chiqib xazon ko‘rpasidan,
Boychechaklar kulib boqdi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, bugun kitob olamiga oshno etib tarbiyalanayotgan bolalar hayotning oq qora ranglarini anglab yaxshilik va yomonlik tuyg‘ularini odamiylikni anglashadi balki ular jamiyatda bo‘layotgan ishlarga mustaqil fikr bildira oladigan yetuk shaxslar sifatida kamol topishadi. Fikrimizning dalili sifatida esa yurtboshimizning ‘’bugun bitta kitob o‘qiyotgan bola ertaga televizor ko‘rib o‘tirgan o‘nta bolani boshqarishi mumkin’’ degan fikrlarini keltirib o‘tamiz. Anvar Obidjon asarlari ruhida tarbiyalangan bolalar hayotta o‘z o‘rniga ega bo‘lgan teran fikrli insonlar qatorida bo‘lishadi. Uning namunali hayoti va boy ijodidan, unda ko‘tarilgan g‘oyalardan ibrat, saboq olish esa ham ilmiy ham ma’rifiy ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Jumaboyev. “Bolalar adabiyoti va folklor”.T. “O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. 2006y

2. I.Azimova va boshqalar. Ona tili va o‘qish savodxonligi kitobi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinf uchun darslik.T. 2021

3. K. Muslimova. Anvar Obidjon ijodida an’ana. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 2007y

# NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI TAYYORLASHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

**Abduraxmonov G‘anisher Shavkat o‘g‘li**
Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256210

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kunda hukumatning, xususan, hokimiyat organlarining norma ijodkorligida, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash jarayonida jamoatchilik ishtirokinining samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha bosqichma bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar natijasini, jamoatchilik ishtirokining huquqiy asoslarini, jamoatchilik ishtirokining o‘rni va ahamiyati xususida, sohadagi jamoatchilik ishtirokiga oid qonunchilikning amaliy ahamiyatini oshirish, “jamoatchilik muhokamasi”, “jamoatchilik fikri” kabi tushunchalarni tahlil etishga va ularni huquqiy va amaliy jihatdan takomillashtirishga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** Norma ijodkorligi, jamoatchilik ishtiroki, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik fikri, jamoatchilikning ahamiyati.

# ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧАСТИЯ ОБЩЕСТВЕННОСТИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ

**Аннотация**: В этойстатье анализируются итогинормотворчества правительства, в частности, органов власти,результаты их деятельности по поэтапному осуществлению реформ, направленных на повышение эффективности участия общественности при подготовке нормативно-правовых документов, правовые основыучастия общественности, рольучастия общественности, повышениепрактического значения законодательства в области участия общественности, а также проведен правовойанализ таких понятий, как «общественное обсуждение», «общественная экспертиза» и их практического совершенствования.

**Ключевые слова:** Нормотворчество, участие общественности, общественное обсуждение, роль и значение общественности.

# ISSUES TO INCREASE THE EFFICIENCY OF PUBLIC PARTICIPATION IN THE PREPARATION OF NORMATIVE LEGAL DOCUMENTS

**Annotation:** This article is devoted to the results of the ongoing reforms in the government, in particular, in the creation of norms of government, the effectiveness of public participation in the preparation of regulations, the legal framework for public participation, the role and importance of public participation in the field to increase the practical significance of the legislation on participation, to analyze concepts such as public discussion, public expertise" and to improve them in legal and practical terms.

**Keywords:** Creation of Norms, Public Participation, Public Discussion, Importance of Public

Qonun loyihalarini tayyorlash jarayonida jamoatchilik ishtirokining o‘ziga xos xususiyatlari (huquqiy asoslari)

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng jahon tajribalaridan foydalangan holda keng jamoatchilikni davlat boshqaruvida fuqarolarning ishtirokini qamrab olish, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonida faol qatnashish amaliyotlarini joriy qilish ishlari olib borilmoqda. Dunyo miqiyosida inson huquqlari va erkinliklarini taminlash, insonning manfaatlarini himoya qilish uning davlat ishlarida faol ishtirokini taminlash ishlar olib borilayotgan bir paytda yurtimizda ham bunday islohotlar amalga oshirilmoqda.

Norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ishtirokining huquqiy asosi sifatida dunyo miqiyosidagi huquqiy normalardan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”(1948), “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rezolyutsiyasi” va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Mamlakatimizda jamoatchilik ishtirokini taminlash jarayonlarining huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”(1992), “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risi”dagi(2000), “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi (2006), “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi(2017), O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni (2018), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni “ 2017 - 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi “, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”(2021) va O‘zbekiston Respublikasidagi Qonunlarida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Farmoni ya’ni “2022–2026–yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” va boshqa qonunlarda umumiy tarzda asoslab beriladi.

Dastavval “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 25-moddasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, unda “bevosita yoki erkin saylangan vakillar orqali davlat ishlarini yuritishda fuqarolar ishtirok etishi mumkinligi keltirilgan “.

D.L.Kuteynikovning fikricha aksariyat zamonaviy davlatlarda davlat hokimiyati, qoida tariqasida, ko‘proq vakillik demokratiyasi tamoyillariga asoslanadi, bunda hokimiyat qarorlarining muhim qismi vakillik institutlari va boshqa saylanadigan organlar orqali qabul qilinadi. “Vakillik demokratiyasi” institutlari eng kuchli va barqaror hisoblanadi. Ularda eng muhim umumiy ijtimoiy masalalar bo‘yicha jamoatchilik fikrini to‘plashning eng qulay shakli hamda hokimiyat va nazorat mexanizmini tashkil etishda ifodalanadi[1]. Bu fikirda ham “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt”ning 25-moddasiga asosan jamoatchilik ishtiroki o‘zining vakillari orqali davlatni boshqarish, noarmativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinayotganda unga nisbatan vakillari orqali takliflar berishlari mumkin. Bu huquqlardan kafolatlangan holda foydalanish hukumatning barcha darajali qarorlarni qabul qilishda fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki uchun huquqiy asos sifatida xizmat qiladi. Yana bir olimning fikriga ko‘ra ko‘pgina zamonaviy davlatlarda davlat hokimiyati, qoida tariqasida, ko‘proq vakillik demokratiyasi tamoyillariga asoslanadi, qachonki hokimiyat qarorlarining katta qismi muassasalar va boshqa saylanadigan organ vakillari orqali qabul qilinadi[2]. Bu yerda ham saylangan vakillar orqali qarorlar qabul qilinishini ko‘rishimiz mumkin.

Keyingi huquqiy asoslarini “Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rezolyutsiyasi”larida ko‘rishimiz mumkin. Bu rezolyutsiyalardan birida “Har bir inson, yakka tartibda va boshqalar bilan hamkorlikda, kamsitilmasdan, o‘z mamlakatini boshqarishda va davlat ishlarini yuritishda samarali ishtirok etish huquqiga ega”[3]. Bu jihatda ham har bir shaxs o‘zining mamlakatining rivoji uchun yakka tartibda yoki vakillar orqali davlat boshqaruvida balki, normativ-huquqiy hujjat qabul qilinganda o‘z qarashlari bilan ishtirok etishlari mumkinligi belgilab berilgandir.

Y.A.Tixomirovning fikricha “Vakillik institutlari demokratik davlatlarda eng kuchli va barqaror jihat hisoblanadi. Ular eng umumiy ijtimoiy masalalar va hokimiyat va nazorat mexanizmini tashkil etishda muhim jamoatchilik fikrini to‘plashning qulay shaklini ifodalaydi” deb aytgan edi[4]. Bundan shunday xulosaga kelib, vakillik demokratiyasida asosan qarorlar qabul qilish jaronida katta rol o‘ynaydi.

Mamlakatimizda jamoatchilik ishtirokining huquqiy asosi bosh qomusimizda ham belgilab qo‘yilgandir. Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar ishtirokining huquqiy asoslari, avvalo, O‘zbekistan Respublikasining Konstitutsiyasiga borib taqaladi. Bosh qomusimizning 9-moddasida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referenduma)

qo‘yiladi mazmunidagi norma belgilangan. Shubhasiz, ushbu normami xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalaridan deb aytishimiz mumkin. Zero, o‘z xalqining irodasini ifoda etgan davlat va huquqqina barhayot bo‘ladi. Shu jihatdan, O‘zbekistan Respublikasining “O‘zbekistan Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi Qonunining qabul qilinishini bu boradagi katta qadam bo‘lgan deb aytishimiz mumkin. Ushbu qonunda referendum o‘tkazish tashabbusi sub’ektlari sifatida fuqarolar ham belgilangan. Qonunga ko‘ra fuqarolar referendum o‘tkazish to‘g‘risidagi tashabbusni ko‘rsatishda, referendumga qo‘yiladigan qonun loyihasini yoki o‘zga qaror loyihasini ishlab chiqishda, shuningdek masala ta’rifini (mohiyatining aniq ifodasini) belgilashda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Prezidenti bilan teng huquqlarga ega ekanligi bayon etilgan[5]. Bosh qomusimizda fuqarolarning davlat ishlarida faol ishtirok etishilari uchun ularga qanunchilik tashabusi huquqi berilgan bo‘lib, undan unimli foydalangan holdan qarorlarni qabul qilish jarayonida ham o‘zlarining asosli takliflarini olg‘a sura olishlari zarurdir. B. Boymurodovning fikricha “huquqiy me’yor yaratish murakkab jarayon bo‘lib, keng ko‘lamli va bir necha bosqichlardan iborat. Albatta, bunday murakkab jarayonda fuqarolar ishtiroki qanday bo‘lishi kerakligini tushunish va fuqarolar ishtiroki doirasini belgilash oson bo‘lmaydi. Fuqarolar norma yaratish jarayonining turli bosqichlarida turli shakllarda ishtirok etishi mumkinligi nuqtai nazaridan qaraganda, masalaning qanchalik murakkab ekanligini tushunish qiyin bo‘lmaydi”[6]. Fuqarolarning norma yaratish jarayonida ishtirok etishi tushunchasi fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga daxldor bo‘lgan huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilishda fuqarolarning bevosita, huquqiy va foydali ishtirokini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonda fuqarolar vakolatli davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari bilan bevosita hamkorlik qiladi.

Konstitusiyamizning yana bir moddasi xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda yaratilgan bo‘lib, har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi belgilab berilgan[7].

A.Azizxo‘jayevning fikricha “Xalq hokimiyatchiligi - butun hokimiyat amalda va yuridik jihatdan xalqqa tegishli degani. Konstitutsiyaga binoan, xalq hokimiyatni bevosita hamda o‘zi saylab qo‘yadigan organlari orqali amalga oshiradi. Xalq saylovlar yo‘li bilan hokimiyatning vakillik organlarini tuzadi, mamlakat Prezidentini saylaydi, umumxalq muhokamasi va referendumlar orqali jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini hal qiladi. Demokratik talablar asosida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga qo‘yiladi, umumxalq ovozi - referendumga chiqariladi”[8] deb izohlagan edilar.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘zining 2017-yil 22-dekabrdagi Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan edi: “Barchamiz bir haqiqatni unutmasligimiz kerak: qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma’noda xalq bo‘lishi shart. Har bir qonun loyihasi yuzasidan fikr va takliflarni quyidan - fuqarolardan, joylardagi xalq deputatlari Kengashlaridan olish tartibini keng joriy etish zarur. Qonunlarni qabul qilish jarayonida ularni aholi o‘rtasida har tomonlama muhokama qilish tizimidan samarali foydalanishimiz kerak. Oliy Majlis rahbariyati qonunlar muhokamasiga keng xalq ommasini jalb qilish, buning uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, jumladan, Internet tarmog‘ida maxsus “maydon”lar yaratishi zarur”[9]. Prezidentimizning so‘zlaridan ham ko‘rinib turibdiki, bir qonun loyihasi yuzasidan fikr va takliflarni quyidan ya’ni fuqarolarning konstitutsiyamizning 35-moddasida belgilab qo‘yilgan huquqlaridan foydalangan holda ariza, taklif, shikoyat va murojaatlari asosida har bir norma ijodkorligida foydalanish lozimligi takidlab o‘tilgan.

“Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risi”dagi qonunda esa qonun loyihalarining keng jamoatchilikka muhokama ya’ni qanun bo‘yicha o‘zlarini qiziqtirgan takliflarini bildirishining huquqiy asosi keltirilgandir. Bu qonunning asosiy prinsiplarida quyidagilar keltirilgan: ixtiyoriylik; tenglik; oshkoralik; hamma uchun ochiqlik; erkin fikr bildirish[10]. Fuqarolarning norma yaratish jarayonida ishtirok etishidagi qonuniylik tamoyili o‘z aksini topgan ikki jihat mavjud:

huquqiy asos yaratish;

qonunlarga rioya qilish[11].

B.Boymurodovning fikricha “Normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan davlat organlari norma ijodkorligining har bir yo‘nalishi va bosqichida bo‘lgani kabi, norma ijodkorligi jarayoniga fuqarolarni ham jalb etish va ular bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha belgilangan normalarga amal qilishi shart. O‘z navbatida, fuqarolar berilgan vakolatlardan chetga chiqib, normalar yaratish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan har qanday xatti-harakatlardan o‘zini tiyishlari kerak”[12]. Yuqoridagi qonunimizning prinsiplaridan biri ochiqlik bo‘lib, ochiqlik qonuniylik va demokratiya tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, ochiqlik va oshkoralik bo‘lmagan taqdirda qonuniylik va demokratiya tamoyillarining to‘liq amal qilishi mumkin emas. Ochiqlik tamoyili norma ishlab chiqish jarayonida ko‘rib chiqilayotgan va fuqarolar ishtirok etishi mumkin bo‘lgan loyihalar bo‘yicha barcha ma’lumotlar ochiq bo‘lishi va ishtirokchilar ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishini nazarda tutadi. Bu tamoyil fuqarolarning nafaqat zarur ma’lumotlardan foydalanishini ta’minlash, balki vakolatli organlar mas’uliyatini oshirishga ham xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Ochiqlik tamoyili bugungi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani hech kimga sir

emas. Aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingani bu boradagi birinchi yirik qadam sifatida ko‘zga tashlanadi. Agar ushbu qonunning vazifalariga nazar tashlasak, jismoniy va yuridik shaxslarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan foydalanishi, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va ularning mansabdor shaxslarining qabul qilingan qarorlar uchun javobgarligini oshirishni nazarda tutayotganini ko‘rishimiz mumkin[13].Darhaqiqat, ochiqlik tamoyili jamoatchilik normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishga vakolatli organlardan yanada aniqlik va mas’uliyat talab qiladi. Mazkur tamoyil doirasida fuqarolar qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar va tegishli barcha ma’lumotlar bilan tanishish, shuningdek, o‘z murojaatlari bo‘yicha aniq va to‘liq ma’lumot olish uchun murojaat qilishlari shart hisoblanadi. V.N. Rudenkoning fikricha “Ishtirokchilik demokratiyasi” zamonaviy vakillik demokratiyasining elementidir. U davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining jamoatchilik bilan yaqin hamkorligini ta’minlashga, fuqarolarga jamiyat hayotining ayrim masalalari bo‘yicha davlat hokimiyati qarorlarini qabul qilish imkoniyatini berishga qaratilgan[14]. Oshkoralik tamoyili norma yaratish jarayonida mavjud muammo va kamchiliklarni aks ettiribgina qolmay, balki ushbu muammo va kamchiliklarga samarali yechim topish imkonini beradi.

Yuqoridagi prinsiplarimizdan yana biri fuqarolarning ixtiyoriy ishtirokidir. Fuqarolar norma yaratish jarayonida o‘z xohishiga ko‘ra ishtirok etishi mumkin. Fuqarolarning ixtiyoriy ishtiroki printsipi shuni ko‘rsatadiki, xizmat ko‘rsatish yoki lavozim tavsifida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, hech qanday holatda fuqaro norma yaratish jarayonida ishtirok etishga majbur bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-avgustdagi “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida “Fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, tadbirkorlik subyektlari va ilm-fan vakillarini jalb etish ishlarini samarali tashkil etish orqali norma ijodkorligi jarayoniga jamoatchilik muhokamalarining ta’sir darajasini oshirish” masalalari qo‘yildi[15]. Konsepsiyada qilinishi lozim bo‘lgan maqsadlardan yana biri loyihalarni jamoatchilik va kasbiy doirada muhokama qilish, shu jumladan, foyda, xarajat va kutilayotgan natijalar tahlilini hamda ularning jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va manfaatlariga, ijtimoiy sohaga, tadbirkorlik faoliyatiga, atrof-muhit holatiga ta’sirini, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni baholash imkonini yaratish vazifalari qo‘yilgan[16]. Bu vazifalarining maqsadi fuqarolarning keng qatlamini jalb qilgan holda normativ-huquqiy hujjat loyihalari muhokamasida qatnashish nazarda tutilgan. V.V. Nevinskiyning fikricha jamoatchilik tashabbusi deganda “fuqarolar, ular birlashmalarining o‘z manfaatlariga muvofiq iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy maqsadlarga erishishga qaratilgan ijtimoiy

ahamiyatga ega, faol va ixtiyoriy harakati tushuniladi[17]. Konsepsiyada yana jamoatchilik fikri so‘rovi natijalarini va amaldagi qonun hujjatlaridagi bo‘shliqlarni o‘rganish va tahlil etish negizida asoslangan bo‘lsagina davlatning tartibga soluvchi aralashuviga yo‘l qo‘yiladigan tartibga soluvchi qarorlar qabul qilish uchun asoslarning yetarliligi prinsipining amalda ishlashini ta’minlash mexanezimi ham joriy qilinishi belgilangan. “ Sifat, shaffoflik, tizimlilik, kelishilganlik hamda jamoatchilik jalb etilishini ta’minlovchi konseptual jihatdan yangi mexanizmlarni joriy etishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ilgari surish, ishlab chiqish va qabul qilish, shuningdek, ularning ijrosini monitoring qilish tartibini takomillashtirish” masalalari yuzasidan “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Bu qonunda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish jarayonida jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilikning taklif, shikoyat, mulohazalarini bildirish uchun huquqiy asos sanaladi. Bu qonunda Normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashni tashkil etish jarayonlarida ishlab chiquvchi tomonidan ishchi guruh (komissiya) tashkil etilishi va bu ishchi guruh (komissiya) tarkibiga ishlab chiquvchi bo‘linmalarining, tegishli tarmoqlar holati va rivojlanishi uchun javobgar bo‘lgan vazirliklarning, davlat qo‘mitalarining yoki idoralarning, boshqa manfaatdor davlat organlarining, ilmiy va boshqa tashkilotlarning vakillari, shuningdek fuqarolar kiritilishi mumkinligi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda nodavlat tashkilotlar vakillari, shuningdek fuqarolar o‘z roziligi bilan ishchi guruh (komissiya) tarkibiga kiritiladilar[18].

Ish guruh tarkibida fuqarolarning ishtiroki normativ-huquqiy hujjatlarning fuqarolar uchun dolzarb bo‘lgan muammolar asosida takliflar kiritishadilar. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda qonunchilikning holatini, qo‘llanilish amaliyotini, jamoatchilik fikrini va xalqaro tajribani o‘rganish jarayonida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, shuningdek ayrim fuqarolarning takliflarini, ommaviy axborot vositalarining materiallarini, ilmiy va boshqa tashkilotlarning, olimlar hamda mutaxassislarning maslahatlari va tavsiyalarini, jamoatchilik fikrini aniqlashning boshqa vositalari ma’lumotlarini umumlashtiradi hamda ulardan foydalanadilar[19]. Bunda fuqarolarning tashabbuskor qatlami tomonidan ilgari surilayotgan takliflarni umumlashtirgan holda yoki OAV asoslantiruvchi materiallari asosida normativ-huquqiy hujjat loyihasiga takliflari ko‘rib chiqish uchun qabul qilinadi. Shu asosda qonun layihalar takliflar bilan boyitib boriladi. Keyinchalik esa bu takliflarning asoslilarigina inobatga olinadi.

Qolaversa, normativ-huquqiy hujjat loyihasining huquqiy jihatdan tartibga solish predmetiga taalluqli ilmiy tadqiqotlar natijalarini, ommaviy axborot vositalaridagi, Internet jahon axborot tarmog‘idagi maqolalarni, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘rganadilar[20]. V.N.Rudenkoning fikricha zamonaviy qonunchilik u

yoki bu tarzda qonun ijodkorligi tashabbuslarini demokratiyaning turli institutlari: referendum, fuqarolar qonun ijodkorligi tashabbusi, fuqarolarning davlat organlariga murojaatlari (taklif shaklida) orqali amalga oshirish imkonini beradi[21]. Yuqoridagi qonunimizda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari jamoatchilik yoki mutaxassislar muhokamasiga olib chiqilishi berilgan bo‘lib, unda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari keng jamoatchilikka va yuridik soha mutaxassislar muhokamasidan o‘tkazilishi uchun taqdim etiladi. Bu muhokamani o‘tkazish jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik muhokamasi manfaatdor davlat organlarining, shuningdek fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining, o‘zga tashkilotlarning vakillari, olimlar, mutaxassislar va fuqarolar ishtirokida o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi. I.M. Yaprintsevning fikricha to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya mexanizmlarini, shu jumladan qonun ijodkorligi tashabbusini birlashtiruvchi bo‘limni yaratish eng muvaffaqiyatli modeldir deb hisoblaydi[22].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi Farmoni ya’ni “2022–2026–yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da yuqorida ko‘rib o‘rib o‘tgan normativ-huquqiy hujjatlardagi normalarni yanada takomillashtirish yuzasidan islohotlar davomi bo‘ldi. Ya’ni Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida davlat organlarida murojaatlarni tahlil qilish, ijtimoiy so‘rovlar va jamoatchilik muhokamalarini o‘tkazish natijalaridan kelib chiqib, hududlar (tuman, shahar, qishloq va mahalla) kesimida o‘z tuzilmalarining faoliyati bo‘yicha dasturlar ishlab chiqilib, e’lon qilib borilishi; davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning ijro etilishi jarayonini jamoatchilik tomonidan kuzatib borish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida muntazam e’lon qilib borish tizimi yaratilishi; tadbirkorlar, olimlar, ekspertlar hamjamiyati va jamoatchilik vakillari bilan birga tizimli muammolarni muhokama qilgan holda, ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqish vazifasi; fuqarolar tomonidan ko‘tarilayotgan tashabbuslarni umumlashtirib, fuqarolik jamiyati institutlarini jalb qilgan holda jamoatchilik loyihalarini ilgari surish; Taraqqiyot strategiyasi va davlat dasturida nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining sifatli va o‘z vaqtida ishlab chiqilishi, kelishilishi, jamoatchilik muhokamasiga joylashtirilishiga amaliy yordamni ko‘rsatib borish vazifalari yuklangan [23].

Yuqorida tahlil etganimiz, norma ijodkorligi faoliyati, jumladan fuqarolarning undagi ishtiroki to‘g‘risidagi mavjud qonunchilik hujjatlarini hamda amalga oshirilayotgan islohotlar quvonarli natijalar hisoblansada, biroq sohada hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘p ekanligi ham haqiqatdir.

Xulosa qilib norma ijodkorligi jarayonida jamoatchilik ishtirokining huquqiy asoslari yuqorida ko‘rib o‘tgan normativ-huquqiy hujjatlarda ko‘rib o‘tdik. Shuni

aytish mumkinki, norma ijodkorligida fuqarolarning huquqlari qonun bilan mustahkamlab qo‘yilganligi dunyoda o‘rnatilayotgan fuqarolik jamiyatiga qarab borayotganidan dalolat beradi. Fuqarolik jamiyatida har bir fuqaro davlat boshqaruvida vakillar yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qatnasha olishlari bilan ajralib turishadilar. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda o‘zimizning birqancha takliflarimizni berib o‘tamiz:

Birinchidan. Malakatimizdagi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda uni keng jamoatchilikka muhokamaga yoki fikrlarini bilish maqsadida e’lon qilinadigan internet sahifalarini aholi orasida ommalashtirish ishlarini olib borish, jamoatchilikni o‘sha sahifalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ishlarini olib borish, davlat organlari zamonaviy aloqa kanallari imkoniyatlaridan keng foydalanishi yuzasidan islohatlar olib borish.

Ikkinchidan. Jamiyatning barcha qatlamlarini ularning manfaatlarini hisobga olgan holda normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinayotganda ularni xabardor qilish jarayonida aholi gavjum joylarda (davlat xizmatlari markazlari, avtobuslar, poyezdlar, vokzallar, aeroportlar va boshqalar) reklama roliklaridan foydalangan holda normativ-huquqiy hujjatlarning muhokamalari o‘tkaziladigan havolalarni yoki jamoatchilik portallarini keng targ‘ib qilish. Shu orqali fuqarolarning ishtirok etishining samarali jihatlari ochib beriladi.

Uchinchidan. Jamoatchilik portallarida e’lon qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar oddiy fuqarolar tomonidan hujjatlarni tushunishda ma’lum qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin bo‘lgan professional terminologiyani o‘z ichiga olgan to‘liq huquqli matnlar mavjudligini hisobga olib, ushbu loyihaning aniq kimga va qanday ta’sir qilishi haqida risola shaklida qisqacha ma’lumotnomani joylashtirish. Bundan ko‘zlangan maqsad fuqarolar orasida normativ-huquqiy hujjatlarning hamma uchun tushunarligini oshirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Кутейников, Д. Л. (2017). Институционализация народной правотворческой инициативы в Российской Федерации (Doctoral dissertation, Твер. гос. университет, Моск. гос. юр. универ. им. ОЕ Кутафина (МГЮА), Москва).

2. Кабышев, В. Т. (2012). Народовластие в системе конституционного строя России: конституционно-политическое измерение. Вестник Саратовской государственной юридической академии, (Дополнительный), 39-45.

3. Declaration on the Right and Responsibility of Individuals, Groups and Organs of Society to Promote and Protect Universally Recognized Human Rights and Fundamental Freedoms

4. Тихомиров Ю.А. Управление делами общества (Субъекты и объекты управления в соц. об-ве). М.: Мысль, 1984. С. 161.

5. O‘zbekistan Respublikasining “O‘zbekistan Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi Qonuni Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son, 10.01.2018 y., 03/18/459/0536-son, 19.04.2018 y., 03/18/476/1087- son, 09.01.2019 y., 03/19/512/2435-son

6. Boymurodov B.P Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etish prinsiplarining nazariy-huquqiy asoslari. Huquqiy tadqiqotlar jurnali 2022 y –B 5 http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6322383

7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent.: O‘zbekiston. 2020. 35-modda. URL:https:// www. lex.uz

8. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарі / А.А. Азизхўжаев [ва бошє.]; Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги, Тошкент давлат юридик ин-ти. – Єайта ишланган ва тўлдирилган 2-нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 544 б.

9. www.president.uz

10. O‘zbekiston Respublikasining “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risi”dagi qonuni Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019-y., 03/19/563/3685-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

11. Boymurodov B.P Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etish prinsiplarining nazariy-huquqiy asoslari. Huquqiy tadqiqotlar jurnali 2022 y –B 5 http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6322383

12. Boymurodov B.P Fuqarolarning norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etish prinsiplarining nazariy-huquqiy asoslari. Huquqiy tadqiqotlar jurnali 2022 y –B 5 http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.6322383

13. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida”gi qonuni Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.08.2019-y., 03/19/559/3670-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

14. Руденко, В. Н. (2003). Прямая демократия: модели правления, конституционно-правовые институты. Учреждение Российской академии образования" Уральское отделение".

15. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son

16. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 08.08.2018-y., 06/18/5505/1639-son; 09.11.2019-y., 06/19/5870/4010-son

17. Невинский, В. В. (2015). " Общественные инициативы" в России: природа, эволюция, роль. In Институт общественной инициативы в Российской

Федерации как одно из средств реализации конституционного принципа народовластия (pp. 159-168).

18. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son

19. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son

20. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 03.03.2022-y., 03/22/756/0180-son

21. Руденко, В. Н. (2003). Прямая демократия: модели правления, конституционно-правовые институты. Учреждение Российской академии образования" Уральское отделение".

22. Япрынцев, И. М. (2016). Правовые требования как гарантия реализации правотворческой инициативы граждан в субъектах Российской Федерации. Государственная власть и местное самоуправление, (4), 41-46.

23. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-sont

# TA’LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI

**Madiyorova Shohista Sabirjonovna**
Xorazm viloyati Urganch shahridagi 8-son maktabning
o‘zbek tili fani o‘qituvchisi
**Otamuratova Intizor Komilovna**
Xorazm viloyati Shovot tumanidagi 6-son maktabning
tarix fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256231

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati hamda darslarda qo‘llaniladigan ba’zi interfaol metodlar haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim jarayoni, metod, interfaol, innovatsiya, “6x6x6 metodi, “Qorbo‘ron” metodi, “Qalin va ingichka savollar” metodi.

Ma’lumki, bugungi kunda darslarni interfaol metodlarsiz tasavvur qilish mushkul. Negaki hozirgi ta’lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. O’qituvchi bu jarayonda o’quvchining shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol usullar muayyan guruhlarda o‘qitiladigan o‘quv fanining bosh maqsadiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Aks holda, qo‘llanilgan interfaol usul hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmay qoladi. O‘qituvchi tanlagan usul dars davomida bolaning faolligini, kattalar va tengdoshlari bilan to‘g‘ri muloqot qila olishini ta’minlashi, tilda mavjud, biroq o‘quvchi uchun notanish bo‘lgan yangi so‘z va iboralarning mazmunini anglash, eslab qolishga, muloqot jarayonida qo‘llashga harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishi zarur. Interfaol usullardan foydalanilgan holda o‘tilgan darslar o‘quvchilarni ijobiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga chorlaydi.

Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo’nalishlardan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Interfaol usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o’z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog’lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko’nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada keltirilgan zamonaviy metodlar o'quvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ma'lumki, interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar: "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom yettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili", "T-jadval", "Rezyume", "Kungaboqar", "Charxpalak" metodlarini, uyga vazifa berishda "FSMU", "Klaster", "BBXB" metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi. Quyida ushbu metodlarning ayrimlari haqida kengroq ma'lumot berib o'tiladi.

**"6x6x6 metodi.** "Ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. «6x6x6» metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga etgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhlar bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. Ushbu metodni 5, 6, 7 va hatto 8 nafar o'quvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda ham qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlar o'rtasida «6x6x6» metodi qo'llanilganda vaqtni ko'paytirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham, axborot berish uchun ham birmuncha ko'p vaqt talab etiladi. So'z yuritilayotgan metod qo'llanilayotgan

mashg‘ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo)ni muhokama qilish imkoniyati mavjud.

**“Qorbo‘ron” metodida** ikkiga ajratilgan guruh o‘quvchilari bir muammo yuzasidan eng ko‘p to‘g‘ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to‘g‘ri javob yumaloqlangan qor ko‘rinishida o‘sha guruh hisobiga yozib qo‘yiladi; to‘plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi. Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo‘lishi mumkin. Guruhlar qo‘yilgan muammoni ma’lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma’lum qilishadi. Muammo yechimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

**“Qalin va ingichka savollar” metodi.** Ta’lim jarayonida savollardan foydalanishda ularni ikki turga: oddiy va murakkab savollarga ajratish qabul qilingan. Bunda oddiy savollar “ha” yoki “yo‘q” yoxud boshqa birorta so‘zlar bilan javob berish mumkin bo‘lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga qisqa yoki ixcham obrazli qilib esa, ingichka savollar deb ham atash mumkin. Murakkab savollar ularga bir nechta so‘zlar, iboralar, gaplar yoki tegishlicha bayon qilish, tushuntirish bilan javob berish lozim bo‘lgan savollardan iborat. Ularni boshqachasiga to‘liq yoki yoyiq obrazli qilib esa, qalin savollar deb atash ham mumkin. Shunga ko‘ra ushbu «Qalin» va «ingichka» savollar metodining nomini boshqachasiga «To‘liq» va «qisqa» yoki «Yoyiq» va «ixcham» savollar metodi deb ham atash mumkin. Bu metoddan o‘quvchi- talabalarning o‘zlashtirishini tezkor nazorat qilish hamda faolliklarini oshirish maqsadlarida mashg‘ulotning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Buning uchun o‘qituvchi darsning mavzusiga tegishli «Qalin» va «ingichka» savollar jadvalini oldindan tuzib olishi kerak.

Xullas, ta’lim jarayonida turli xil interfaol usullardan samarali foydalanish mumkin. Bunda asosiy e‘tibor o‘quvchilarning tafakkurini o‘stirish, ularning mustaqil ishlash mahoratini oshirishga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.Yo‘ldoshev, R.Xusainova, U.Bobojonova. Ta’limning interfaol metodlari(metodik qo‘llanma). Urganch-2011.
2. O.U.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017
3. Sobirova M.R. O‘zbek tili darslarida interfaol usullardan foydalanish Молодой ученый. – 2020. - № 14 (304).
3. www.ziyo.uz.

# THE USAGE OF STORYTELLING IN PRIMARY CLASSES TO IMPROVE COMMUNICATIVE COMPETENCE

**Naimova Dildora Kahramonovna**
teacher of UzSWLU
**Nurullayeva Feruza Alisher qizi**
student of UzSWLU
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256234

**Annotation:** This article deals with the usage of storytelling technique in young learners' learning languages to enhance their speaking and communicative abilities. The main aim of the issue is analyzing the advantages of stories in learning languages. Pointing their educational, cultural and upbringing effects on children.

**Key words:** Second language, acquisition, instruction, evidence, aspects, teaching process, primary, education.

**Abstract:**Communicative approach at language teaching has been widely recognized in the field of second language acquisition (SLA) over three decades. Currently, the various educational institutions' teachers try to teach speaking to their students in order to improve their communicative skills. As a result, tedious and ineffective methods as grammar-translation methods have been rejected. Consequently, storytelling method had been improved for supporting student's communicative skill. Storytelling is helpful in the language learning process, for it has the characteristic of being a motivating factor. The learner is completely absorbed into the story as it is a good way to combine instruction and entertainment.

Storytelling is the use of stories or narratives as a communication tool to value, share, and capitalize on the knowledge of individuals. Stories provide a powerful metaphor, framework, and set of practical processes for resolving issues, educated ourselves, and pursuing our goals. Storytelling can be a powerful element of communication process, being equally as textbooks and essays.

In the classroom, storytelling will help students remember things. When lecturers tell stories, students recall them. Only good stories, on the other hand, are lost forever. A good story is simple to recall. The majority of the stories that the student memorizes are both amusing and sad. It has everything to do with the relaxation of emotions at the moment. It will be remembered for the rest of their lives because it has an effect on their emotions. Furthermore, when the students hear the fascinating tales, their attention span will improve. It means that when they pay close attention to what the lecturers are saying, their memory will improve.

From an educational standpoint, as M. Brown (2009) points out, it is well known that students recall and learn well from stories. Furthermore, many cultures and religions depend on the mode of instruction. For example, the Quran in Islam has been organized in narrative and stories so that Muslims can learn from the sentences and remember the rules that are embedded in it. It's also been shown that telling a story will help you remember things.

•Educational significance

According to research, storytelling has educational value. The importance of storytelling as an effective instructional tool for developing skills across the curriculum, as well as self-concept and self-esteem, has recently been recognized. Reading, writing, and math skills, as well as exposure to general principles in the sciences and social studies, have always been considered fundamental to education. Storytelling should be used to supplement training in all of these fundamentals, since storytelling is fundamental to humanity.

Listening to stories involves students in the storytelling process. Storytelling is a reemerging as an art that can bridge educational gap between the external world of ‘doing‘ and the internal world of ‘becoming‘ while C. Savvidou (2010), states that the educative function of stories is chiefly to equip students with knowledge that will later prove to be useful. Storytelling as a teaching tool will help make any content more engaging and meaningful.

According to Tobias (2008,), there is another important factor when selecting stories and it is related to storyteller himself: “Choose your stories wisely. If you don’t like a story, don’t tell it, because the child will perceive that you are not enjoying, and neither will (s)he. Choose stories that have some relevance in the life of the child and about something you can learn and enjoy together.” On the other hand, Cameron (2001) also proposed several ideas that he considered to be taken into account when selecting stories. Here is a summary of them:

• The stories need to be motivating, fun and interesting for the children.

• Characters need to include fantastic beings and animals from wonderful worlds, who are able to gain their attention and empathy.

• Stories should provide positive feelings about their own culture.

• The argument must be clear and structured (formulation of a problem, different situations linked to each other and the resolution of the problem).

• There must be a balance between dialogue and narration, as well as repetition of grammar and vocabulary patterns, and include new vocabulary, but not in excess so that the story is understandable but does not discourage children.

In education, the once-forgotten, but well-proven method of "storytelling" is being actively introduced, which received the newfangled name "storytelling" - from the English storytelling: story-history and telling-representation, first used by the

head of a US corporation, David Armstrong, to improve the company's performance and quickly train newcomers, where “one of the principles is the connection between theory and practice”.

Storytelling in education is the creation of emotional connections, with the help of which you can manage the attention of students, place the necessary accents, focusing on important things.

Storytelling in education is the creation of emotional connections, with the help of which you can manage the attention of students, place the necessary accents, focusing on important things.

Currently, this method has proven to be an effective means of building external and internal communications, communicating information to the audience by telling a touching, funny, sometimes instructive story with real or fictional characters. At the same time, the information is firmly assimilated, since it carries a semantic load.

Many authors consider Storytelling to be one of the most widely used and highly valued techniques in Early Childhood Education, especially in the second language learning. At this age, children are able to transform anything fantastic into a real thing through their imagination. Therefore, there must be books in the classroom so that children can touch them, observe them and experiment with them. Below it is mentioned some of the compelling reasons that different authors provide in order to focus the work.

In conclusion it is clear to say that communicative and speaking abilities play a vital role in studying a foreign language at school. Smooth speech helps students to retrieve specific information, and also allows them to learn other forms of speech activities, such as oral speech. Students develop their knowledge of a foreign language by using speaking skills to correct known information, assimilate commonly encountered syntactic constructs, language stamps and symbols involuntarily.

**Literature:**

1. Бодалев А.А. Об общении и учете его характеристик при работе с людьми. Л.: ЛГУ, 1972;
2. Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника.- М., Просвещение, 1977;
3. Воронина Е. К. Влияние установки, создаваемой словесной инструкцией, на аудирование //Тезисы докладов. Научно-методическая конференция.- М.: МГПИИЯ, 1971;
4. Гез Н. И. Развитие коммуникативной компетенции в ситуациях ролевого обучения //Тезисы докл. на Всесоюзной научной конференции «Коммуникативные единицы языка». М: МГПИИЯ им. М.Тореза, 1984.

# СЕМАНТИК АННОТАЦИЯ ВА СЕМАНТИК КЕНГАЙТМА ТУШУНЧАЛАРИ

**Ахмедова Дилдора Баҳодировна**
БухДУ докторанти (DSc), ф.ф.ф.д. (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256241

**Аннотация:** Ушбу мақолада корпус лингвистикасининг асосий тушунчаларидан бўлган семантик аннотация ва семантик кенгайтма атамаларига изоҳ берилган. Семантиклик белгиси жуда кўп ҳодисаларга хос бўлиб, уларни алоҳида тадқиқ этиш масаласи атролича таҳлил этилган.
**Калит сўзлар:** лингвистик корпус, аннотация, семантика, семантик кенгайтма, сема, семема, семантема, семантизация, семантиклик.

Лингвистик корпусларнинг ўзига хос хусусияти шундан иборатки, маълум бир бирлик ҳақида (корпус имкониятидан келиб чиққан ҳолда) турли хилдаги ахборот/маълумотни олиш имконияти мавжуд. Чуқур аннотацияланган корпусларда исталган сўз танланса, бу сўз ҳақида фонетик, морфологик, лексик, грамматик ва б. маълумотларни олиш имкони пайдо бўлади. Бундай маълумотлар сирасида семантик маълумотлар алоҳида ўрин тутади. Корпус таркибидаги сўзнинг семантик маълумот берувчи қисми учун семантик кенгайтма атамасини таклиф этамиз ва бундан кейин шу атамани қўллаймиз. Ушбу атамани таклиф қилиш ва асослашдан олдин семантик изоҳ сўзи билан боғлиқ атамаларни изоҳлаймиз.

СЕМАНТИКА (инг. semantics, фр. sémantique, нем. semantik, ucn. cemantica). 1. Сўз нутқ обороти ёки грамматик шаклнинг маъноси. Грамматик шаклнинг семантикаси. [1]

Айн. Семасиология.

Тил бирликларининг улар белгилаган объектлар, жараёнлар ва бошқаларга муносабатини ажратиб кўрсатиш, тилни ўрганишнинг аспект ёки жиҳатларидан бири; қиёсланг. прагматика, синтактика. [1]

СЕМАНТИКА умумий инглиз тили, умумий семантика.

1) табиий тилларнинг замонавий алоқа эҳтиёжларини қондириш учун яроқсизлигини (уларнинг «мантиқсизлиги» ва ўзига хос «сўзларнинг фетишизми» туфайли) таъкидлайдиган ва уларни тил билан алмаштириш йўлларини қидирадиган умумий тилшуносликдаги замонавий тенденция, рационал мантиқий «тиллар»;

2) тилшуносликнинг тил бирликларининг ички (семантик) томони тузилишининг асосий қонуниятларини ўрганувчи бўлими. Функционал семантика. [1]

СЕМА (инг. seme, фр. sème) 1. (семантик омил). Семеманинг варианти (алтернативи). 2. Синтагматик қатордаги ифода планининг мос бирликлари (элементлари) билан боғланиши мумкин бўлган энг кичик (якуний) бирлиги. [1]

«Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати»да А.Ҳожиев «сема» атамасини қуйидагича таърифлайди:

СЕМА (юн. sema – белги). Лексик маъно (семема)ни ташкил топтирувчи компонент (қисм)лар. Мас., атроф лексемасининг маъноси (сememаси) «ҳамма» ва «томон» семаларидан иборат. Маълум лексик-семантик гуруҳга оид сememалардаги семалар шу сememалар учун умумий ёки хусусий эканига кўра икки асосий турга бўлинади: 1) умумий сема (қ.); 2) фарқловчи сема (қ.). [2; 287]

Шунингдек, «семема» атамаси лексик маъно атамаси билан айнан эканлиги кўрсатилади:

СЕМЕМА – айн. Лексик маъно.

Шунингдек, «Тилшунослик терминлари изоҳли луғати»да «семантема» атамаси эътиборимизни тортди:

СЕМАНТЕМА – айн. Лексик маъно. [2; 291]

Демак, А.Ҳожиевнинг фикрига кўра, семема ва семантема атамалари айнан лексик маънони ифодалаб келади.

Ахмановнинг луғатида эса семантема атамаси кенгроқ тавсифланади:

СЕМАНТЕМА (инг. sémantème, фр. sémantème, нем. Semantem, Bedeutungselement, ucn. Semantema) 1. Семема билан айнан. Сўзнинг морфемадан фарқли ўлароқ, моддий қисми, унинг лексик, моддий маъносини ташувчи қисми. Бу шаклда фақат «формал» (яъни грамматик) маънога эга бўлиши мумкин. 2. Асос билан айн. (СЕМАНТЕМА англ. sémantème, фр. sémantème, нем. Semantem, Bedeutungselement, ucn. semantema. 1. То же, что семема. Вещественная часть слова, та его часть, которая несет его лексическое, материальное значение, в отличие от «морфемы», которая, при таком понимании, может иметь только «формальное» (т.е. грамматическое) значение. То же, что основа). [1]

Ушбу таърифдан ҳам англашиладики, семантема лексик маъно ташувчи моддий бирлик.

Шулар қаторида семантик кенгайтмани шакллантиришда семантизация, лексик-семантик категория каби атамаларнинг изоҳига ҳам эҳтиёж туғилади.

СЕМАНТИЗАЦИЯ (инг. Semantization). Тушуниш, маънони очиш (кашф этиш), маъно. Осмысление, обнаружение смысла, значения.

Лексик-семантик категория атамасига фақат ҳавола берилган, холос:

СЕМАНТИКО-ЛЕКСИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ см. категория семанти-ко-лексическая.

Шу сабабли ҳавола берилган жойга эътибор қаратамиз:

ЛЕКСИК-СЕМАНТИК КАТЕГОРИЯ (англ. semantical-lexical category) Сўзларнинг луғат бирликлари сифатида семантик синфларга бирлаштириладиган семантик хусусиятлари тўплами (КАТЕГОРИЯ СЕМАНТИКО-ЛЕКСИЧЕСКАЯ англ. semantical-lexical category. Совокупность семантических признаков слов как единиц словарного состава, на основании которых они объединяются в семантические классы).

Диққат қаратишимиз лозим бўлган яна бир атама белги билдирувчи, сифат туркумига мансуб бўлган «семантик» атамасидир. Биз ҳам шу таъриф асосида семантик белгиси нималарга нисбатан қўлланишини билишимиз мақсадга мувофиқ.

СЕМАНТИК (инглл. semantic, фр. sémantique, нем. semantisch, ucn. semantico). Семантика атамасига илова. Семантик таҳлил. Семантик ўзгариш. Семантик классификация. Семантик контекст. Феълларнинг семантик разряди. Сўзларнинг семантик разряди (гуруҳи). Сўзларнинг семантик алоқаси. Семантик силжиш. Семантик система. Семантик фактор. Семантик ядро. Сўзнинг семантик варианти. Семантик гуруҳ. Семантик диапазон. Семантик дифференциаллик. (СЕМАНТИЧЕСКИЙ англ. semantic, фр. sémantique, нем. semantisch, ucn. semantico. Прил. к семантика. Семантический анализ. Семантическое изменение. Семантическая классификация. Семантический контекст. Семантический разряд глаголов. Семантический разряд слов. Семантическая связь слов. Семантический сдвиг. Семантическая система. Семантический фактор. Семантическое ядро. Семантические варианты слова см. вариант. Семантическая группа см. группа. Семантический диапазон см. диапазон. Семантический дифференциал англ. semantic differential) [1]

Юқоридаги тавсифдан кўринадики, «семантик» белгиси жуда кўплаб бирликларга нисбатан қўлланиши мумкин. Булар хусусида семантик кенгайтмани таърифлаш ўрнида алоҳида тўхталамиз.

Шунингдек, ушбу атама таърифида семантик муносабат, семантик жуфт, семантик сўз ясалиши, сўзнинг семантик таркиби, семантик даража каби изоҳлар ҳам келтирилади (Семантическое отношение см. отношение. Семантическая пара см. пара семантическая. Семантическое переразложёние. То же, что перенесение (в 1 знач.). Семантическое поле см. поле. Семантическое расширение. То же, что расширение значения. Семантическое словообразование см. словообразование. * Семантический состав слова. То же, что значение. Семантический уровень см. уровень).

Шундан хулоса қилиш мумкинки, семантиклик белгиси жуда кўп ҳодисаларга хос бўлиб, уларни алоҳида тадқиқ этиш мақсадга мувофиқ. Ўзбек тилшунослигида лексик-семантик муносабатлар, сема, семема каби ҳодисалар атрофлича тадқиқ этилган.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. https://classes.ru/grammar/174.Akhmanova/source/worddocuments/_18.htm
2. А.Ҳожиев. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.
3. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
4. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989.

# XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДА ҚОЗИХОНА ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТУРЛАРИ

**Зафар Маҳмудов**
ТИИ Таҳфизул Қуръон кафедраси ўқитувчиси,
Алишер Навоий номидаги Тошкент Давлат
ўзбек тили ва адабиёти университети магистранти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256250

**Аннотация:** Ушбу мақолада XIX асрнинг иккинчи ярмида қозихона ҳуқуқий ҳужжатлари ва уларнинг турлари ҳақида сўз боради.
**Калит сўзлар:** “Ичан-қалъа”, ҳужжатлар, Хива хонлиги, қозилар, Арабшоҳлар.

Ҳозирда “Ичан-қалъа” давлат музей-қўриқхонаси фондида, шунингдек, маҳаллий аҳолининг қатор шахсий коллекцияларида XVII-XX аср бошларига оид ноёб ҳужжатли тарихий манбалар мавжуд. Йиғилган маълумотлар таҳлили шуни кўрсатдики, мавжуд материалларнинг асосий қисмини ҳужжатли манбалар, биринчи навбатда, қози ҳужжатлари ва алоҳида хон ёрлиқлари ташкил этади[10].

Бу ҳужжатларнинг алоҳида матнлари устида ишлаш XVII-XX аср бошларидаги Хива хонлигининг ижтимоий-иқтисодий ва ижтимоий-сиёсий тарихига оид янги қимматли маълумотлар мавжудлигини аниқлади. Анъанага кўра, бундай турдаги ҳужжатларни нашр этиш дипломатия деб номланган тарихий фан доирасига тўғри келди. Ҳужжатларнинг матнлари билан ишлашда биз кўплаб янги қизиқарли фактик материалларни топдик. Бу нафақат регистрлар кўринишида нашр этилган ҳужжатларни тизимлаштириш учун, балки тадқиқот адабиётларида этарлича ёритилмаган масалалар бўйича кенгайтирилган кириш билан нашрларни тақдим этиш истаги учун ҳам рағбат бўлди.

Хива хонлиги ижтимоий-иқтисодий ҳаётининг бир қатор жабҳаларини яхши билмас муаммоси, ҳикоя йилномалари билан бир қаторда ҳужжатли манбаларни ҳам кенг жалб этиш зарурлиги тадқиқотчилар томонидан очилгандан кўтарилиб келинади. Салтыков-Щедрин, фақат маълум даражада тарих фанининг Хива хонлигининг ижтимоий-иқтисодий тарихига оид фактик материалларга бўлган тараққиётини ривожлантиришга имкон берди.

[10] Қозихона ҳужжатларига оид маълумотлар Эльёр Каримов. Регестры казийских документов и ханских йарлыков хивинского ханства XVII - начала XX в. (–Ташкент: Фан, 2007. –С. 15-55.) нашрига асосан берилди.

Кейинчалик бу архив материаллари янги ҳужжатлар билан тўлдирилди. Улар Ю.Э.Брегел, М.Ю.Йўлдошев, А.Б.Вилданова, А.Шайхова ва бошқа бир қатор олимларнинг архив тадқиқотлари туфайли топилган.

Шу билан бирга, бу тадқиқотлар фақат 19-асрни қамраб олган бўлса, XVIII асрдаги Хива хонлигининг ижтимоий-иқтисодий аҳволи. ва бошқа бир қанча тарихий даврлар ўрганилмаганлигича қолди. Бу йўналишдаги ўзига хос ютуқ "Хива қозиларининг 19-аср – 20-аср бошлари ҳужжатлари каталоги"нинг нашр этилиши бўлди. 6. Ушбу асарда 1713 та норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тавсифланган. Булар вақф хатлари, векселлар, ипотека, хайр-эҳсон, ижара ва бошқа шахсий ҳужжатлардир.

Ушбу ҳужжатларни ўрганиб чиқиб, ерга эгалик қилишнинг таркиби ва хусусияти, тасвирланган даврларда мавжуд бўлган оғирлик, узунлик, майдон ўлчовлари, ўша даврда муомалада бўлган пул бирликлари, маданий мулкнинг ўзига хос хусусиятлари ҳақида маълумот олишимиз мумкин. Ҳозирги нашрга келсак, унда шахсий коллекциядан 73 та қози хужжатлари, шахсий коллекциядан 5 та хон ёрлиқлари, Ичан-Қалъа музейи коллекциясидан 14 та хон ёрлиқлари тақдим этилган.

Мазкур қози ҳужжатларининг энг биринчиси 1191 йил ражаб ойи / 1777 йил август-сентябр ойларига тўғри келади. Энг охирги ҳужжат 29 рабиъ-II 1344 йил / 16 ноябр 1925 йил. зулҳижа 1325 йил / 24 январ 1908 йил.

Шундай қилиб, ушбу тўпламнинг ҳужжатлари икки юз эллик йилдан ортиқ вақтни қамраб олади. Жуда оз қисмини 17-аср ҳужжатлари, Арабшоҳлар сулоласининг сўнгги хонлари ҳукмронлиги даврига оид. Нисбатан кўпроқ ҳужжатлар 18-асрга тегишли. Ҳужжатларнинг асосий қисми 19-асрга, асосан Саййид Муҳаммадхон (1856-1864) ва Муҳаммад Раҳимхон II (1864-1910) ҳукмронлик қилган даврга тўғри келади. Бу хронологик тенденцияни қуйидаги сабаблар билан изоҳлаш мумкин. Ҳужжатларнинг бир қисми, хусусан, вақф мактублари эскирганлиги сабабли қайта ёзилган бўлса, янги ҳужжат янгиланган куни ҳужжатнинг аввалги мазмуни ва у ерда пайдо бўлган саналар сақланиб қолган ҳолда янгиланган.

Икки хонақоҳ Шайх Сулаймон Ҳадодийнинг ҳижрий 1072 йилда тузилган вақф ҳужжати бунга мисолдир. (1659-1660 Абулғозийхоннинг кўрсатмаси билан ҳижрий 750-йилнинг Рамазон ойи санаси ҳақидаги асл ҳужжат ўрнига). 1349 йил ноябр, иккинчисининг ёмонлашиши туфайли. Бу ҳужжат дастлаб ҳижрий 750-йил Рамазон ойидан бошлаб вакфномнинг тўлиқ матнини тақдим этади.

Сўнгра ўқиймиз: "Таҳрир-и жадид ҳижрий 1072 йилда чўчқа (ҳук) йилига тўғри келадиган янги нашр (таҳрир-и жадид) Хоразмда хоқонларнинг энг улуғи (мушожаъ ҳавоқин) кўрсатмаси билан (мувофиқ) қилинган. Абулғози

Баҳодирхон. У дивонда ўтириб, 18-19 ёшлардаги бир йигитнинг кекса бир кишига (мард-и риши сафид) ушр ер ҳақидаги даъволарига қулоқ тутди: “Бу ер менга отамдан мерос қолган. Ота-боболаримиз ерни бошқаларга бермаган, мен ҳам бу ерни бермайман деган бобомни кўрдим”.

Шундан сўнг у [йигит] қўйнидан тумор, бирида шажара (насабнома), иккинчисида Шайх Сулаймон Ҳадодий мулкидаги вакфномани чиқариб олди. Мен, мулла Тоҳир ибн мулла Ошиқ Хивақий бу икки ҳужжатни кўздан кечириб, икки туморда бўлган, жуда эскирган ва йиртилган, хат ўчирилган қоғозларни назарда тутиб, ушбу ҳужжатни ўзгартиришларсиз, камчиликсиз ва зиён этказмасдан туздим. Умуман олганда, аввалги ҳужжатларни қайта тасдиқлаш ўрнатилган анъанадир.

Демак, масалан, хоннинг хон томонидан бериладиган турли ёрдамлар ҳақидаги ёрлиқлари баъзан унинг ўринбосарлари томонидан тасдиқланиши керак бўлган. Бошқа ёрлиқлар ёрлиқни асл олувчининг ўлимидан кейин унинг авлодлари ҳуқуқларини тасдиқлаш учун ўзгартиришни талаб қилди. Шу мақсадда янги ёрлиқ чиқарилди. Бу нашрда Хива хони Иранг Муҳаммаднинг (1688 - 1694) муҳтарам Ҳайит Шайх ва Ашур Шайхнинг ўғиллари Ниёз ва Эшниёзларнинг солиқ дахлсизлигини тасдиқлаш тўғрисида эълон қилинган ёрлиқи (ҳумоюн ёрлиқи) бунга мисол бўла олади.

**Ёрлиқлар**

Хон ёрлиқларининг ёзув услуби расмий руҳонийлик характерига эга бўлиб, мазмунан гулдор ва чўзиқ эмас. Бундай ҳужжатларнинг тузилиши 17-20-асрларда деярли ўзгармади. Хон томонидан тархонлик унвони берилишига ёрлиқларнинг маълум бир доираси бағишланган.

Одатда бу ҳуқуқ авлиё, саййид ва эшон авлодларига берилади. Ушбу белгини олувчига солиқ иммунитети, яъни ҳар хил турдаги солиқлар, солиқлар ва йиғимлардан озод қилиш имтиёзи берилади. Биз томонидан нашр этилган тархон ёрлиғда Хива хони Ануша Муҳаммад (1663-1686) Мулла Маҳмуд ва унинг ўғиллари Ниёзмуҳаммад, Муҳаммадқули, Муҳаммадамин, Муҳаммадзамон, шунингдек, унинг укалари Оллоҳқулини насиҳат қилади. Одинақўзи ва Падшоҳқўзи солиқ иммунитети (тархон ва марфуъ ал-калом).

Кейинги ёрлиқда Хива хони Муҳаммад Раҳим (1806-1825) икки шахс - Паҳлавон Назар ҳожининг ўғли Ғойиб Назар ва Муҳаммад Собирнинг солиқ дахлсизлигини (тархон ва марфуъ ал-калом) тасдиқлайди. Пишканикдаги Қулмуҳаммад масжиди жамоасидан (қаавм) Қиличнинг ўғли. У буни собиқ султон ва хоқонлар томонидан чиқарилган фармонлар, жумладан, марҳум хоннинг август фармони (маншур-и ҳумоюн) асосида амалга оширади. Ёрлиқлар суюрғали - хон томонидан ўзининг яқин сафдошларига ер бериш ҳақида гап боради.

**Қози ҳужжатлари**

Қози ҳужжатларини нашр этиш муайян анъанага эга. Р. Р. Фитрат ва К. С. Сергеев, А. А. Эгани ва О. Д. Чехович, Р. Г. Муқминова – бу тадқиқотчилар турли даврларда алоҳида қози ҳужжатларини нашр эттириб, ушбу турдаги ҳужжатларни тавсифлаш техникасини яратишга беқиёс ҳисса қўшганлар. “XIX аср – XX аср бошларидаги Хива қози ҳужжатлари каталоги” муаллифлар жамоасини алоҳида таъкидлаш керак. А. Ўринбоев, Г. Джурасвой, Т. Файзиев, Т. Хорикава ва К. Исогая вакиллари. Турли тадқиқот мақолалари ва айрим нашрларда қози ҳужжатларининг алоҳида нашрларини ҳам учратишимиз мумкин.

Шуни таъкидлаш керакки, кўпгина нашрларда тадқиқотчилар асосан ҳужжатлар ёки уларнинг матнларига тавсиф беришган. Гарчи, масалан, Р. Г. Муқминова “Мажмуъайи васоиқ” (XVI аср)даги саккизта қози қарорининг факсимили ва таржимасини берибгина қолмай, балки ушбу ҳужжатларнинг кенгайтирилган таҳлилини ҳам тақдим этган.

Маълумки, ҳужжатлар тарихий география ва топография, ислом ҳуқуқи, мамлакат ижтимоий-иқтисодий тарихи ва ҳоказоларга оид энг муҳим фактик манбадир. Бундан ташқари, ҳар қандай тарихий ҳужжат маълум маънода ўша давр руҳини акс эттиради. Ўша даврда ҳукмрон бўлган ахлоқ, одамлар психологияси, маданий ва диний анъаналарнинг ўзига хослиги. “19-аср – 20-аср бошларидаги Хива қози ҳужжатлари каталоги”да баён этилган ҳуқуқий ҳужжатларни ўрганар эканмиз, биз алоҳида эътибор қаратмоқчи бўлган бир жиҳатга қизиқдик.

Биз вақфга пул муомалада бўлган вақфнома - вақф низомларининг кичик статистикасини олиб боришга қарор қилдик. Ўрганилаётган ҳужжатлардан кўриниб турибдики, пул капитали кўпинча вақфга айланган - 5-10 дан юстагача. Бир қатор ҳужжатларда вақфга айлантирилган пул маблағларини ижарага бериш кўзда тутилган – “ижара” (яъни, кўчар ва кўчмас мулкни таъминлаш, савдо ва бошқа даромад келтирувчи операциялар учун ўсиш). Баъзан вақфга айлантирилган сўмга ер участкалари сотиб олиниб, кейин ижарага берилганлиги кўрсатилган.

# XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИДА ХИВА ХОНЛИГИДА ДИПЛОМАТИК ЭТИКЕТ ВА МУЗОКАРАЛАР ОЛИБ БОРИШНИНГ АСОСИЙ ТАРТИБ-ҚОИДАЛАРИ

**Зафар Маҳмудов**
ТИИ Таҳфизул Қуръон кафедраси ўқитувчиси
Алишер Навоий номидаги Тошкент Давлат
Ўзбек тили ва адабиёти университети магистранти
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256274

**Аннотация:** Ушбу мақолада Хива хонлигида дипломатик муносабатлар ҳақидаги айрим мулоҳазалар баён этилган.
**Калит сўзлар:** Хива хонлиги, Эрон элчиси, «Гулшани давлат», Бухоро амири, Томсон.

Музокараларнинг асосий кўриниши оғзаки мулоқот бўлиб, элчи бош масалани бевосита хон ёки унинг номидан иш олиб борган меҳтар билан кўришиб муҳокама қилган. Баҳс-мунозаралар чўзилиб кетган ёки қарор қабул қилишда бир тўхтамга келиш қийин булган ҳолларда музокаралар хатлар орқали ҳам олиб борилган. Айниқса, Хивадаги эрони қулларни озод қилиш борасида хоннинг ён босишига эришмоқчи булган Муҳаммад Алихон Ғафур аксарият ҳолларда мактуб ёзиб, ўз эътирозларини баён қилар ва уларга тегишли жавоб берилишини талаб қилар эди. Айтиш жоизки, мактублар орқали мурожаат этишда ҳам субординация қоидаларига қатъий риоя қилинган. Хусусан, Эрон элчиси ҳам, инглиз вакили Томсон ҳам хонга тўғридан-тўғри эмас, меҳтарга мактуб йўллаш орқали ўз арзларини билдиришган[11].

Масала мактублар орқали муҳокама қилинишининг ўзига хос сабаблари эди. Музокараларнинг сони чегаралаб қўйилмаган бўлса-да, хонликда икки-уч ойгача қолган элчи хон билан бевосита бир ёки бир неча мартагина кўришган. Баъзи ҳолларда бу музокаралар ярим тунгача давом этган. Қолган вақтда хон номидан меҳтар элчилар билан музокара олиб борган.

Музокара бевосита асосий масалани мухокама этиш ёки керакли вазиятни ҳосил қилиш учун уюштирилган суҳбат билан бошланар эди. Зеро, дипломатиянинг ўзига хос тартиб-қоидасига кўра баъзи холларда мактубларда умумий расмиятчилик сўзлари келтирилган булиб, муҳим масалалар элчиларнинг оғзаки хабарлари орқали етказилган.

Манбаларда элчининг ҳукмдор қабулида бўлган вақтда «маъруз этти»

[11] Муҳаммад Алихон Ғафур. Хоразм сафари кундалиги ... - Б.33 - 37.

деган ибора қўлланадики, бундан юборган томон ўз муддаосини мактубда баён этиш билан бирга элчи орқали оғзаки тарзда етказилиши лозим бўлган масалалар ҳам бўлганлигини англаш мумкин.

«Гулшани давлат»да Бухоро амири Насруллонинг элчиси Турсунхўжа садр Хива хонининг «кўринуши олий»сида келтирган нома ва туҳфаларини «таъзими тамом била маъруз этти» деб баён этилади[12].

Кўриниб турибдики, музокараларда элчининг шахсияти, унинг феъл-атвори ҳамда ўзини тутиши катта аҳамиятга эга булган. Шу жиҳатдан, юқорида келтирилганидек Хива амалдорларига такаббурлик билан «сизлар қоидани билмайсизлар. [Дипломатия] қоидаларини назардан соқит қилиб, кўнглингизга келганини гапираверасизлар» дея қўполлик қилган Муҳаммад Алихон Хива хони саройида анчагина ёмон таассурот қолдирган[13]. Ундан фарқли ўлароқ, мулоқот жараёнида ўзининг билимдонлиги ва зукколигини намойиш эта олган Ризоқулихон Хива хони ва унинг амалдорлари орасида жуда катта ҳурматга сазовор булган.

Ўзининг маданияти ҳамда тарихий ва адабий билимларию шеърият борасидаги истеъдоди билан ҳаммани лол қила олган элчига Хива хони шундай баҳо берган: «бу одам ажаб бир билимли одам ва кўп доно киши экан. Агар бизнинг вилоятда қолса, бизга куп фойдаси тегарди. Бизнинг дин ва давлат бобидаги билимларимизга билим кўшиб, илмларимизни оширарди. Шу пайтгача Эрондан Хоразмга бундай элчи келмаган эди»[14].

Ҳар хил вазиятларда ҳам хушмуомалалик ва босиқлигини намойиш қилган элчи, ўзининг таъбири билан айтганда, элчи сифатида сабр ва мулойимлик билан кўп нарсаларни кўриб турса-да, ўзини билмасликка солар эди[15]. Ўзига кўрсатилган ҳурмат-эҳтиром ҳақида ёзаркан, Ризоқулихон: «Хивада хондан бошқани хон деб аташ адабга хилоф булса ҳам, мени баъзилар «элчихон» ва айримлар «элчибек» деб аташар эди», - деб қайд этади[16].

Музокараларда ҳам ўзининг зукколигини намойиш қилган Ризоқулихон ўртадаги суҳбатни Эронда тиббиёт ишларининг ривожланганлиги, айниқса, шоҳ қўшинида махсус табиблар гуруҳи иш олиб бориши ҳамда Эроннинг Европа мамлакатлари билан дўстона муносабатлари масаласига бурган, шу орқали ўз давлатининг ҳарбий қудратини кўрсатишга ҳаракат қилган. Эрон давлати ҳақидаги батафсил маълумотлардан таъсирланиб кетган хон ҳайратдан ёқа ушлаганлигини элчи алоҳида таъкидлаб ўтади.

---

[12]Огаҳий Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғи. Гулшани давлат ... - Б.180.
[13]Ўша жойда. - Б.38.
[14]Элчи «жаноб Нажмиддин Кубро ва Паҳлавон Маҳмуд Хоразмий шеърларидан бир нечтасини ёддан айтдим. Улардан нусха кучиртириб, атрофга олиб кетдилар» дея қайд этади. Қаранг: Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномайи Хоразм ... - Б.142.
[15] Ризоқулихон Ҳидоят. Сафоратномайи Хоразм ... - Б.147.
[16]Ўша жойда. - Б.150.

Ўз ўрнида, Хива хони Эроннинг заиф томонига урғу беришга ҳаракат қилиб, шоҳнинг ёшини сурар экан, 22 ёшли ҳукмдор ҳақида «бундан чиқди, Эрон подшоҳи ҳали ёш ва тажрибасиз хукмдор экан-да» деган фикрни билдиради. Элчи эса шоҳ ёш бўлишига қарамай, ҳар томонлама етук шахс, билимдон, айниқса, жуғрофий билимларда кучли эканлигини айтиб хонни яна ҳайратга солган[17].

Хақиқатан, элчининг дипломатик маҳорати музокараларнинг боришига, унда юзага келадиган турли ҳолатларга катта таъсир курсатган. Бу борада рус элчиси П. Никифоровнинг Хива хони Оллоқулихон билан олиб борган музокарасини мисол қилиб кўрсатиш мумкин. Элчининг Хива амалдорларига қилган қўпол муомаласи элчиликнинг натижасига салбий таъсир кўрсатган. Шунга қарамай, тан олиш керакки, Хива ва Россия уртасида тузилиши режалаштирилган тинчлик шартномасининг муҳокамаси жараёнида юзага келган вазиятни ўз фойдасига ҳал қилишга эришганлиги бевосита элчининг устомонлиги билан боғиқ эди. Хусусан, шартноманинг учинчи банди Хива хонининг даштдаги, яъни қозоқ уруғари орасидаги таъсир доирасининг чегараларини аниқлаб олиш масаласига қаратилган.

Хива хони қозоқларнинг Россия империясига тобелигини инкор этиш ва унинг Қозоқ даштига бўлган даъвосини йўққа чиқариш мақсадида ўзига ён босадиган эътиборли қозоқ сардорларини саройга таклиф этган. Улар рус элчисига ўзларини рус фуқароси деб ҳисобламасликларини шахсан тасдиқлашлари лозим эди. Қозоқ вакиллари Россия деярли ҳар йили қўшин юбориб талон-торож қилиш орқали уларнинг ерларини олиб қўйишлигини билдириб, «агар қозоқлар уларнинг тобелигида бўлса, рус ҳукумати бундай йўл тутмас эди» деб жавоб беришган. Шунингдек улар қозоқлар «мусулмон бўлганликлари учун ҳам ҳеч қачон насроний давлатнинг тобелигига кириши мумкин эмаслиги»ни уқтиришган. Айнан мана шу «нозик вазият»да П. Никифоров ўзининг дипломатик маҳоратини ишга солиб, қозоқ султонлари билан Хива хони ўртасидаги муносабатга рахна солишга муваффақ бўлган. Қозоқ сардорларига мурожаат этар экан, рус элчиси уларнинг иззат нафсига тегиш мақсадида «эй султонлар, бугун сизларни қулдай хўрлаб, ўзининг ноқонуний талаблари фойдасига шармандали қасамхўрлик учун чақиртирган хон ўтирган Хива тахтида сизларнинг аждодларингиз ўтирганини ёдга олинг» деб уларни хонга қарши қайрайди[18]. Тадқиқотчи Н. Залесов қайд этганидек бу мажлис хоннинг қозоқ сардорлари билан муносабатларига жиддий зарар етказган эдики, уларнинг аксарияти П. Никифоров билан яқинлашиш ва рус

[17]Ўша жойда. - Б.128 - 129.
[18] Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841 г.... - С.76 - 77.

хукуматининг марҳаматига эришишга интилган эдилар[19].

Элчининг шахси музокара жараёнида муҳим аҳамиятга эга булиши билан бирга яна бир қанча омиллар бор эдики, элчилик натижаларига ҳамда умумий вазиятга бевосита таъсир курсатган. Жумладан, Муҳаммад Алихон бошчилигидаги элчилик муваффақиятсизлигининг бош сабаби, унинг ўзи таъкидлаб ўтганидек Англия ва Россия давлатлари вакилларининг у билан бирга келганликларида эди. Элчининг ахборотномасида қайд этилишича, хон охирги учрашувда Эрон элчисига танбеҳ бераркан, хафа бўлиб «Жамшид мартабали подшоҳ ҳамиша ўз одамини юборардилар, бу гал нима сабаб булиб рус ва инглиздан одам қўшиб юборибдилар? Сен узинг келаверганингда мақсадга мувофиқ буларди. Мана энди асир берсам, дўсту душман «хон ҳазрат рус ва инглиздан қўрққанидан асир берди» деб устимдан куладилар» деган фикрни билдирган[20].

Ризоқулихон элчилиги даврида эса сиёсий устунлик Хива хонлиги томонида булиб, хон кушинининг Хуросон юришидан катта улжа ва асирлар билан зафар кучиб қайтиши вазиятни Хоразм фойдасига ҳал қилган.

Хонни юришдан қайтишини кутиб турган Эрон элчиси юзага келган вазият ва унинг элчилик ҳолатига курсатадиган таъсирига баҳо бераркан, «Сарахс ва Тажан тарафидан олиб келинган асирларни куча ва бозорларда айлантириб, қизилбош лашкарларининг мағубияти хабарини бутун мамлакатга жар солиб етказдилар. Шу сабабли элчилигимиз иши ланж булди ва шон-шавкатимизга путур етди. Шунингучун вақт нимани талаб қилса, сўз ва ишда шунга қараб амал қиладиган булдим», - деб қайд этади»[21].

[19] Ўша жойда. - С.77.
[20] Муҳаммад Алихон Ғафур. Хоразм сафари кундалиги ... - Б.3б.
[21] Ризокулихон Ҳидоят**.** Сафоратномайи Хоразм ... - Б.123.

# ИЗУЧЕНИЕ ОБУЧЕНИЯ ЧТЕНИЮ УЧАЩИХСЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

**Хасанова Хилола Муталибжановна**
учитель начальных классов школы № 22. г. Фергана
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256290

**Аннотация:** Начальное образование – это базовое образование, целью которого является подготовка детей к приобретению компетенций, необходимых для дальнейшего продвижения и внесения достойного вклада в жизнь общества, которое постоянно претерпевает изменения. Для достижения этой цели учителя должны идти в ногу с текущим мышлением и участвовать в обучении, которое улучшит процесс преподавания и обучения.

**Ключевые слова:** чтение, обучение чтению, навык чтения, механизмы чтения, методы обучения грамоте.

Чтение является важным аспектом развития грамотности детей в первые годы обучения. Исследования показали, что если детям не дать прочную основу основ чтения на ранних этапах, вполне вероятно, что они не смогут читать на более поздних этапах. [1].

Чтение — это осмысленная интерпретация визуальных или графических символов. Чтение является одним из важных аспектов, необходимых для развития грамотности в дошкольном образовании и обучения на протяжении всей жизни для всех учащихся. Это основа для продолжения образования, а также помогает в приобретении дополнительных знаний и навыков. Это означает, что чтение является основой академического успеха в рамках учебной программы, поскольку одной из целей образования является обеспечение того, чтобы учащиеся могли читать и писать. Дьячкова Е. В., утверждает, что неспособность общаться и эффективно учиться посредством чтения и письма затрудняет обучение и влияет на успеваемость человека.

Действительно, чтение играет важную роль в процессе обучения, и если детей не учат читать в младших классах начальной школы, у них могут возникнуть проблемы с чтением, когда они достигнут других уровней образования. Это приведет к тому, что они не смогут понять концепции, компетенции и новые знания в процессе обучения, следовательно, не смогут добиться успеха в школьной жизни. Дополнительные исследования показали, что в младших классах начальной школы плохо учат чтению, например, отчет ЮНЕСКО об определении навыков чтения детей во всем мире, опубликованный в 2020 году, показывает, что примерно 250 миллионов

учащихся не смогли овладеть навыками чтения, потому что навыки чтения были низкими. еще низкий. Статистические данные, представленные ЮНЕСКО в 2017 г., показали, что 65% населения стран к югу от Сахары не умеют читать.

Выготский утверждает, что для изучения того, как обучают чтению в младших классах начальной школы, исследование должно принять социокультурную теорию, поскольку оно направлено на то, чтобы связать социокультурные аспекты детей с их обучением. Учителя должны учитывать как окружение ребенка, так и стимулы во время обучения. Социокультурная теория утверждает, что психическая деятельность человека формируется благодаря взаимодействиям личности с окружающим миром. В нем подчеркивается, что обучение должно происходить в обществе и культуре учащегося. Редозубов, С. П. утверждеют, что когда дети учатся в знакомой среде, происходит свободное взаимодействие, следовательно, приобретаются знания, которые позже усваиваются и усваиваются. Кроме того, если учащиеся свободно взаимодействуют с более опытными сверстниками и взрослыми, они могут столкнуться с небольшими трудностями при выполнении своих задач, потому что у них всегда есть возможность обратиться за помощью к опытному партнеру, а позже они могут выполнить задание самостоятельно.

В целях обучения чтению Дьячкова, Е. В., цитируемом Гафаром Самаром и Дехканом, утверждает, что учителя должны помогать учащимся, достигшим зоны ближайшего развития, при изучении новых навыков и понятий, и этот процесс называется созданием лесов. Чтобы подчеркнуть,, что строительные леса - это временная помощь, которую учащийся ищет у эксперта для самостоятельного выполнения задачи. Это помогает учителям планировать деятельность в среде учащегося и надлежащим образом помогать учащимся. Следовательно, строительные леса важны при обучении чтению, потому что это потребует от учителя обучения различным звукам, а затем поможет учащимся соединить эти звуки, чтобы сформировать значимые слова, фразы и предложения, которые они могут читать независимо.

Кроме того, он помогает учителям ценить и признавать предыдущие знания детей во время обучения и обучения чтению. До поступления в школу дети взаимодействуют с окружающей средой, в которой они получают знания. Это означает, что учителя не должны воспринимать учащихся как черную доску, а должны развивать уже имеющиеся у них знания и исправлять их в случае каких-либо неправильных представлений. Так, учителя должны позволять учащимся создавать новые знания и концепции, используя ранее полученные знания во время обучения чтению.

Развитие навыков грамотности в раннем возрасте может помочь учащимся добиться хороших результатов в школе и в жизни. Эти навыки, особенно

чтение, жизненно важны для академической успеваемости учащегося, поскольку чтение является необходимым аспектом для глубокого понимания содержания. Однако исследования показывают, что многие эксперты выступали за различные методы обучения чтению учащихся младших классов. В 1930-х и 1940-х годах учителя использовали метод «посмотри и скажи», который подчеркивал смысловое чтение, а в 1960-х и 1970-х годах чтение было направлено на развитие навыков декодирования и кодирования, поэтому учителям приходилось использовать фонетический подход. Принимая во внимание, что в начале 1980-х годов учителя использовали целостный языковой подход, который также подчеркивал значение чтения для его значения, расширили подход, основанный на полном слове, и выступали за интеграцию языковых навыков (чтение, говорение, письмо и аудирование) с верой в то, что воздействие окружающей среды на детей естественно облегчит их обучение.

В последние годы учителя начали интегрировать четыре языковых навыка во все области обучения в учебной программе. Таким образом, все предметы связаны концептуальными темами в процессе преподавания и обучения, в котором задействовано чтение. Учащихся учат на основе их опыта, и им разрешается строить знания, используя свои предыдущие знания, связывая текущие идеи с тем, что они уже знают. Роль учителя состоит в том, чтобы поддерживать учащихся, опираясь на их собственный опыт, используя при этом предшествующие знания, чтобы осмыслить то, что они читают, тем самым способствуя чтению среди учащихся младших классов начальной школы. Например, детям, живущим в сельской местности, рекомендуется читать истории об окружающей их среде, чтобы связать то, что они узнают, со своим собственным опытом. Благодаря своему опыту дети учатся в реальном мире, что позволяет им понять свою культуру и самобытность, потому что они ссылаются на самих себя и в большинстве случаев говорят на своем знакомом языке, что способствует обучению.

**Литература:**

1. Дьячкова, Е. В. Система работы с книжкойигрушкой как средство формирования интереса к чтению [Текст] : автореферат дис. … к-та пед. наук / Е. В. Дьячкова. – М., 1993. – С. 36.

2. Редозубов, С. П. Методика обучения чтению и письму в начальной школе [Текст] / С. П. Редозубов. – М. : Изд-во АПН. – 1961. – 428 с.

# ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШГА ҚЎЙИЛГАН ТАЛАБ ВА ЯНГИЧА ЁНДОШУВЛАР

**Саъдуллаева Фазилат Ражаббоевна**
Хоразм вилояти, Қўшкўпир тумани 43-сонли
мактабнинг тарих фани ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256292

**Аннотация:** Ушбу мақолада бугунги кунда тарих фанига қўйилаётган замонавий талаблари ва янгича ёндошувлар тўғрисидаги фикр ва мулоҳазалар келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** Дарс, тарих, методика, таълим, сифат, мактаб, келажак, тарбия, концепция.

Дарс ўқув жараёнининг асосий бўғини сифатида ёшларга фан асосларини ўргатишда муҳим ўрин тутади. Тарих дарсига қўйиладиган дидактик талаблар бу - илмийлик, тарихийлик, методологик, кўрсатмалилик, ўқувчиларни билиш имконияти ва ёш психологик хусусиятлари, узвийлик ва узликсизлик, тарихни замон ва макон контекстида боғлаш, таълим ва тарбия мақсадига эга эканлигидир.

Ҳар бир дарсга тайёрланишда ДТС ва ўқув дастурининг уқтириш хатидаги кўрсатмалар назарда тутилади. Дарсни тайёрлаш ва ўтказишда ўқитувчининг ўз предмети бўйича ўқув дастурининг ҳар бир мавзусига тайёрланиши, ҳар бир дарсга тайёрланишини талаб қилади.

Тарих фанини ўрганишдан мақсад тарихни билмасдан туриб, келажакка қадам ташлаб бўлмаслигини ёш авлодга уқтиришдир. Шуни инобатга олган ҳолда, тарих фанини ривожлантириш концкпцияси ишлаб чиқилди. Концепция президент Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йил 19 январ куни республика Маънавият ва маърифат кенгашининг видеоселектор тарзида ўтказилган мажлиси 3-баёни 27-банди ижросини таъминлаш мақсадида ишлаб чиқилди.

Концепция яратиш зарурияти жаҳонда тарих фанининг ривожланиши, янги тарихий билимларнинг ортиши, ўтмишдаги воқеаларга жамоатчилик қизиқиши кучайгани ҳамда чуқур билим ва кўникмаларга эга, ижодий ва тизимли фикрлайдиган тарихчи мутахассислар, ўқитувчи ва илмий ходимлар янги авлодини чиқариш, олинган илмий натижаларни таълим-тарбия, тарғибот-ташвиқот ишларида таъсирчан қўллаш, жамиятда миллий ўзликни англаш ҳиссини мустаҳкамлашда хизмат қиладиган тарихий тафаккурни тарбиялаш билан боғлиқ экани айтилади.

Концепция мазмуни Ўзбекистонда тарих фани соҳаси жорий ҳолатининг танқидий таҳлили ва мавжуд муаммолар, илм-фанни ривожлантириш, таълим-тарбия тизими, ахборот макони билан узвий боғлиқлигини самарали йўлга қўйиш талабларидан келиб чиқиб, илғор миллий ва жаҳон тажрибасини инобатга олган ҳолда, бош мақсади, вазифалари ва устувор йўналишларини белгилаб олишдан иборатдир.

Концепция қабул қилиниши натижасида тарих фани соҳасини ривожлантириш бутунлай янгича асосда ва тизимли равишда амалга оширилади, жараённи самарали бошқариш имкони туғилади. Илмий фаолиятни мақсадга мувофиқ йўлга қўйиш, катта молиявий харажатлардан муайян самара олиш мумкин бўлади.

Шунингдек, ўзбек халқи ва давлатчилиги тарихи бўйича бутунлай янгича, миллий манфаатларга мос илмий ёндашувлар асосидаги туркум асарлар тайёрланади. Чуқур билимга эга, ижодий ва тизимли фикрлайдиган илмий ходимлар авлоди шаклланади. Олий таълимда тарихчи мутахассислар тайёрлашнинг бутунлай янгича, илмий муассасалар билан узвий боғланган тизими яратилади. Тарих йўналишидаги илмий ходимлар, профессор-ўқитувчиларни моддий ва маънавий рағбатлантириш даражаси юксалади. Қадим, бой ва ноёб тарихий меросни миллий ва хорижий даражада тарғиб этишнинг янгича ва самарали тизими яратилади. Таъкидланишича, концепцияни амалга ошириш бўйича сарф-харажатлар давлат бюджети ҳисобидан қопланиши назарда тутилмоқда.

Тарих ўқитишда кўргазмали воситалар тарихий билимларнинг ўқувчилар онгига етказиш ва сингдиришда муҳим манба ҳисобланади. Кўргазмалилик энг аввало ўқитиш ва ўрганишнинг кўргазмали усули, ўқитувчи баёнининг кўргазмали бўлиши, унинг ўқувчилардаги тайёр образларга суяна билиши, ўқув материалини баён қилиш вақтида кўргазмали қуроллардан фойдаланиш ва кўргазмали қуроллар воситасида ўқувчиларнинг билиш фаолиятини жадаллаштириш хамда уларнинг ўрганилаётган тарихий жараёнларни, воқеа ва ҳодисаларни айнан ўзини ёки уларнинг тасвирларини куриш ёрдамида ўрганишлари тушунилади.

Тарихий хужжатлар ва бадиий адабиётлардан фойдаланиш ўқитувчи баёнини образли қилиб конкретлаштирса, кўргазмали қуроллар воситасида ўқувчиларда ўтмиш туғрисида ёркин ва аниқ тасаввур ҳосил бўлади, ўқувчиларнинг эшитиш фаолиятига куриш ва сезиш органларининг фаолияти ҳам қушилади. Шу билан уларнинг билими янада чуқурлашади ва мустахкамланади. Кўргазмали қуроллар ўқувчиларнинг билим олишида муҳим манба бўлиб хизмат қилади ҳамда ўқувчиларнинг тарихий

тасаввурларига аниқлик киритади ва бу тасаввурларни конкретлаштиришга ёрдам беради.

Кўргазмали куролар ўқувчиларнинг мураккаб тарихий ходисаларнинг, тарихий тушунчаларни маъносини осонроқ тушунишга ёрдам беради. Тарих ўқитишда қулланиладиган кўргазмали қуроллар ўзининг мазмуни, тарихий образларининг характери, уларни тайёрланиш ва фойдаланиш усулларига қараб қуйидаги турларга бўлинади:

1. Буюм кўрсатмалилиқ тарихий ёдгорликлар, эсдалик жойлари; архитектура ёдгорликлари, ҳужаликка доир ва бошқа курилишлар; меҳнат қуроллари; курол-яроглар, рўзғор буюмлари, шу жумладан археологик топилмалар.

2. Тасвирий кўргазмалар; ўқитишда фоидаланиш учун ишланган тарихий картиналар ва альбомлар, санъат асарлари, портретлар, расмлар, фотохужжатлар ва фотосуратлар, дарсликлардаги иллюстрациялар, ўқув диапозитивлари, диафильмлар ва кинофильмлар, макетлар, муляжлар, ҳар- хил моделлар, мультимедиалар, интернет материаллари ва бошқалар.

3. Шартли курсатмали куроллар. Тарихий ва контур карталар, тарихий атласлар, схемалар, графика, диаграмма ва картограммалар, аппликациялар ва педагогик расмлар. Буюм курсатмалилик таълимда алохида касб этади. Физика, химия ёки ботаника ўқитувчилари ўрганилаётган мавзуни ўқувчиларга формула, шакл ва бошқаларда кўрсатиб тушунтирсалар тарих ўқитувчиси ундай имкониятлардан маҳрумдир.

Тарих ўқитувчиси уқувчиларга ибтидоий одамлар ҳаёти ва фаолиятининг айнан ўзини кўрсатиб бера олмайди, фақат гапириб беради, курсатса фақат ибтидоий кишилар ишлатган қуролларни, яшаган жойларини, ёки айтайлиқ ўрта асрлардаги хукмдорларни ўзаро урушларини эмас, урушда ишлатилган қуролларни ва бошка баъзи бир буюмларни, айрим саркардалар бошлиқ аскарларнинг жангларда кўрсатган жасорат ва қахрамонликларини эмас, балки улар тўғрисидаги рассомлар чизган айрим расм- картиналарни кўрсатиш мумкин, холос, лекин дар ҳолда кишилар ўтмишидан қолган бу ёдгорликларни тарихий воқеалар туғрисида реал тасаввур килишга сўзсиз ёрдам беради.

Ўқувчилар орадан бир неча асрлар, хатто неча-неча минг йиллар ўтиб кетган замондаги воқеалар тўғрисида маълумот берувчи ҳақиқий буюм ва нарсаларни жуда қизиқиш ва хаяжон билан ўрганадилар. Шунинг учун хам мактабда тарихий утмишни ўрганишнинг асосий манбаларидан бири булган бу ёдгорликларни туплаш ва улардан фойдаланишга жуда катта эътибор берилади.

Тасвирий кўргазмали қуроллар мактаб тажрибасида ҳаммадан куп қулланилди. Тасвирий кўргазмалар бир неча хил бўлади; а) ўтмишдан қолган

хақиқий асл нусха хужжатлар асосида яратилган тасвирий кўргазмалар; ҳужжатли фотосуратлар ва хужжатли кинофильмлар, предмет ёдгорликларининг тасвирлари, меҳнат қуроллари, маданий ёдгорликларининг тасвирлари ва шу кабилар; б) илмий жихатдан асослаб таъмир қилинган архитектура ва бошқа ёдгорликлар тасвири, рўзғор буюмлари ёки улар тасвири; в) рассомнинг ижодий фаолияти билан қилинган тасвирий кўргазмалар; тарихий санъат асарлари дарсда берилган иллюстрациялар, макетлар, моделлар ва бошқалар.

Кўргазмали курольларни танлаш ва улардан фойдаланишда ўқитувчи қуйидагиларни эътиборга олиши лозим:

1.Ўқувчиларнинг ёши, билими ва малака ўсиб борган сари уларнинг предмет ва тасвирий кургазмаларга қизикиши ортиб боради. Масалан, I-IV чи синф ўқувчиларнинг кўпроқ ўтмишдаги воқеа ва ҳодисаларнинг яхлит манзаралар тасвирланган, макетлари ва моделлари қизиқтиради. Юқори синфдаги ўқувчиларни эса предмет ёдгорликларининг айнан ўзи ва шартли кўрсатмалар қизиқтиради.

2. Хар бир дарс учун танланган кўргазмали қурол мазмуни, ғоявийлиги, илмийлиги жихатдан талабга жавоб берадиган бўлиши, синф ўқувчиларига мос бўлиши, сони купайтириб юборилмаслиги лозим. Агарда кўргазмали қуроллар купайиб кетса, ўқитувчи ва ўқувчилар шу қуроллар билан овора булиб крлиб, ўқувчиларнинг дарс материалини ўзлаштиришига халақит бериши мумкин.

Дарсда энг мухим 2-3 та кўргазмали қуролни таҳлил қилиш ва ўрганиш кифоя.

3. Ўқувчиларнинг кўргазмали қурольларни онгли равишда пухта ўзлаштириб олишларига эришиш керак.

4. Кўргазмали қуроллар ўқитувчининг баёни жараёнида кўрсатиб борилади.

Хуллас, биз тарихчиларнинг вазифаси бугунги ёш авлодга ўз тарихини чуқур ўргатиб, ватанга содиқ, мард-олижаноб инсонларни тарбиялашдир.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Муратова Г. И. Тарих фанини ўқитишнинг кўргазмали методлари ва улардан фойдаланиш йўллари. Педагогические науки. Наука XXI века № 10. 2018.

2. Бабанский Ю.К. «Ҳозирги замон умумий таълим мактабларида ўқитиш методлари» Тошкент. «Ўзбекистон», 1990.

3. Саъдиев А. Мактабда тарих ўқитиш методикаси Тошкент. «Ўқитувчи», 1988

4. Саъдиев А. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитиш Тошкент. «Ўқитувчи», 1993 6. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури Тошкент. «Шарқ», 1999 и. 2-сон

5. Т.Тошпулатов, Я.Ғаффоров Тарих ўқитиш методикаси Тошкент. «Университет», 2002.

6. Курбонов Ш. ва бопщалар «Баркамол авлод орзуси» Тошкент. «Шарк», 1998.

# MENEJMENT TA'LIMI TARIXI

**Hakimov T.**
Qo‘qon DPI magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256298

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada menejmet ta’limi tarixi, uning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.
**Kalit so‘zlar:** Menejment, menejer, funksiya, rejalashtirish.
**Аннотация:** В данной статье рассматривается история управленческого образования, его истоки и этапы развития.
**Ключевые слова:** Менеджмент, менеджер, функция, планирование.

So‘nggi o‘n yillikda mamlakatimiz hayotida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar ta’sirida ro‘y berayotgan jadal o‘zgarishlar jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ta'lim sohasida sodir bo'layotgan jarayonlarni o'rganishning dolzarbligi ortib bormoqda, chunki jamiyat bilim asosiy ijtimoiy qadriyat bo'lgan axborot jamiyatiga o'tish yuqori intellektli shaxs rolini oshirishga olib kelishini tushunadi. nafaqat ilgari to‘plangan ilmiy bilimlarni idrok etish, balki ilg‘or axborot texnologiyalari, xizmatlar va mahsulotlar ko‘rinishida umumlashtirish, tahlil qilish, yangi narsalarni yaratishga qodir.

Menejment so‘zi italyancha maneggiare so'zidan kelib chiqqan bo'lib, asboblar bilan ishlov berishni anglatadi. Manage so'zi lotincha manus so'zidan olingan. Menejment oilaviy tadbir, sport tadbiri yoki biznesni boshqarish bo'ladimi, barcha turdagi faoliyatda ishtirok etadi. Bunday faoliyatning murakkabligi ham kundan-kunga ortib bormoqda, shuning uchun menejment intizomi doimiy ravishda muammolarning yangi echimlarini izlamoqda. Natijada u asrlar davomida doimiy ravishda paydo bo'ladi. Menejment kontseptsiyasi XVII-XIX- asrlarda sodir bo'ldi. Bu asrlardagi sanoat inqilobi asr natijasida menejmentga ko'plab yondashuvlar paydo bo'ldi. Sanoat inqilobi paydo bo'lishidan oldin egalar o'z bizneslarini saqlab qolishgan, shuning uchun tranzaktsiyani tizimli qayd etish ko'p bo'lmagan. Sanoat inqilobi korxonalarni o'sishiga olib keldi va mulk ham individualdan aktsiyadorlarga, guruhlarga o'zgardi. Biznesni boshqarish uchun biznes faoliyatini boshqarish uchun turli xil menejerlar iyerarxiyasi paydo bo'ladi. Bu menejerlar uchun rasmiy o'qitish institutlarining rivojlanishiga olib keldi. Ko'pgina ta'lim muassasalarida menejment bo'yicha kurslar ochiladi.

Menejment resurslarni foydalilikka aylantirish jarayonidir. Menejment beshta asosiy funktsiyani o'z ichiga oladi: rejalashtirish, yo'naltirish, tashkil etish, xodimlarni boshqarish, boshqarish, nazorat qilish. Menejment - bu korxona yoki biron bir

muassasa muvaffaqiyatiga hissa qo'shish uchun korxonaning inson kapitalidan foydalanish jarayoni.

Menejment tushunchasi ming yillar davomida mavjud. Menejerlarning kuchli va zaif tomonlari tushunchasi miloddan avvalgi VI asrda xitoylik general Sun Tzu tomonidan "Urush san'ati" asari qo'llanilgan.

Miloddan avvalgi 3000-yillarda yozilgan Chanakya tomonidan yozilgan Arthashastra boshqaruvning eng yaxshi amaliyotlari haqida gapiradi. 1776-yilda Adam Smitning "Xalqlar boyligi" asarida mehnat taqsimoti orqali samarali tashkiliy ishlarni tushuntiradi.

XIX asrda resurslarni taqsimlash, ishlab chiqarish va narxlarni belgilash kabi ko'plab boshqaruv nazariyalari ishlab chiqildi. Standartlashtirish, sifat nazorati, xarajatlarni hisobga olish kabi texnik ishlab chiqarish ham rivojlandi. XIX asr oxirida yirik korporatsiyalarda maoshli menejerlar mavjud edi.

Olimlar menejmentda psixologiya, ishlab chiqarish, sotsiologiya kabi boshqa oqimlar tamoyilini qo'llashga harakat qildilar. Garvard Business School 1921 yilda Biznesni boshqarish bo'yicha birinchi magistr darajasini taklif qildi. XX asrning oxirlarida biznes boshqaruvi alohida bo'limlarga ega bo'lgan ixtisoslashgan oqimlardan biriga aylandi, xususan, Inson resurslarini boshqarish, operatsion boshqaruv, strategik menejment, Marketing, Moliyaviy menejment, axborot texnologiyalari boshqaruv kabilardir.

XXI asrda menejment nazariyasi asosiy fanlarning bir qismiga aylandi. Boshqaruv tushunchalari nodavlat notijorat tashkilotlari, davlat va ta'lim muassasalarida qo'llaniladi.

Birinchi muhim biznes maktablarining tarixi quyidagicha:

1819 -yil ESCP Europe ( Ecole Supérieure de Commerce de Paris ) Parijda ( Fransiya ) tashkil etilgan dunyodagi birinchi biznes maktabi;

1855 yil - Anvers oliy savdo instituti va Sen-Ignace instituti;

1857 yil - Avstriya imperiyasida Budapesht biznes maktabi tashkil etildi . Markaziy Yevropadagi birinchi biznes maktabi.

1871 yil - Ruen biznes maktabi

1881 yil - Pensilvaniya universitetining Uorton maktabi Qo'shma Shtatlardagi birinchi biznes maktabidir.

1898 yil - Sankt-Gallen universiteti Shveytsariyada biznes va iqtisodiyotni o'rgatuvchi birinchi universitetni tashkil etdi. Eng qadimgi frantsuz biznes maktablaridan biri.

1900 - Qo'shma Shtatlardagi birinchi biznes maktabi , Dartmut kollejidagi Tak biznes maktabi ,

1902 yil - Birmingem biznes maktabi Buyuk Britaniyaning birinchi biznes maktabidir.

1908 yil - Garvard universitetida Garvard biznes maktabi tashkil etildi. Bu 1921 yilda biznes boshqaruvi magistri darajasini taklif qilgan dunyodagi birinchi dastur edi.

1909 yil - Charlz X. Dayson Amaliy iqtisodiyot va menejment maktabi Ular bakalavriat biznes dasturiga asos solgan.

1946 yil - Thunderbird Global Menejment maktabi , keyinchalik Amerika tashqi savdo instituti deb ataladi, u faqat global biznesga qaratilgan.

1949 yil - Janubiy Afrikadagi Pretoriya universiteti Afrikadagi eng qadimgi biznes maktabiga asos soldi.

1949 yil - XLRI - Hindistonning eng qadimgi biznes boshqaruv maktabiga asos solingan

1954 yil- Menejment fanlari fakulteti (FMS), Dehli universiteti Hindistondagi eng qadimgi biznes maktablaridan biri hisoblanadi.

1955 yil - Karachi biznes boshqaruvi instituti Shimoliy Amerikadan tashqarida MBA darajasini taklif qilish uchun tashkil etilgan birinchi biznes maktabi edi.

1991 yil - IEDC-Bled boshqaruv maktabi Sharqiy Evropada MBA dasturini taklif qilgan birinchi biznes maktabi edi.

1994 yil - CEIBS (China Europe International Business School) Xitoyda chet el hukumati, ya'ni Yevropa Komissiyasi tomonidan moliyalashtirilgan birinchi biznes maktabi bo'ldi.

Biznes maktablari dastlab Yevropada, keyin Amerika va Osiyoda tashkil etilgan. XLRI va FMS Hindistonning eski boshqaruv institutlaridir.

Menejment nazariyasining rivojlanishiga hissa qo'shgan muhim shaxslar quyidagilardir

1856 – 1915 yillar: Fredrik Uinslou Teylor (Ilmiy menejmentning otasi) - sanoat samaradorligini oshiruvchi ishlarni loyihalash. U ilmiy boshqaruv tamoyilining muallifi.

1864-1920: Maks Weber - Boshqaruv tashkiloti va tuzilishi. U boshqaruvning byurokratik nazariyasini ishlab chiqdi.

1880-1949: Elton Mayo- Hawthorne tadqiqotlari. U, shuningdek, Garvard professori bo'lgan, menejerlarga odamlarga yo'naltirilgan bo'lishlarini tavsiya qilgan.

1844 - 1924: Genri R. Taun menejmentni alohida o'rganish va o'rganish zarurligiga urg‘u berdi. U birinchi bo'lib muhandislar uchun yangi ijtimoiy rolni o'ylab topdi va muhandislar uchun boshqaruv texnikasining ahamiyatini tushundi.

Ishlab chiqilgan muhim boshqaruv nazariyalari: Fridrix Teylorning “Ilmiy menejment”, Teylorning “Menejmentning to‘rt tamoyili”, Herial Fayolning “Umumiy boshqaruv nazariyasi” va “Ideal byurokratiya” Veber.

Menejmentni o'rganish har qanday turdagi yoki tashkilot uchun vaqt talabi tufayli juda mashhur bo'ldi. Globallashuv va turli darajadagi ierarxiyaga bo'lgan

ehtiyoj tufayli yirik tashkilotlarda menejment bo'yicha bilim va tajribaga ega bo'lgan menejerlar uchun imkoniyatlar yaratildi. Hozirgi vaqtda turli ta'lim muassasalarida menejment bo'yicha ko'plab kurslar mavjud.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Akkroyd P. va Ackroyd S. (1999) Britaniyada universitetlarni boshqarish muammolari. Ko'proq javobgarlik yechimmi? Davlat sektorini boshqarish xalqaro jurnali Vol. 12, No 2, 171 – 185-betlar

2.Ackroyd S., Kirkpatrick I. va Walker RM (2007) Davlat boshqaruvi r .ichida eform Buyuk Britaniya va uning mutaxassislar uchun oqibatlarsional tashkilot: qiyosiy tahlil . Davlat boshqaruvi Vol. 85, №1, 9-26-betla

3.Authrstream . (nd). 2014-yil 31-mart, www.authrstream saytidan olindi: http://www.authorstream.com/presentation/bhavin2750-1324264-the-development-of-management-theory/

4.Vikipediya . (2014 yil, 31 mart). 2014-yil 31-mart, Wikipedia.org saytidan olindi: http://en.wikipedia.org/wiki.Business_school

# ТАРМОҚ ТРАФИГИДАГИ ИНТСИДЕНТЛАРНИ ХОЛТ ВИНТЕРС УСУЛИДА АНИҚЛАШ

**Носиров Аъзам Тохир ўғли**
Мухаммад ал-Хоразмий номидаги
Тошкент Ахборот Технологиялари Уриверситети магистри
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256304

**Аннотация:** Қуйидаги мақолада компютер жиноятчилигини олдини олиш, хусусан тармоқ трафигидаги инцидентларни Холт Винтерс усулида аниқлаш келтирилган.

**Калит сўзи:** Тармоқ трафиги, Холт Винтерс усули.

Компютер жиноятчилиги – ғайриқонуний фаолият бўлиб, маълумотлар ресурслари билан боғлиқ, бунда компютер ёки жиноят объекти, ёки жиноят субъекти хисобланади. Замонавий дунёда энг муҳим муаммолардан бири бу компютер жиноятчилигининг ривожланиб бориши муаммоси ҳисобланади. XX аср охири илмий-техник инқилоб ахборот технологияларидан кенг фойдаланишга олиб келди ва глобал Интернет орқали тарқатилган маълумотлардан келиб чиқиши билан боғлиқ. Биринчи шахсий компютерлар 1974 йилда бозорда пайдо бўлди. Қулай нарх, ихчамлик, фойдаланиш қулайлиги компютерни ажралмас ёрдамчига айлантирди. Шунингдек ёмон ниятли шахслар учун хам жиноий мақсадларга эришиш учун кўплаб имкониятлар пайдо бўлди. Компютер жиноятчилиги жиноятларнинг энг хавфли турларидан биридир. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг эътибори компютер жиноятчилигига йўналтирилганлиги асосан, уларнинг глобаллашуви ва интеграцияси билан боғлиқ. Жиноят объекти сифатида ахборот бир қатор ўзига хос хусусиятларга эга: юқори динамика, узлуксиз ишлаш, масофавий ишлаш имконияти ва катта ҳажмдаги маълумотларни тезда ўзгартириш ва доимий равишда ўчириш қобилияти. Охирги хусусият компютер жиноятларининг моҳиятини тушунишда калит ҳисобланади. Ахир, маълумотларга кириш ҳуқуқига эга бўлган кибержиноятчи жиноят объектининг хатти-ҳаракатларини манипуляция қилиш учун ўзига маълум бўлган барча воситалардан фойдаланиши мумкин. Интернет компютер жиноятларини тарқатиш воситаси сифатида алоҳида эътиборга лойиқдир. Шубҳасиз, Интернетнинг имкониятлари чексиздир. Ҳар бир инсон қизиқарли мақолани ўқиши, филм томоша қилиши, мусиқа тинглаши, керакли дастурни юклаб олиши ёки ижтимоий тармоқларда кезиши мумкин. Жамият Интернетга қарам бўлиб қолади ва усиз ўз ҳаётини тасаввур қила олмайди. Бу компютер

жиноятчилари томонидан осонлик билан фойдаланилади, айниқса машҳур бўлган объектларга барча турдаги фирибгар дастурларни киритади.

Ҳисоб-китобларнинг автоматлаштирилган тизимлари (биллинг тизимлари), шунингдек, алоқа операторларининг бундай тизимлари учун маълумотларни йиғиш воситалари (олдиндан ҳисоб-китоб қилиш, воситачилик қилиш) ҳар доим фирибгарлар, ўғирловчилар ва бошқа жиноий элементларнинг қизиқиш объекти бўлиб келган. Ҳисоб-китоб тизимидаги маълумотларни ўзгартириб, фирибгарлик, ўғрилик, катта миқдордаги маблағни ўғирлашни амалга оширишин мумкин. Бундай тизимларнинг мураккаблиги жуда юқори, ходимлар ва ҳатто корхона мижозлари бир вақтнинг ўзида уларга кириш имкониятига эга, шунинг учун маълумотларга кириш ва ўзгартириш учун ҳар доим етарли техник имкониятлар мавжуд. Ҳисоб-китоб маълумотлари билан фирибгарлик жуда кенг тарқалган. Бу шунчалик кенг тарқалганки, бундай суиистеъмоллик учун маблағларни ҳисобдан чиқариш стандартлари мавжуд. Бозорда бундай ҳаракатларни аниқлаш ва бостириш учун махсус дастурий маҳсулотлар мавжуд бўлиб, улар "фирибгарликни бошқариш тизимлари" деб аталади. Номнинг ўзи шуни кўрсатадики, бу фирибгарликнинг олдини олиш ҳақида эмас, балки фақат бундай фирибгарликдан йўқотишларни оқилона камайтириш ҳақида. Бундай жиноятларни тергов қилиш икки йўналишда махсус билим талаб қилади. Биринчидан, алоқа саноати бизнес соҳасида. Трафикни узатиш тартиби, унинг техник ташкил этилиши, операторлар ўртасидаги ўзаро ҳисоб-китоблар, тарифларнинг ўзига хос хусусиятлари - буларнинг барчаси махсус билим соҳасидир. Иккинчидан, IT соҳасидаги билим талаб этилади, чунки барча биллинг тизимлари компютер ахборот тизимлари бўлиб, уларга рухсатсиз киришни ташкил этиш тегишли махсус билимларнинг предмети ҳисобланади. Назарий жиҳатдан, бундай ҳолатлар бўлиши мумкин, аммо амалда улар жуда кам учрайди. Бундай фирибгарлик учун иккита одатий схема мавжуд. Биринчи ҳолда, алоқа операторининг ходими ўз мижози (ёки бир нечта мижозлар) билан шартнома тузади ва у ёки бу тарзда тақдим этилган хизматлар тўғрисидаги маълумотларни (ҳажм, вақт, тарифлар) ўзгартиради. Иккинчи ҳолда, фирибгарликдан бошқа алоқа оператори бўлиб, у тарифлар, трафик турлари ва бошқалар билан манипулятсия туфайли ноқонуний даромад ёки жамғарма олади. Бундай ҳолда, шикастланган операторнинг ходими билан тил бириктириш шарт эмас, гарчи бу мақсадга мувофиқдир. Баъзан бу фақат интероператор шартномаси шартларини бузишдир. Ва баъзида, бу трафикни узатишнинг муқобил усуллари ёрдамида тўлиқ қонуний харажатларни оптималлаштиришдир.

Тармоқ технологияларидан кенг фойдаланиш нафақат ахборот коммуникация кенгайишга олиб келади, шунингдек, янги таҳдидларнинг пайдо

бўлиши ва зарарли ҳужумлар ошишига сабаб бўлади. Тармоқ трафигини кузатиш ва таҳлил қилиш муаммосини ҳал қилиш бу таҳлил нуқтаи назаридан бир қатор муҳим жиҳатларни ўз ичига олади: турли хизматларга сўровлар комбинацияси, шунингдек маҳаллий тармоқ сегментлари ҳолатини таҳлил қилиш ва магистрал алоқа каналларини ўрганиш. Муаллифларнинг фикрига кўра, тармоқ трафигининг таҳлил қилиш энг долзарб сохалардан ҳисобланади. Ахборот хавфсизлиги инцидентларини кўрсатувчи объектларининг хулқ-атворини ва уларнинг тенденцияларини ўрганиш жуда мухим, чунки илмий-тадқиқот ва қисқа муддатли прогнозлаш усулларини мослаштириш учун алгоритмик аппарати ривожлантириш, қисқа давр билан боғлиқ, бу эса қисқа муддатли прогнозларни амалга ошириш ва ҳодисаларни аниқлашнинг аниқлигини оширишдан иборат. Бундан ташқари, бугунги кунда ҳам долзарб кўрсатилган муаммони ҳал этишда визуал воситалардан фойдаланиш бўйича услубий ва амалий йўналишни ривожлантириш ҳодисани бошқариш усулларини такомиллаштириш кенг қўлланилмоқда.

Тармоқ трафигининг гетероген табиати ва ностационар ўзгарувчанлиги, ахборот хавфсизлиги инцидентларининг тадқиқ қилинаётган параметрининг қисқа муддат ичида башорат қилиниш хусусияти мухим саналади. Бу холатда Холт-Винтерс методи энг муқобили хисобланади, чунки трендларни аниқлаш қисқа муддат олади ва бу маълумотлар кейинги башорат учун мухим манба бўла олади. Метод, вақт қатори худди базавий компонентлар йиғиндиси сифатида намоён бўлади. Яъни барча компонентлар вақт давомида ўзгаради деб фараз қилинади ва давр деб вақт қаторлари тушунилади. Бунда мавсумий компонент ўтган кузатилган давр учун қуйидагича изохланади: $c_{x+1-D}$

$$\hat{y}_{x+1}=a_x+ b_x+ c_{x+1-D}$$

$\hat{y}_{x+1}$ – кейинги давр учун башорат, x-айни дамдаги давр, $a_x$ – базавий компонент, $b_x$ – тренд, $c_x$ - мавсумий компонент, D - мавсум давомийлиги (даврда). Бошланғич компонент қийматини топиш қуйидаги формула орқали ариқланади:

$$a_0=\sum_{x=1}^{D}\frac{y_x}{D}$$

$$b_0=(\frac{y_{x+1}-y_1}{D}+\frac{y_{x+2}-y_2}{D}+\cdots+\frac{y_{D+D}-y_D}{D}$$

$y_x$ –айни дамдаги кузатилаётган параметр қиймати

$$a_x = \alpha(y_x-c_{x-D})+(1- \alpha)( a_{x-1}+b_{x-1}),$$

$$b_x = \beta (a_x-a_{x-1})+(1- \beta)b_{x-1},$$

$$c_x = \gamma (y_x-a_x)+(1- \gamma)c_{x-D}$$

α, β, γ, ни танлаш бўйича услубий кўрсатмалар мавжуд, мисол учун, қисқа вақт ичида башоратни мослаштириш имкониятини топиш учун, камида битта коеффициентни аниқлаш билан эришилади. Тадқиқот учун ушбу мақсад асосий

мақсадга мос келади, чунки γ мавсумийликни белгилайди ва β тренд йўналишини аниқлаш учун зарурдир, чунки бу компонент таркибий қисмлардан кўра секинроқ ўзгаради. Шу билан бирга, β шундай танлаш керакки, мавсумни катта қисмини ташқил этмаслиги лозим. Ҳодисани яъни инцидентни , аниқлаш учун қуйидагилар шакллантирилиш керак: олдинги қийматларни баҳолаш асосида прогноз қилинаётган тармоқ трафик кўрсаткичлари ва жорий қиймати билан солиштириш. Вақт оралиғидаги хатти-ҳаракатлардаги оғишмани ҳар ишончли интервал учун текшириш орқали ташкил этиш. Ишонч интервали таркибига кирувчи рухсат этиладиган компонентлар билан ифодаланади. Юқоридагиларга асосланиб, хулоса қилиб айтганда, тармоқ трафигининг турли хил параметр кузатувлари Ҳолт-Винтерс усулидан фойдаланиш, вақт сатрлари ва қисқа муддатли тенденцияларни аниқлаш имконини беради, ушбу усул инфраструктураси объектларининг параметрларини ўзгартириш учун ишлатилиши мумкин. Тавсия этилган ёндашуви олдиндан кузатилган қийматларни таққослаш учун жорий давр учун прогноз қийматлари бўлиб, таққослаш асосида амалга оширилади рухсат этилган қийматлар, чегаралари ҳар бир янги олинган қиймат учун аниқланади. Тармоқ трафигини таҳлил қилиш алгоритми қисқа муддатли прогнозлаш ва мониторинг натижасида турли хил инфратузилма тўпламлари ўртасида бир неча вақт қаторларини шакллантиради. Хар бир кузатилган қиймат ишонч интервали оралиғида мавжуд бўлмаса демак бундай маълумотга хавф деб қаралади. Ҳар бир янги қиймат маълумотлар базасига жойлаштирилишдан олдин, айни дамдаги прогноз қилинган ва рухсат этилган хатолик билан солиштирилади Агар қиймат мос келмаса, унда спам хисоблагичи кўтарилади. Бундай холатда инцидент аниқланади. Ва яна башорат қилинаётган қиймат ва ишонч интервали хисобланади.

**Адабиётлар рўйхати:**

**1.** Форензика Компбтерная криминалистика

**2.** С.Ю. Исхаков, А.Ю.Исхаков, А.А.Шелупанов “Алгоритм применения краткосрочного прогнозирования для выявления инцидентов информационной безопасности посредством анализа сетевого трафика.”

# ИЗУЧЕНИЕ ПРОЦЕССА КРИСТАЛЛИЗАЦИИ МОНОКАЛЬЦИЙФОСФАТА И КРАТНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МАТОЧНОГО РАСТВОРА

**Меликулова Г.Э, Мирзакулов Х.Ч.**
**Шаймарданова М.А, Тожиев Р.Р, Сейтназаров А.Р.**
Ташкентский химико-технологических институт
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256310

Мировой ассортимент основных минеральных подкормок насчитывает более 10 наименований. Широкое применение в животноводстве, птицеводстве, рыбоводстве получили фосфорсодержащие минеральные подкормки на основе фосфатов кальция, натрия, аммония и других химических компонентов [1, 2]. Наиболее ценными являются кальциевые фосфаты [3]. В кормах, где имеется значительное количество кальция и недостаточно фосфора, используют фосфорнонатриевые добавки. Для восполнения недостатка протеина в рационах крупного рогатого скота и овец используются небелковые азотсодержащие соединения – фосфаты аммония [4]. Современные индустриальные способы производства животноводческой продукции, характеризуются широким использованием минеральных кормовых добавок, которые способствуют увеличению продуктивности, сохранности поголовья и сокращения расходов на корма [5].

Фосфорные соли более высокой квалификации получают нейтрализацией глубоко очищенной термической фосфорной кислоты до соответствующих марок «ч», «чда», «хч» соответствующими карбонатами или гидроокисями металлов [6]. Химизм получения монокальцийфосфата, дикальцийфосфата и их смесей можно представить следующими уравнениями реакций:

$CaCO_3 + 2H_3PO_4 \rightarrow Ca(H_2PO_4)_2 \cdot H_2O + CO_2$

$CaCO_3 + H_3PO_4 \rightarrow CaHPO_4 + CO_2 + H_2O$

С целью установление оптимальных технологических параметров и показателей процесса кристаллизации и фильтрации, а также для повышение максимального выхода $P_2O_5$ в конечный продукт и повторного использование маточного раствора для создание циклического способа исследовали процесс кристаллизации и фильтрации монокальцийфосфатного сумпензии, полученного разложением карбоната кальция обесфторенной и обессульфаченной ЭФК из фосфоритов ЦК, предварительно упаренной до содержания 40-55% $P_2O_5$ при ее норме 300-500% от стехиометрии на образование монокальцийфосфата.

ЭФК предварительно очищали от сульфатов и фтора, используя фосконцентрат и соли натрия – карбонат и метасиликат. Очищенная кислота имела состав (масс. %): $P_2O_5$ - 17,02; $SO_4$ - 0,23; CaO - 1,58; MgO - 0,49; $Fe_2O_3$ - 0,25; $Al_2O_3$ - 0,38; F - 0,30. В качестве кальцийсодержащего сырья использовали природный известняк Кутарминского месторождения, содержащий (масс. %): CaO - 54,88; MgO - 0,47; $SiO_2$ - 0,49; $Fe_2O_3$ - 0,10; $Al_2O_3$ - 0,21; ппп – 43,76.

Изучение процесса проводили на лабораторной установке, состоящей из реактора, механической мешалки и термостата при температуре 95-100°С и продолжительности процесса 3 часа. После достижения заданного времени фосфатную массу фильтровали при температуре опыта для отделения нерастворимого остатка, фильтрат охлаждали до температуры 60-70°С и отделяли кристаллический монокальцийфосфат, промывали водой и сушили при температуре 100-110°С.

С целью увеличения выхода $P_2O_5$ в продукт и получения продукта, соответствующего требованиям нормативной документации, изучалось влияние повторного использования маточного раствора на состав получаемого кристаллического монокальцийфосфата кормовой и более высокой чистоты. При этом маточный раствор после кристаллизации продукта с предыдущей стадии подвергали упариванию до заданной концентрации (табл. 3 и 4).

Процесс циклического способа получения кристаллического монокальцийфосфата с использованием маточного раствора проводили следующим образом: растворы, полученные разложением карбоната кальция упаренной ЭФК из фосфоритов ЦК в присутствие упаренного маточного раствора при норме 400 % от стехиометрии на образование монокальцийфосфата с температурой 90 °С заливали в реактор с водяной рубашкой, охлаждаемый водой. После охлаждения до 60-80 °С, при постоянном перемешивании раствора, уменьшали подачу хладагента, охлаждая со скоростью 5,0°С/час. При достижении температуры 60-80°С охлаждение прекратили, суспензию разделяли на воронке Бюхнера (фильтрующая поверхность 0,005 $м^2$).

Далее, кристаллы на фильтре отжимали просасыванием воздуха в течение 2 минут. Промывали ацетоном и сушили при 100 °С в течение 1 часов. Затем проводили по стандартным методикам на химических анализов исходных, маточных растворов и кристаллы монокальцийфосфата, а также определяли показателей технологических параметров (соотношение Ж:Т, время и скорость фильтрации) и степень перехода компонентов, результаты которых приведены в таблице 1 и 2.

Таблица 1

Влияние повторного использования маточного раствора на состав получаемого продукта

| Стадия | Образец | Химический состав, масс. % | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | $P_2O_5$ | $SO_3$ | CaO | MgO | $Al_2O_3$ | $Fe_2O_3$ | F |
| Исходный ЭФК | | 17,0 | 0,230 | 1,58 | 0,490 | 0,38 | 0,25 | 0,310 |
| | Исходный | 50,0 | 0,676 | 4,647 | 1,440 | 1,118 | 0,735 | 0,909 |
| | Кристаллы | 54,20 | 0,190 | 18,70 | 0,067 | 0,096 | 0,085 | 0,009 |
| | Маточный раствор | 31,61 | 0,498 | 1,166 | 1,105 | 0,870 | 0,560 | 0,673 |
| | Исходный | 27,03 | 0,415 | 2,36 | 0,924 | 0,720 | 0,465 | 0,557 |
| | Кристаллы | 54,14 | 0,192 | 18,72 | 0,070 | 0,098 | 0,086 | 0,010 |
| | Маточный раствор | 31,64 | 0,570 | 0,955 | 1,313 | 1,028 | 0,655 | 0,788 |
| | Исходный | 27,01 | 0,464 | 2,358 | 1,069 | 0,830 | 0,530 | 0,637 |
| | Кристаллы | 54,11 | 0,195 | 18,75 | 0,073 | 0,099 | 0,088 | 0,012 |
| | Маточный раствор | 31,66 | 0,057 | 0,956 | 1,523 | 1,191 | 0,750 | 0,903 |
| | Исходный | 26,99 | 0,510 | 2,50 | 1,215 | 0,940 | 0,598 | 0,716 |
| | Кристаллы | 53,81 | 0,430 | 19,30 | 0,081 | 0,112 | 0,104 | 0,014 |
| | Маточный раствор | 31,755 | 0,679 | 1,09 | 1,732 | 1,34 | 0,844 | 1,013 |

Таблица 2

**Влияние повторного использования маточного раствора на технологические показатели процесса**

| Стадия | Соотношение Ж:Т | Время фильтрации, мин. | Съем осадка, кг/м$^2$·ч | Степень перехода в продукт, масс. % | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | $P_2O_5$ | $O_3$ | CaO | MgO | $Al_2O_3$ | $Fe_2O_3$ | F |
| 1 | 7,61 | 0,30 | 760 | 18,17 | 4,71 | 67,51 | 0,78 | 0,14 | 1,93 | 1,33 |
| 2 | 7,61 | 0,30 | 755 | 18,16 | 4,15 | 71,72 | 0,66 | 0,12 | 1,65 | 1,14 |
| 3 | 7,60 | 0,32 | 755 | 18,15 | 3,71 | 71,70 | 0,57 | 0,10 | 1,45 | 1,00 |
| 4 | 7,59 | 0,38 | 740 | 17,99 | 7,58 | 69,64 | 0,60 | 1,07 | 1,57 | 1,39 |

Из экспериментальных данных (табл. 3 и 4) видно, что при трехкратном повторном использовании маточного раствора увеличение степени перехода примесей в кристаллы продукта относительно невысокая и составляет, %: для $SO_3$ – 4,19; MgO – 0,67; $Al_2O_3$ – 0,12; $Fe_2O_3$ – 1,68 и F – 0,82. Это связано с тем, что в ходе повторного использования маточного раствора содержание примесей

в продукте постепенно увеличивается. Выход $P_2O_5$ в квалифицированный кормовой монокальцийфосфата составляет 67,51%.

В результате исследований определено, что оптимальным можно считать трехкратное повторное использование оборотного маточного раствора, при котором обеспечивается получение кормового монокальцийфосфата, а для дальнейшего использование маточного раствора необходимо предварительной очистки от некоторых мешающих примесей.

**Список использованных литературы:**

1. Горлов И.Ф., Ранделин Д.А., Струк А.Н., Струк В.Н., Струк М.В., Струк Н.В. Инновационные технологии разработки и использования новых кормовых и биологически активных добавок при производстве мяса сельскохозяйственных животных и птицы. - Волгоград: ФГБОУ ВПО Волгоградский ГАУ, РФ. 2012. – 236 с.

2. Виноградов В.Н., Дуборезов В.М., Кирилов М.П. Кормление и кормопроизводство в молочном скотоводстве // Журнал «Достижения науки и техники в АПК». – Москва, 2009. № 8. – С. 33-35.

3. Рябов Н.И., Левахин В.И., Зелепухин А.Г., Королев Л., Попов В.В. и др. Повышение эффективности нагула молодняка крупного рогатого скота. – М.: РФ. 2005. – 109 с.

4. Арифджанова К.С., Мирзакулов Х.Ч., Меликулова Г.Э., Хужамкулов С.З., Усманов И.И. Исследование процесса обессульфачивания экстракционной фосфорной кислоты из фосфоритов Центральных Кызылкумов // Журнал «Химическая промышленность». - Санкт-Петербург, РФ. 2017. № 5. – С. 18-25.

5. Литусова Н.М. Технология получения кормовых фосфатов кальция в гранулированном виде на основе мела и экстракционной фосфорной кислоты. Дисс. … канд. техн. наук. Москва, 2004. – 97 с.

6. Бушуев Н.Н. Физико-химические основы влияния примесей фосфатного сырья в технологии фосфорсодержащих минеральных удобрений и чистых веществ. Дисс. ... д.т.н. РФ. 2000. 412 с.

# KIMYO-TEXNOLOGIK SISTEMALARNING TEXNOLOGIK JARAYONLARINI BOSHQARISHDA SITUATSION MODEL VA ALGORITMLARNING AHAMIYATI

**Kayipbergenov B.**
Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Nukus filiali Texnika fanlari doktori
**Ilxanov Nurbek Mamayevich**
NDPI Magistratura bo‘limi “Ta’limda axborot texnologiyalari” ta’lim yo‘nalishi
2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256320

**Annotatsiya:** Keltirilgan ushbu maqolada kimyoviy texnologiya, algoritmlash usullari, situatsion model va uning strukturasi hamda dasturlashning hozirgi kundagi ahamiyati, uni qo‘llashdagi afzalliklar, metodlardan foydalanish haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Axborotlashtirilgan tizim, loyiha, KTJ, fazalar, ishlab chiqarish, moliya, iqtisod

**Zamonaviy ishlab chiqarish bu** - axborotlashtirilgan boshqarish tizimlari va kommunikatsiya, moliya - iqtisodiyot va marketing xizmatlari, ilmiy texnologik hamda loyihalash markazlarining kimyo-texnologik bosqichlar majmuidir. Raqamli texnika va ma'lumot qayta ishlash usuilarining intensiv rivojlanishi natijasida kimyoviy, neft-kimyoviy hamda ulaming ichki komplekslaridagi axborotlashtirilgan boshqarish tizimlari va axborot uzatish jarayoninng funksionallik ahamiyati tobora oshib bormoqda. **Kimyo-texnologik jarayonlarning (KTJ)** analizi va sintezi masalalarini yechishda, shuningdek, bu jarayonlardagi boshqarish tizimlarini qurish masalalarida matematik modellashtirish usullarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Texnologik jarayon, unda yuz beruvchi fizik - kimyoviy hodisalami baholashdan boshlab, alohida sathlar orasidagi o‘zaro ta’sirlami hisobga olib, integral baholashlargacha tahlil qilinadi. Bu tarzda olingan tavsif jarayonning eng umumiy belgilarini xarakterlab, jarayonning matematik modeli sifatida ko‘rilishi mumkin.

Texnologik qurilmalar quvvatlarining ahamiyatli darajada o‘sishi tashqi va ichki energiya resurslaridan optimal foydalanish bilan bog‘liq qator masalalarning yuzaga kelishini belgilaydi. Shuning uchun ham amaldagi jihozlarni takomillashtirish va yangilarini loyihalashda asosiy e'tibor texnologik va konstruktiv parametrlami hisoblashning aniq usullarini ishlab chiqishga qaratiladi. Ko'rsatilgan masalani yechimi matematik modellashtirish usullarini takomillashtirish va ularni tadqiqot amaliyoti va loyihalash ishlariga tatbiq etish asosida yotadi. Kimyo-texnologik jarayonlami o‘tkazishda ko‘pincha ulami yakunlash to‘liqligi darajasini bilish muhimdir, bu esa o‘z navbatida apparatda oqim zarralarini vaqt bo‘yicha

**Annotatsiya:** Bugungi texnika asrida o‘quvchi yoshlarning zamon bilan hamnafas yashayotganligini hisobga olgan holda oddiy an’anaviy, ma’ruza darslari samaradorligi bir muncha pasaydi. O‘quvchilarga ijodkorlikni, mustaqil ishlashni hamda qiziqib mutolaa qilishni o‘rgatish uchun o‘qituvchi izlanishi, AKT vositalaridan foydalana olishi bugungi kun talabidir. Shuni e’tiborga olib ushbu maqolada adabiyot fanini o‘qitishda veb platformalardan samarali foydalanish usullarini tavsiya etmoqchiman. Ushbu metodik tavsiyalar Alisher Navoiy ijodini o‘rgatish asosida shakllantirildi.

**Kalit so‘zlar**: veb resurslar, internet platformalar, Kahoot veb resurs, quizizz.com, veb sayt, dars samaradorligi.


Alisher Navoiy ijodiy me’rosi o‘zbek adabiyoti tarixida beqiyos o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonida Navoiy ijodi yoshlar ma’naviy dunyosini boyitish, tasavvur olamini kengaytirish, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish hamda ilm o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni ruhlantirish maqsadida o‘rgatiladi. Shunday ekan, barcha adabiyot o‘qituvchilari yuqoridagi natijaga erisha olyaptimi?

O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, ularning e’tiborini darsga jalb etish uchun, avvalo, o‘qituvchi kreativ bo‘lishi, zamon talabiga binoan rivojlanib borishi lozim. Shu o‘rinda Navoiy ijodini o‘qitish zahmatini yengillatish, zamonga moslashtirish, o‘quvchining o‘zi ham sezmagan holda qiziqib ketishini ta’minlash maqsadida darsda doimiy foydalanadigan bir nechta interfaol usullarini tavsiyalar berishga azm qildim.

Hozirgi paytda informatika va informatsion texnologiyalar rivojlangani sari ko‘pdan ko‘p veb resurslar va platformalar dars jarayonlari uchun moslashtirilib borilmoqda. Bunday resurslar va platformalarning ishlash maqsadi va yo‘nalishlari har xil bo‘lib men sizlarga aynan adabiyot darslarida Alisher Navoiy ijodini o‘rgatishda qo‘l keladigan va mavzuni tushintirishda ishlatsa bo‘ladiganlaridan bir nechta misol keltirmoqchiman (Misollar oddiy tuzildi,o‘quvchi imkoniyat darsjasida kengaytirish va murakkablashtirish mumkin, albatta).

Informatika sohasi rivojlanganligidan dars o‘tishda internet platformalar imkoniyatlari ham kengayib bormoqda. Shu kabi imkoniyatlardan masalan, onlayn testlar o‘tkazish, platforma orqali dars o‘tish, krossvordlar tuzish, so‘z o‘yinlari


yaratish kabilarni keltirish mumkin. Ushbu maqolada veb platformalardan bir nechasida Alisher Navoiy ijodi haqida dars o‘tish va o‘tilgan bilimlarni sinov-test qilish bo‘yicha misollar bermoqchiman. Ulardan biri kahoot.com veb resursi hisoblanadi. Bu resurs imkoniyatlari juda keng bo‘lib, butun dunyoda 50 milliondan ko‘proq faol foydalanuvchilari bor. Kahoot veb resursida dars o‘tish, test tuzish, savolnoma o‘tkazish va yana bir necha imkoniyatlardan foydalanish mumkin. Masalan, Alisher Navoiy ijodi haqida dars o‘tib dars davomida yoki dars oxirida test olib o‘quvchilar bilimini sinashimiz mumkin. Test savollarini bir necha ko‘rinishda olish mumkin: ko‘p variantli savollar, to‘g‘ri-notog‘ri javobli savollar, javobni klaviaturadan kiritish kabi usullari mavjud. Savollarni rasmlar, giflar, audiofaylar va videotasvirlar bilan boyitishimiz mumkin. Kahoot veb resursi pedagogik o‘yin tamoyiliga asoslagan bo‘lib, testlar o‘quvchilar o‘rtasida musobaqa tarzida o‘tkaziladi. Har bir savolga javob berish uchun ma’lum miqdorda vaqt belgilanadi. Hamma qatnashuvchilar bir vaqtda savollarga javob berishi kerak va o‘quvchilar uchun hayajonli va qiziqarli lahzasi - bu har bir savoldan keyin qatnashuvchilar reytingi ko‘rsatiladi. Albatta, har bir o‘quvchi o‘zini reytingda yuqoriroqda va iloji bo‘lsa, birinchi o‘rinda ko‘rishni xohlaydi. Kahoot resursi har bir javob uchun to‘g‘rilik va vaqt mezoni o‘rnatgan. Ya’ni, bir savolga ham to‘g‘ri ham tez javob berish kerak. Shunda, har bir savolga ball beriladi (maksimal 1000 baldan). Veb resursning aynan ushbu xususiyatidan darsda unumli foydalansa bo‘ladi. Test oxirida yana bir qiziq funksiyasi bor: reytingda eng yuqori 3 ta qatnashchi podiumda ko‘rsatiladi. Maktab va litsey o‘quvchilari uchun bu ayniqsa qiziqarli va kurashishga undovchi xususiyatdir. Ushbu veb resurs imkoniyatlari faqat test olish bilan tugamaydi. Unda so‘rovnomalar o‘tkazish va dars uchun onlayn prezentatsiyalar yaratish ham mumkin.




**1-rasm.** *Test yoki dars yaratilgan asosiy sahifa*




**2-rasm.** *Ko‘p variantli savol ko‘rinishi*



**3-rasm.** *Har bir savoldan keyin Reyting* **4-rasm.** *Test oxirida Podium ko'rinishi*


Yana bir veb platforma quizizz.com resursidir. Unda ham dasrlarni prezentatsiya ko'rinishida o'tkazish mumkin. Dars prezentatsiyasi davomida bir necha ko'rinishda savollar, testlar, savolnomalar va yana bir qancha ko'rinishda bilimlarni tekshirish imkoniyatlari bor. Dars prezentatsiyasini bir necha usulda rang-barang rivojlantirish mumkin. Rasmlar, audio fayllar va video tasvirlar prezentatsiyaga qo'shish mumkin. Bilimlarni sinash uchun imkoniyatlari ko'p. Ko'p variantli testlar, yopiq javobli savollar, javobni yozish testlari va rasmli savollar tuzish imkoni bor. O'qituvchi o'z kompyuterida vazifa yaratadi va talabalar uni Internetga (smartfon, planshet) ega bo'lgan mobil qurilmalaridan alohida-alohida bajarishlari mumkin. Veb resurs shuningdek, birgalikda ishlash imkoniyatini beradi. Testlar o'yin shaklida tashkil etilishi mumkin va o'yinga qo'shilish uchun o'quvchilar havolaga o'tishlari va maxsus kodni kiritishlari kerak. Vazifalar barcha ishtirokchilar uchun bir xil, ammo har bir kishi uchun savollar ketma-ketligi boshqacha. O'qituvchi olingan natijalarni Excel elektron jadvaliga jo'natishi mumkin. O'qituvchi nafaqat o'z testlarini va viktorinalarini yaratish, balki tayyor topshiriqlarning keng kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega. Shuningdek, yaratilgan topshiriqni elektron pochta orqali yuborish yoki ijtimoiy tarmoqlarda bo'lishish imkoniyati ham mavjud. Veb-versiyadan tashqari, Android va iOS platformalarida mobil ilovalar mavjud. Quizizz.com resursida o'yin tashkil etishda siz har qanday qurilmadan foydalanishingiz mumkin — darsda talabalarning smartfon va planshetlaridan foydalanish mumkin, O'qituvchilarga sinfda to'g'ridan – to'g'ri viktorina o'tkazish uchun maxsus o'qituvchi hisobini yaratishni taklif qilinadi. Saytning barcha interfeysi aniq va sodda tilda ishlangan.





**5-rasm.** *Prezentatsiya sahifasi*




**6-rasm.** *Savollarga beerilgan javoblar*



**7-rasm.** *Reyting ko‘rinishi* **8-rasm.** *Test oxirida natijalar ko‘rinishi*


Adabiyot o‘qituvchilariga tavsiya qilmoqchi bo‘lgan veb resurslardani biri – edu-games.org saytidir. Avvalo, ushbu veb sayt imkoniyatlari bilan tanishtirib keyin adabiyot darsida Alisher Navoiy ijodi va asarlari bo‘yicha namunaviy tarzda tuzilgan ishlanmalar bilan tanishtirmoqchiman. Ushbu edu-games veb-sayt bir necha kategoriyalardan iborat. O‘quv o‘yinlari sizning o‘quvchilaringiz uchun darslaringizni yanada jozibali qilish uchun juda foydali. Bu o‘yinlar yaratish uchun ko‘p vaqt talab qilishi mumkin. Barcha o‘yinlar saytda tez fursatda yaratiladi va ishlatishga tayyor. Demak, siz yaratishingiz yoki yuklashingiz mumkin bo‘lgan cheksiz ko‘p ea o‘yinlariga ega bo‘lasiz.

So‘z o‘yinlari to‘plami. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish yoki mashq qilish uchun juda yaxshi bo‘lim hisoblanadi. Mashhur o‘yinlar so‘z qidiruv bor, so‘z qutisi, bingo va krossvordlar yaratish mumkin.

Gap o‘yinlar qismi ham mavjud. O‘yinlar grammatikani mashq qilishning qiziqarli usuli. O‘quvchilar uchun gaplardan tashkil topgan matnlar bo‘yicha o‘yinlar yaratsa bo‘ladi.

Ba’zi o‘yin ishlanmalarni chop etish o‘rniga, siz o‘quvchilaringizga o‘sha o‘yinlarni onlayn o‘ynashlariga imkon berishingiz mumkin. O‘yinlaringizni yarating va o‘quvchilarga ular yuklashi mumkin bo‘lgan excel faylini yuboring. Edu-games sayti o‘yinlari juda samaralidir, chunki talabalar edu o‘yinlarini yoqtirishdi. Ushbu veb-sayt o‘qituvchilarga o‘quvchilari uchun tez va oson dars qo‘llanmalar yaratishni osonlashtirishda asqotadi. Barcha o‘quv o‘yinlarini printerdan chiqarishga tayyorlash mumkin, sababi hamma maktablarda dars ishlanmalarni onlayn o‘tkazish uchun kompyuterlar bo‘lmasligi mumkin. Siz onlayn o‘quv o‘yinlarini yaratishingiz va sinfda chop etib va ishlatilishi mumkin bo‘lgan pdf faylini yuklab olishingiz mumkin. O‘quv o‘yinlarning aksariyati dinamik ravishda hosil bo‘ladi, ya’ni siz cheksiz ko‘p o‘quv o‘yinlarini yaratishingiz mumkin. edu-games.org veb resursining imkoniyataridan aynan adabiyot darslarida ishlatish mumkin bo‘lgan qismi haqida to‘xtalib o‘tdim. Endi adaviyot darsida Alisher Navoiy ijodi haqidagi mavzuda namuna sifatida ishlangan o‘quv o‘yinlaridan keltiraman.

Bular so‘z harflarini almashtirish orqali qiziqarli so‘z o‘yinidan misol. Alisher Navoiy “Xamsa” dostonlaridagi qahramonlar ismlari harflar o‘rni almashgan holda berilgan. O‘quvchilar so‘z harflarini to‘g‘ri joylashtirib qagramonlr ismlarini topisi kerak bo‘ladi. Ushbu maqola o‘qituvchilarga tavsiya sigatida bo‘lganligi va foydalanuvchiga ezda tushunarli bo‘lishi uchun o‘yin javoblari ham keltirilgan.


Name: Class: Date:

word scramble

Navoiyning 'Xamsa' dostonlaridagi qahramonlar

Look carefully at the jumbled words and try to unscrambling as many words as you can.
Good luck!

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| oudrrj | | fahord | | isirhn | |
| laily | | rskiadan | | oidorlm | |
| arhbom | | qursot | | axsruv | |
| enhinmobu | | mujnna | | sayq | |
| jibor | | | | | |

word scramble www.edu-games.org

Name: Class: Date:

word scramble

Navoiyning 'Xamsa' dostonlaridagi qahramonlar


Look carefully at the jumbled words and try to unscrambling as many words as you can.
Good luck!

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| oudrrj | durroj | fahord | farhod | isirhn | shirin |
| laily | layli | rskiadan | iskandar | oidorlm | dilorom |
| arhbom | bahrom | qursot | suqrot | axsruv | xusrav |
| enhinmobu | mehinbonu | mujnna | majnun | sayq | qays |
| jibor | jobir | | | | |

word scramble www.edu-games.org

**9-rasm.** *So‘z harflari almashtirilgan o‘yin* **10-rasm.** *O‘yin javoblari*

Keyingi imkoniyat so‘z topish o‘yinidir. Bu o‘yinda avvalo maxsus bo‘limda o‘qituvchi tomonidan tanlangan so‘zlar kiritiladi. Keyin veb sayt ularni o‘yin holatiga keltiradi. O‘quvchilar harflar orasidan yashiringan so‘zlarni topishi kerak bo‘ladi. Ushbu o‘quv o‘yini uchun ham javoblar keltirilgan.


Name: Class: Date:

word search

Alisher Navoiy asarlari

Navoiy asarlaridan savollar berilgan

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| a | s | v | g | x | r | o | n | r | k | v | n | m | a | n | s | m |
| a | s | d | f | a | o | y | e | d | o | q | a | a | e | e | R | i |
| d | e | a | c | z | t | i | e | m | s | e | t | n | r | l | i | e |
| e | f | n | d | o | n | r | r | a | r | o | y | t | n | a | s | l |
| t | c | i | a | n | f | a | r | h | o | d | s | i | i | h | o | i |
| n | o | d | i | i | s | d | s | b | e | l | d | q | i | g | l | o |
| a | w | n | y | - | t | n | n | u | t | s | e | u | r | g | a | h |
| n | r | x | s | u | h | a | p | b | d | g | t | t | t | e | y | t |
| o | m | a | l | l | r | k | s | u | e | b | d | t | k | i | i | n |
| r | h | m | s | m | e | s | n | l | i | r | q | a | y | s | m | a |
| n | q | s | h | a | b | i | m | q | r | r | h | y | i | s | u | e |
| g | ‘ | a | r | o | y | i | b | u | s | - | s | i | g | ‘ | a | r |
| o | e | e | n | n | y | d | e | l | i | m | n | r | p | e | m | a |
| p | r | g | d | i | n | d | j | u | n | e | i | x | o | o | m | d |
| f | p | s | t | y | d | a | t | b | o | t | n | c | t | i | o | s |
| m | a | j | o | l | i | s | u | n | n | a | f | o | i | s | v | e |
| c | t | w | k | a | e | i | t | z | h | c | h | h | s | a | d | a |

Answer sheet

word search

Alisher Navoiy asarlari

Navoiy asarlaridan savollar berilgan

| | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| a | s | v | g | x | r | o | n | r | k | v | n | m | a | n | s | m |
| a | s | d | f | a | o | y | e | d | o | q | a | a | e | e | R | i |
| d | e | a | c | z | t | i | e | m | s | e | t | n | r | l | i | e |
| e | f | n | d | o | n | r | r | a | r | o | y | t | n | a | s | l |
| t | c | i | a | n | f | a | r | h | o | d | s | i | i | h | o | i |
| n | o | d | i | i | s | d | s | b | e | l | d | q | i | g | l | o |
| a | w | n | y | - | t | n | n | u | t | s | e | u | r | g | a | h |
| n | r | x | s | u | h | a | p | b | d | g | t | t | t | e | y | t |
| o | m | a | l | l | r | k | s | u | e | b | d | t | k | i | i | n |
| r | h | m | s | m | e | s | n | l | i | r | q | a | y | s | m | a |
| n | q | s | h | a | b | i | m | q | r | r | h | y | i | s | u | e |
| g | ‘ | a | r | o | y | i | b | u | s | - | s | i | g | ‘ | a | r |
| o | e | e | n | n | y | d | e | l | i | m | n | r | p | e | m | a |
| p | r | g | d | i | n | d | j | u | n | e | i | x | o | o | m | d |
| f | p | s | t | y | d | a | t | b | o | t | n | c | t | i | o | s |
| m | a | j | o | l | i | s | u | n | n | a | f | o | i | s | v | e |
| c | t | w | k | a | e | i | t | z | h | c | h | h | s | a | d | a |

**11-rasm.** *Harflar orasidan so‘z topish o‘yini* **12-rasm.** *O‘yin javoblari*

Adabiyot darslarida informatika va zamonaviy veb platformalar imkoniyatlaridan ijodkorona foydalanish mumkin bo‘lgan bir necha pedagogik usullar haqida imkon qadar batafsil to‘xtalib o‘tdim. Yuqorida keltirilgan veb platformalar va veb resurslar ro‘yxati shular bilan cheklanib qolmaydi, albatta. Bu kabi informatika sohasidagi imkoniyatlar juda ko‘p va ulardan foydalanish adabiyot darslarini yanada jonli va o‘quvchilar uchun ham qiziqarli ham samarali bo‘lishiga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, Adabiyot darslarini o‘qitishda informatika vositalari, aynan veb texnologiyalardan foydalanish ushbu darslarni o‘zlashtirilishi darajasini o‘stiradi. O‘quvchilar uchun mavzuni tushunish va mavzugi har bir ma’lumotni qabul qilish samaradorligini oshiradi.

**Foydalanilgan manbalar:**

1. R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. T.2004.
2. Pedagogika. Rasulov B. - T.2016.
3. Alisher Navoiy. Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar. Nashrga tayyorlovchilar A.Tilovov, I.Saydullayev.-T.: “Sano-standart”2016.
4. Alisher Navoiy. Aforizmlar.Toshkent-1961
5. “Pedagogik mahorat” A.Xoliqov Toshkent 2011
www.kahoot.com
www.quizizz.com
www.edu-games.org

# GEOGRAFIYA FANIDA QO‘LLANILADIGAN SINFDAN TASHQARI TADBIRLAR

**Muslimova Dildor Mamatmo‘minovna**
Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi 81-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
Geografiya fani o‘qtuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256377

**Annotatsiya:** O‘quvchilarni geografik dunyoqarashini kengaytirishda Geograf o‘lkashunoslar to‘garagining o‘rni beqiyos. Mazkur to‘garakning vazifasi – o‘lka tabiati, aholisi, xo‘jaligi va madaniyatini o‘rganishdan iborat. To‘garak mashg‘ulotlari davomida tabiat – aholi – xo‘jalik tizmidagi munosabatlarga ilmiy asosda yondashish ko‘nikmasi shakllantiriladi. Shuningdek, turli tabiiy geografik jarayonlar va fenologik kuzatishlarni olib borish malakasi hosil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, o‘lkashunoslik, fenologik kuzatishlar, geografik dunyoqarash.

To‘garak uchun quyidagi xususiyatlar xos (loyiha) 1.To‘garak o‘quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari asosida mutlaqo ixtiyoriy tarzda tashkil etiladigan sinfdan tashqari tadbir turlaridan biridir; 2.To‘garak mashg‘ulotlari tasdiqlangan jadval asosida oyida ikki marta darsdan keyin geografiya xonasida tashkillashtirish mumkin (sentyabr va may oylarida birtadan mashg‘ulot o‘tkazilishi maqsadga muvofiq); 3.Geografiya o‘lkashunoslik to‘garagi a‘zolari soni 16 – 25 nafar V-IX sinnf o‘quvchilari orasidan tanlanadi; 4.To‘garak mashg‘ulotining davomiyligi 45-90 minutni tashkil etishi maqsadga muvofiq; 5.To‘garak mashg‘ulotlarini geografiya o‘qituvchisi boshchiligidagi uch kishidan iborat to‘garak kengashi boshqaradi; 6.To‘garakning ish rejasi o‘quv yilining boshida tuziladi, fan metodbirlashma yig‘ilishida muhokama etilib, maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi; 7.To‘garak mashg‘ulotlari maktabda tashkil etilgan yagona to‘garaklar jurnalida qayd etib boriladi; 8.Har bir to‘garak mashg‘ulotida kamida uchta masalani rejalashtirish lozim,ular ma‘ruza yoki amaliy ish yoki ijodiy ish,sayr yoki geografik biror bir asrning muhokamasi bo‘lishi mumkin; 9.To‘garak nomi, madhiyasi, shiori, har oyda bir marotaba nashr ettiriladigan devoriy gazetasi va emblemasiga ega bo‘lishi shart; 10.To‘garak geografik o‘lkashunoslik mavzusida kechalar,uchrashuvlar, bilimlar sinovi va fan olimpiadalari va boshqa sinfdan tashqari ishlarni o‘tkazish uchun asosvazifasini bajaradi. Maktab pedagogik jamoasi va o‘quvchilar to‘plagan materiallar asosida maktab o‘lkashunoslik muzeyi tashkil qilinishi mumkin. O‘lkashunoslik muzeylarining asosiy maqsadi o‘lka tabiati, xo‘jaligi, tarixi, madaniyati va san‘ati haidagi materiallarni to‘plash, o‘rganish, saqlash va namoyish

qilishdan iboratdir. Maktab geografiya - o‘lkashunoslik muzeylari yoshlar oldiga quyidagi eng muhim vazifalarni qo‘yadi: 1.Atrof-muhitning maftunkor va betakror tabiati, iqlimi, suv resurslari, tuprog‘i, o‘simlik va hayvonot olami hamda o‘lka aholisi va uning turmush darajasi, xalq qahramonlari, mirishkor dehqonlar,zamonaviy ishbilarmonlari to‘g‘risida axborot berish. Shuningdek, o‘lka aholisining mehnati tufayli bunyod etilgan istirohat bog‘lari, sanoat va ishlab chiqarish ob‘ektlari hamda ularning o‘lka hayotidagi ahamiyati haqida tasavvur hosil qilish. 2.O‘lkadagi mavjud aholi manzilgohlari va ularda mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yangi qurilayotgan zamonaviy uyjoylar, ta‘lim muassasalari va maishiy xizmat ob‘yektlari, qo‘shma korxonalari bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirish. 3.Tarixiy – me‘moriy obidalar va ularning maftunkor qiyofasi, qurilish tarixiva uslubi hamda insoniyat madaniy merosida tutgan o‘rni haqida tashrif buyuruvchilarda taasurotlarni shakllantirish. 4.O‘lkadagi mavjud ishlab chiqarish korxonalardagi mahsulotlar va ularning o‘lka taraqqiyotidagi salmog‘ini keng targ‘ib qilish. 5.O‘lkada tabiatni muhofaza qilish masalalarini keng targ‘ib qilish, muhofaza qilinadigan tabiiy ob‘ektlar haqida ma‘lumotlar berish. 6.O‘lkadagi aholi punktlari, ularning toponimikasi haqida ma‘lumotlar to‘plash va ularni keng targ‘ib qilish. Maktab muzeyi oldiga juda katta vazifalar qo‘yilgan bo‘lsa-da, ular tuman va davlat muzeylaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi. Birinchidan, maktab muzeyi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan. Ikkinchidan, muzey maktab pedagogika jamoasi va o‘quvchilar faolligida tashkil etiladi.Uchinchidan,muzeydan ta‘lim jarayonida keng foydalanish mumkin. Geografiya ta‘limida o‘lka materiallaridan foydalanish eng samarali usullaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Maktabda o‘lkashunoslik materiallaridan unumli foydalanishda o‘lkashunoslik muzeyining ahamiyati beqiyosdir. Maktab o‘lkashunoslik muzeyi haqidagi Nizom 1995 yil 19 avgustda tasdiqlangan. Bu Nizomga muvofiq barcha maktablarda o‘lkashunoslik muzeylari tashkil etilish shart.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust) da qabul qilingan hamda bugungi kunda g‘oyalari amaliyotga keng ko‘lamda muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyati to‘laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi ta‘lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko‘tarish, shu bilan birga jahon ta‘limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutishi lozim. Chunonchi, mazkur jarayonning uchinchi bosqichi (2005 va undan keyingi yillar) da «... ta‘lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash, o‘quvtarbiya jarayonini yangi o‘quv-uslubiy majmualar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan to‘liq ta‘minlash» kabi

dolzarb vazifalar ijobiy hal etilmog‘i zarur. Mazkur vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida yana bir omilning mavjudligi, ya‘ni uzluksiz ta‘lim tizimi xodimlari, pedagogo‘qituvchilarning zamonaviy ta‘lim texnologiyalari mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta‘lim jarayonida samarali qo‘llay olishlari, shuningdek, ta‘lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Қориев М., Хисомов А. География экскурсиялар. -Т., ―Ўқитувчи‖, 1960..
2. Мусаев П.Г., Каримова Ҳ.Т., Баҳромов Қ.Ҳ. География ўлкашуносликнинг дидактик функциялари. -Т., ―Ўқитувчи‖, 1989.
3. www.ziyouz.com

# O‘ZBEKISTONDA QORA VA RANGLI METALL SANOATINI RIVOJLANTIRISH

**Allanov Orifxon To‘xtaevich**
Termiz davlat universiteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256383

**Annotatsiya:** Ma’lumki, O‘zbekistonda kon-metallurgiya sanoati iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i hisoblanadi. Shuning uchun ham bu sohada ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va samaradorlikni yanada oshirish,zamoanviy texnologik imkoniyatlarni keng ko‘lam bilan ishga solishga ishlariga alohida e’tibor ko‘zi bilan qaralmoqda. Davlatimiz rahbarining O‘zbekiston sanoatining kelgusidagi istiqbolli faoliyatini ta’minlash yo‘lidagi izchil islohotlarga keng yo‘l ochib, o‘zi bosh-qosh bo‘layotgani yurtimizda kon-metallurgiya sanoatini, jumladan, qora va rangli metall ishlab chiqarishni taraqqiy ettirishga zamin yaratmoqda.

**Kalit so‘zlar:** rangli metall, iqtisodiyot, sanoat, metallurgiya, qora metall, xomashyo.

## Kirish

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida, birinchi galda, iqtisodiyotimizning ravraqi, vqatanimizning gullab-yashnashi uchun keng imkoniyatlar ochish, zarur shart-sharoitlar yaratishdek muhim va dolzarb vazifalar mujassam etilgan. Ko‘plab sanoat korxonalari, ishlab chiqarish, savdo ob’ektlari ishga tushirilganligi, ayniqsa, mahalliy xomashyolar asosida turli mahsulotlar ishlab chiqarishga e’tibor har qachongidan ham kuchaytirilayotganligi quvonarli hol bo‘lmoqda[25].

## Adabiyotlar sharhi

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda keyingi yillarda muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyov olib borayotgan izchil tinchliksevar siyosat tufayli, Markaziy Osiyo mintaqasi markazida joylashgan O‘zbekiston, nafaqat qo‘shni chegaradosh davlatlar bilan, balki uzoq va yaqin xorijiy davlatlar bilan ham do‘stona va ikki tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy manfaatli ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik qilish tamoyilini asosiy maqsad qilib olganligi ham yaxshi samaralar berdi[26]. E’tirof etish kerakki, hozir O‘zbekiston tarixiy taraqqiyot davrini boshdan kechirmoqda. Tabiiyki, tobora yuksalib borish, taraqqiyot va rivojlanish bosqichlarini yaxshi samaralar bilan bosib o‘tishda eng avvalo iqtisodiyotni rivojlantirish zarur. Ana shu muhim jihatni inobatga olgan davlatimiz rahbari nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan

[25] O. Allanov. “O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanish bosqichida”.T., Muharrir nashriyoti., 2018 yil.
[26] “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2021 yil, 3 avgust soni.

davlatlar, balki uzoq va yaqin xorijiy davlatlar, xususan, Rossiya, Xitoy, AQSh, Yevropa Ittifoqi hamda boshqa mamlakatlar bilan mustahkam hamkorlik aloqalari o‘rnatishga muvaffaq bo‘ldi.

**Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil**

O‘zining yangi taraqqiyot va rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ygan O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi tobora ortib borayotganligidan dalolat beruvchi yana bir muhim tashrifni eslatib o‘tmoqchiman. Gap shundaki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning taklifiga binoan Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban 2021 yilning 29 mart kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi. Eslatmoq joziki, ushbu oliy darajadagi tashrif hamda olib borilagan muzokoralar har ikkala davlat o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning sifat jihatidan yangi bosqichini boshlab berganligi bilan ahamiyatli bo‘ldi. Chunki olib borilgan muzokaralar davomida ikki tomonlama hamkorlik bobida hali ishga solinmagan juda katta imkoniyatlar borligi alohida ta’kidlab va e’tirof etib o‘tildi. Shunisi muhimki, muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ham Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban tomonidan har ikkala davlat o‘rtasida ko‘pqirrali sheriklikni kengaytirishga qaratilgan 10 dan ortiq hujjat imzolandi. Ushbu rasmiy tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev hamda Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanida tashkil etilgan O‘zbekiston – Vengriya Kartoshkachilik ilmiy markaziga tashrif buyurdilar. Ushbu markaz Vengriyadan keltirilgan kasallikka chidamli navlarni sinovdan o‘tkazish va urug‘lik kartoshka ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Innovatsion usullar samarasida 2021-2023 yillarda hosildiorlikni **30-50** foizgacha oshirish mo‘ljallangan. 2024 yilga borib, **21 ming tonna** urug‘lik kartoshka yetishitirish, bu boradagi import o‘rnini to‘liq qopash maqsad qilingan. Men bu misolni yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirish uchun barchaga sohalarga alohida e’tibor ko‘zi bilan qaralayotganligini ta’kidlash uchun keltirayapman.

Chunki bunday bunday keng ko‘lamli kelishuvlar, imzolanayotgan shartnomalar, yurtimizga kiritilayotgan investitsiyalar tabiiy ravishda mamlakatimizning kelgusi taraqqiyotini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi muhim omillar sanaladi. Zero, mamlakatimizga kiritilayotgan investitsiyalar, yaqin qo‘shni va boshqa xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy, savdo-sotiiq, madaniy sohalarni rivojlantirish borasida ikki tomonlama manfaatli asoslarda tuzilayotgan shartnomalar, tobora mustahkamlanib borayotgan samarali hamkorliklar tufayli mamlakatimizning hamma hududlarida natijasi yuksak bo‘layotgan bunyodkorlik ishlari boshlab yuborilgan. Hayotimizning barcha qirralarini, iqtisodiyotimizning hamma soha va tarmoqlarini birdek qamrnab oluvchi miqyosi keng loyihalarni bosqichma-bosqich hayotga tadbiq etish ishlari jadal sur’atlar bilan davom

ettirilmoqda. O‘zbekiston tom ma’nodagi iqtisodi barqaror rivojlanayotgan, istiqboli porloq davlatga aylanib bormoqda.

Ta’kidlamoq o‘riliki, keyichalik, ya’ni taraqqiyotning yuksala borishi ishlab chiqarish sohalariga, sanoat tarmoqlariga yangidan ashf etilgan texnika hamda texnologiyalarning joriy etilishi tufayli iqtisodiy taraqqiyot ham bir qadar jadallasha borgan. O‘tgan yigirmanchi asr boshlariga kelib, texnik taraqqiyot va ilm-fan rivojlanishi tufayli qilingan ixtiro hamda kashfiyotlar, ayniqsa, metallurgiya sanoatining taraqqiy etishi natijasida temir yo‘l tizimlari kengaytirilgan, masofalar uzaytirilgan, kuchli dengiz transportlari, yuk tashuvchi avtotransport faoliyat yurita boshlagan.

Hozirgi kunda esa biz dunyo bo‘ylab jadal rivojlanish jarayonlari davom etayotgan, iqtisodiyot tobora ilgarilab borayotgan bir davrda yashayapmiz. O‘zbekiston ham mustaqillikka erishgach, jahon maydonida o‘zining iqtisodiy qaddini tiklay va mustahkamlay boshladi. Buni alohida ta’kidlayotganimning boisi shundaki, O‘zbekiston atigi 30 yil ichida bir paytlar Sho‘rolar imperiyasining oddiygina agrar respublikasidan iqtisodiyoti, sanoati, turli ishlab chiqarish sohalari barqaror va jadal rivojlanayotgan mamlakatga aylandi[27]. Chunki qo‘lga kiritilgan mustaqillik tufayli ishlab chiqarishning turli sohalarida asrlar osha tarkib topib kelgan, ammo asrlarda deyarli unutilayozgan mehnat an’analari qayta tiklanishiga erishildi, sanoat, savdo, bozor munosabatlarida asqotadigan tajribalar yana hayotga qaytarilishiga muvaffaq bo‘lindi. Ayniqsa, mustaqil O‘zbekistonimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda, birinchi navbatda, og‘ir sanoatni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratildi. Xususan, qora va rangli metallurgiya sohalarini taraqqiy ettirish borasida samarali harakatlar boshlab yuborildi. Qadim-qadim zamonlardan buyon pista ko‘mir vositasida ilk temirchilik asbob-uskunalirini yaratgan, temir eritish va quyish ishlarini mahorat bilan olib borgan ajdodlarning munosib vorislari sifatida yurtimizda metallurgiya sohasi va shunga asoslangan sanoat ishlab chiqarishi o‘ziga xos tarzda rivojlana boshladi. Endilikda o‘zbek metallurglari zamonaviy ilm-fan, yangi texnik va yuksak texnologiyalarga holda ish yuritmoqdalar. Tabiiyki, bu darajaga yetgunga qadar mamlakatimiz metallurgiyasi shonli tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi.

**Xulosa va munozara**

Mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan yaqin qo‘shni xorijiy davlatlar bilan olib borilayotgan ikki tomonlama foydali hamkorliklar hamda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning samaralari to‘g‘risida atroflicha so‘z yuritayotgan ekanman, iqtisodiyotimizni rivojlantirishga qaratilgan bu kabi xayrli ishlar eng janubiy hududi bo‘lmish Surxondaryo viloyatida qanday natijalar berayotganligi bilan bog‘liq bir-ikki misol keltirib o‘tmoqchiman. Chunki mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda istiqbolli loyihalarni amalga

[27] O. Allanov. “O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanish bosqichida”.T., Muharrir nashriyoti., 2018 yil.

oshirishning o‘rni va roli beqiyos. Zero, aniq hisob-kitoblar asosida puxta ishlab chiqilgan Dasturlar asosidagi bunday loyihalar mamlakatimiz sanoatini, xalq xo‘jaligini, umuman, turli ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buni Surxondaryo viloyatida keyingi to‘rt yil ichida amalga oshirilgan ishlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2021 yil, 3 avgust soni.

2. A.S. Nurutdinov v.b. “Mustaqil O‘zbekiston og‘ir sanoatining bayroqdori”. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti., T., 2014 yil.

3.Qora va rangli metallarning chiqindi va va qoldiqlarini qayta eritishga tayyorlashda xavfsizlik qoidalari. T., 2010., “O‘zmetkombinat”.

4. O. Allanov. “O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanish bosqichida”.T., Muharrir nashriyoti., 2018 yil.

5.S.M. Mansurov, E.Sh.Shodmonov. “Bozor infratuzilmasi”. Toshkent Davlat Yuridik instituti, 2003 yil.

# MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA DASTURLAR TUZISHNI O‘RGATISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**G‘aniyeva M., Jumanov J.**
Jizzax davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7256389

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston OTM larida matematika yoki oliy matematika o‘qitishda dastur yaratishni o‘rgatish va amaliyotda qo‘llash nazariyalari nazariyalari asosli yoritilgan.
**Kalit so‘zlar:** Dasturiy ta’minot, matematika, malakali kadrlar, dars.

# ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММЫ AUTOPLE В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКИ

**Аннотация:** В данной статье обоснованно освещены теории обучения и применения на практике создания программ по преподаванию математики или высшей математики в высших учебных заведениях Узбекистана.
**Ключевые слова:** Программное обеспечение, математика, квалифицированный персонал, курс.

# USE OF AUTOPLE SOFTWARE IN TEACHING MATHEMATICS

**Annotation:** This article reasonably highlights the theory of learning and application in practice of creating programs for teaching mathematics or higher mathematics in higher educational institutions of Uzbekistan.
**Key words:** Software, mathematics, qualified personnel, course.

Jamiyat taraqqiyotining negizi zamonaviy ishlab chiqarish va axborot texnologiyalarini yaratish hamda ulardan oqilona foydalanishga bog‘liqdir. Bu esa umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim tizimi oldiga, ya’ni uzluksiz ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashda o‘quvchilar va talabalarda zamonaviy kompyuterlar, ularning xalq xo‘jaligi turli tarmoqlarida ishlatishlarida, fanlararo aloqadorlikni ta’minlashda foydalanishlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishdek muhim vazifani qo‘ymoqda.

Matematika yoki oliy matematika fani o‘qitiladigan oliy o‘quv yurtlarida mana shu jihatlarga e’tibor qaratishlari lozim bo‘ladi. Bu borada ularga dasturiy vositalar yaratish va ulardan foydalanish lozim bo‘ladi. Bu esa oliy ta’lim muassasalari talabalariga, shu jumladan, pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalariga oliy

matematika fanini o‘qitish jarayonida ta’limning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Matematika fani o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini o‘stirsa, informatikaning vazifasi esa shu fikrlarni tartiblashtiradi, matematika fanini asosli ravishda yanada rivojlanishi va amaliyligini yuzaga keltiradi. Matematik modellashtirish, hodisa va jarayonni tadqiq qilishda matematika fani uchun ham, informatika fani uchun ham haqiqiy ob’ekt bo‘lib xizmat qiladi. Ana shu matematik modellashtirish matematika va informatika fanining aloqadorligining turli qirralarini ochib beradi.

Matematikada shunday mavzu va tushunchalar mavjudki, ularni o‘zlashtirishda jiddiy tayyorgarlik ko‘rishga to‘g‘ri keladi. Bunday tushunchalar matematikada anchagina. Shulardan biri ko‘p va sezilarli aniqlikda olib boriladigan hisoblash ishidir. Hisoblash ishi ba’zan ko‘p vaqtni talab qiladi va bosh maqsaddan chetlashtiriladi. Ko‘p hollarda bunday qiyinchilikdan chiqishda hisoblashning oxirgi tayyor natijalaridan foydalanishadilar. Albatta tayyor natijadan foydalangandan, o‘quvchilar o‘zlari mustaqil hisob ishlarini olib borishsa, mavzuni o‘zlashtirishda ancha qulaylik tug‘iladi.

Oliy matematikada funksiyaning uzluksizligi, funksiyaning nuqtada va kesmada uzluksizligi, xuddi shunday uzluksizlik kabi tushunchalar mavjud. Talabalarga bu tushunchalarni ongli ravishda yetkazib berish uchun o‘qituvchi juda ko‘p shu tushunchalarga mos misollarni ko‘rib chiqishi kerak. Bunday hisoblashlarni amalga oshirishda kompyuter vositasi xuddi shu joyda funksiyaning uzluksizlik nuqtasi atrofidagi bir qancha qiymatlarni hisoblab berishda katta yordam beradi. Bir qancha qiymatlarni o‘quvchilar o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgach, bunga o‘zlari ishonch hosil qiladilar, bu esa uzluksizlik ta’rifini tushunib olishga yordam beradi. Ma’lumki, sonli tajribalar matematikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Ana shu sonli tajribalar bir qancha matematik faktlarni ham ochib beradi.

Masalan: Ajoyib limitlardan birini qaraylik. Ushbu $\lim\limits_{x\to 0}\frac{\sin(x)}{x}=1$ ni isbotlash uchun quyidagi dasturni tuzib, jadvalda keltirilgan natijani olamiz.

```
Program dastur;
Var  i: integer; x, y: real;
begin
for i:=50 downto 1 do
begin
x:=i*0.01;
y:=sin(x)/x;
writeln(‘x=’, x:2:2, ‘ y=’, y:5:5);
end;
end.
```

| X | y | x | y | X | y | x | y | x | Y |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **0.50** | **0.95885** | 0.40 | 0.97355 | 0.30 | 0.98507 | 0.20 | 0.99335 | 0.10 | 0.99833 |
| 0.49 | 0.96046 | 0.39 | 0.97484 | 0.29 | 0.98604 | 0.19 | 0.99399 | 0.09 | 0.99865 |
| 0.48 | 0.96204 | 0.38 | 0.97611 | 0.28 | 0.98698 | 0.18 | 0.99461 | 0.08 | 0.99893 |
| 0.47 | 0.96359 | 0.37 | 0.97734 | 0.27 | 0.98789 | 0.17 | 0.99519 | 0.07 | 0.99918 |
| 0.46 | 0.96510 | 0.36 | 0.97854 | 0.26 | 0.98877 | 0.16 | 0.99574 | 0.06 | 0.99940 |
| 0.45 | 0.96659 | 0.35 | 0.97971 | 0.25 | 0.98962 | 0.15 | 0.99625 | 0.05 | 0.99958 |
| 0.44 | 0.96804 | 0.34 | 0.98084 | 0.24 | 0.99043 | 0.14 | 0.99674 | 0.04 | 0.99973 |
| 0.43 | 0.96947 | 0.33 | 0.98195 | 0.23 | 0.99121 | 0.13 | 0.99719 | 0.03 | 0.99985 |
| 0.42 | 0.97086 | 0.32 | 0.98302 | 0.22 | 0.99195 | 0.12 | 0.99760 | 0.02 | 0.99993 |
| 0.41 | 0.97222 | 0.31 | 0.98406 | 0.21 | 0.99267 | 0.11 | 0.99798 | **0.01** | **0.99998** |

Demak, ko‘rinib turibdiki, *x* ning qiymati 0 ga intilgan sayin, *u* ning qiymati 1 ga intiladi. Bunda *x* ning qiymati 0 ga intilganda $\frac{\sin(x)}{x}$ ning limiti 1 ga teng degan tushunchaning isboti to‘g‘riligini o‘quvchilar o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar.

Boshqa bir $\lim_{x\to 0}(1+x)^{\frac{1}{x}} = e$ ajoyib limitni ko‘rib chiqaylik. Bunga ham dastur tuzib, jadvalda keltirilgan natijani olamiz.

```
Program dastur;
Var  i: integer; x, y: real;
begin
for i:=50 downto 1 do
begin
x:=i*0.01;
y:=exp((1/x)*ln(1+x));
writeln(‘x=’, x:2:2, ‘ y=’, y:5:5);
end;
end.
```

| X | y | x | y | X | Y | x | y | x | Y |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **0.50** | **0.25000** | 0.40 | 2.31910 | 0.30 | 2.39779 | 0.20 | 2.48832 | 0.10 | 2.59374 |
| 0.49 | 0.25653 | 0.39 | 2.32651 | 0.29 | 2.40627 | 0.19 | 2.49813 | 0.09 | 2.60525 |
| 0.48 | 0.26314 | 0.38 | 2.33401 | 0.28 | 2.41486 | 0.18 | 2.50810 | 0.08 | 2.61696 |
| 0.47 | 0.26984 | 0.37 | 2.34161 | 0.27 | 2.42358 | 0.17 | 2.51822 | 0.07 | 2.62886 |
| 0.46 | 2.27661 | 0.36 | 2.34932 | 0.26 | 2.43243 | 0.16 | 2.52850 | 0.06 | 2.64098 |
| 0.45 | 2.28347 | 0.35 | 2.35712 | 0.25 | 2.44141 | 0.15 | 2.53894 | 0.05 | 2.65330 |
| 0.44 | 2.29042 | 0.34 | 2.36504 | 0.24 | 2.45051 | 0.14 | 2.54955 | 0.04 | 2.66584 |
| 0.43 | 2.29745 | 0.33 | 2.37306 | 0.23 | 2.45975 | 0.13 | 2.56033 | 0.03 | 2.67860 |
| 0.42 | 2.30458 | 0.32 | 2.38119 | 0.22 | 2.46913 | 0.12 | 2.57128 | 0.02 | 2.69159 |
| 0.41 | 2.31179 | 0.31 | 2.38943 | 0.21 | 2.47865 | 0.11 | 2.58242 | **0.01** | **2.70481** |

Demak, ko‘rinib turibdiki, *x* ning qiymati 0 ga intilgan sayin, *u* ning qiymati 2,71 ga intiladi. Bunda *x* ning qiymati 0 ga intilganda $(1+x)^{\frac{1}{x}}$ ning limiti *e* ga teng degan tushuncha isbotining to‘g‘riligini o‘quvchilar o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar.

Yuqoridagi dasturlar *x* ning qiymati 0,50 dan 0,01 gacha bo‘lgan oraliqda, uning qiymatlarini 0,00001 aniqlikda olish uchun tuzilgan. Agar *x* ning qiymati 0,001 va undan yuqori aniqlikda olinsa, natija ham shuncha aniqlikda chiqadi.

Bunday dasturlar tuzish orqali matematik tushunchalarni o‘quvchilarga yetkazishda, qiymatli aniqliklarni isbotlashda bir qancha hisoblash ishlarini osonlashtiramiz va aniqlik darajasini ko‘rsata olamiz. Funksiyaning uzluksizligi, funksiyaning nuqtada va kesmada uzluksizligi ham, boshqa funksiyalarning limitlarini aniqlashda, uning qiymatlarini isbotlashda ham xuddi shunday usullardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Zakirova F., MuxamedxanovU., SharipovSh., IsyanovR.G., EsonboboyevF., DottoyevS. Elektron o‘quv-uslubiy majmualar va ta’lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodikqo‘llanma. – T.: OO‘MTV, 2010. – 55 b

2.Ro‘zimurodovO.N., HamdamovR.H. Elektron o‘quv nashrlarini yaratishda ularning moslashuvchanligini oshirish // “Fan va ta’limda axborot-kommunikasiya texnologiyalarini” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma’ruzalar to‘plami. Toshkent, 2006 y.

**Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

**Bosh muharrir**

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

**Mas’ul muharrir**

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

**Nashrga tayyorlovchi**

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

**“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2022-yil. 114 bet.**
**© Talqin va tadqiqotlar, 2022**
**© Mualliflar jamoasi, 2022**